

UZTELECOM.UZ

# BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTI / 2024

“O‘zbektelekom” AK

# MUNDARIJA


## Kirish qismi

4 Asosiy korsatkichlar
8 Kuzatuv Kengashi raisining murojaati
10 Boshqaruv raisining murojaati

## 1. Kompaniya haqida

14 Kompaniya profili
18 Faoliyat geografiyasi
20 2024-yildagi asosiy voqealar
26 Kompaniya tarixi
28 Barqaror rivojlanish maqsadlari va Kompaniyaning 2024-yilda ularga erishishga qo'shgan hissasi
30 Xalqaro uyushmalardagi a'zolik

## 2. Hisobot haqida

34 Hisobotni tayyorlash jarayoni va tamoyillari
36 Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar
37 Hisobotning salmoqli mavzulari va chegaralarini belgilash

## 3. Korporativ boshqaruv va barqaror rivojlanish masalalarini boshqarish

42 Korporativ boshqaruv tuzilmasi va organlari
58 Mukofotlash tizimi
60 Barqaror rivojlanish masalalarini boshqarish tizimi va 2024-yil natijalari
62 Ichki nazorat va audit tizimi
64 Biznes-etika va korrupsiyaga qarshi kurashish

## 4. Iqtisodiy natijaviylik

72 Boshqaruvga yondashuv
73 Xaridlar tizimi
79 Ijtimoiy-iqtisodiy talablarga muvofiqlik

## 5. Ekologik mas'uliyat va klimatik kun tartibi

82 Boshqaruvga yondashuv
86 Atrof-muhit muhofazasi
96 Tarmoqning o'ziga xosligi va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va moslashishga qaratilgan chora-tadbirlar
104 Energiya iste'moli va energiya tejamkorlik

## 6. Mehnatni muhofaza qilish va ish joyidagi xavfsizlik

110 Boshqaruvga yondashuv
112 Ish joyidagi xavfsizlik
115 Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari bo'yicha o'qitish

## 7. Ijtimoiy mas'uliyat va jamiyat oldidagi majburiyatlar

118 Boshqaruvga yondashuv
120 Bandlik
125 Personalni rivojlantirish va o'qitish
127 Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va hayot sifatini yaxshilash bo'yicha loyihalar
132 Turfa xillik va inklyuzivlik
134 Axborot xavfsizligi
136 Faoliyat yuritilayotgan hududlarda qo'llab-quvvatlash va hayot sifatini oshirish loyihalari

## 8. Ilovalar

142 Glossariy va qisqartmalar ro'yxati
143 GRI "Content Index" mundarijasi ko'rsatkichi
150 SASB-indikatorlar mundarijasi ko'rsatkichi
152 GSMA ESG-metrikalariga muvofiqlik
156 Kontakt uchun ma'lumotlar

# ASOSIY KORSATKICHLAR

## EKOLOGIK KO‘RSATKICHLAR

### QTEMDAN ENERGIYA ISTE’MOLI, GJ




### UTILIZATSIYA QILINADIGAN XAVFSIZ CHIQINDILARNING UMUMIY HAJMI, T




### UMUMIY YALPI TASHLAMALAR (SCOPE 1 & 2), $TCO_2$-EKV




**34,3%** ↑

2023 yilga nisbatan umumiy yalpi tashlanmalarning (Scope 1 va 2) oshishi

## IJTIMOIY KO‘RSATKICHLAR

### XODIMLAR SONI, JAMI KISHI




### O‘QITILGAN XODIMLAR ULUSHI, %




**16 825**

kishi

2024-yilgi xodimlar soni

### BIR YILDA ISHCHILARNI O‘QITISH UCHUN XARAJATLAR, MING SO‘M



# ASOSIY KORSATKICHLAR

## IJTIMOIY KO‘RSATKICHLAR

### RAHBARLIKDAGI AYOLLAR SONI




### MEHNAT XAVFSIZLIGI VA SANOAT XAVFSIZLIGI BOSHQARUVI TIZIMI BILAN QAMRAB OLINGAN ODAMLAR SONI




## BOSHQARUV KO‘RSATKICHLARI

### YARATILGAN TO‘G‘RIDAN TO‘G‘RI IQTISODIY QIYMAT, MLRD SO‘M




### TAQSIMLANGAN IQTISODIY QIYMAT, MLRD SO‘M




## BOSHQARUV KO‘RSATKICHLARI

### TASIMLANMAGAN IQTISODIY QIYMAT, MLRD SO‘M




### MAHALLIY YETKAZIB BERUVCHILARDAN XARIDLAR SUMMASI, MLN SO‘M




### SON BO‘YICHA %




### SUMMA BO‘YICHA %



# KUZATUV KENGASHI RAISINING MUROJAATI

## HURMATLI AKSIYADORLAR, INVESTORLAR, MIJOZLAR VA HAMKORLAR!

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi 2024-yilgi yutuqlarni qamrab oluvchi Barqaror rivojlanish bo‘yicha ikkinchi hisobotini faxr bilan taqdim etadi. Biz diqqat-e’tiborni xizmatlarni kengaytirish va takomillashtirishga qaratdik: yangi mahsulotlar va servislar joriy etildi, butun mamlakat bo‘ylab tarmoq qamrovi sezilarli kengaytirildi, shuningdek, yuqori sifat va taqdim etilayotgan xizmatlar ishonchliligi ta’minlandi. Iqtisodiy hissamiz va “yashil” iqtisodiyotga intilishimiz yaqqol namoyon bo‘ldi: biz hududlar rivojiga salmoqli iqtisodiy hissa qo‘shdik va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshirishga, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga, xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilishga, QTEMdan foydalanishga va sirkulyar iqtisodiyotga yo‘naltirilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini faol qo‘llab-quvvatlaymiz.

2024-yilda biz qator asosiy siyosatlarni tasdiqlab va chop etiladigan hisobotlar hajmini kengaytirib, Kompaniyadagi shaffoflik darajasini sezilarli oshirdik. Bu manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlarimizni mustahkamladi. Biz infratuzilma va raqamli servislarni faol rivojlantirib, butun O‘zbekiston bo‘ylab abonentlar bazasini kengaytirishni va telekommunikatsiya tarmog‘i, jumladan baza stansiyalarni modernizatsiyalash ishlarini davom ettirdik. Kompaniyaning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishining monitoringi doirasida, 2024-yilda Risklarni boshqarish qo‘mitasi ta’sis etildi, u Kompaniyada korporativ miqyosda Ekologik va ijtimoiy menejment tizimini boshqaradi.



**SHERMATOV SHERZOD XOTAMOVICH**

“O‘zbektelekom” AK Kuzatuv Kengashi raisi

“O‘zbektelekom” AK uzoq muddatli barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga intiladi, bu barcha manfaatdor tomonlar uchun qo‘shimcha iqtisodiy qiymat yaratish imkonini beradi. Biz har yili barqaror rivojlanish sohasidagi hisobotni chop etib, o‘z taraqqiyotimizni aks ettirishni rejalashtirganmiz. Aksiyadorlarimiz va hamkorlarimizga — ishonch bildirganlari uchun, xodimlarga esa — 2024-yildagi yuksak natijalarga qo‘shgan bebaho hissalari uchun minnatdorchilik bildiraman.

# BOSHQARUV RAISINING MUROJAATI

**HURMATLI AKSIYADORLAR, HAMKORLAR VA HAMKASBLAR!**

E’tiboringizga “O‘zbektelekom” AKning GRI, SASB va GSMA xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan 2024-yil uchun Barqaror rivojlanish bo‘yicha ikkinchi hisoboti taqdim etilmoqda. Bu hujjatda biz hisobot davri yakunlari bo‘yicha ekologik, ijtimoiy va korporativ sohalardagi eng salmoqli voqealarni va erisha olgan natijalarimizni jamladik.

Kompaniyamiz muntazam ravishda barcha mijozlarimiz va hamkorlarimiz uchun eng yaxshi kelajakni yaratishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda va bu faoliyat Kompaniya filiallari ish yuritadigan hududlarda faol amalga oshirilmoqda. Biz barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiq bo‘lishga intilamiz. Hisobotda xizmatlarimizdan foydalanuvchilar, mahalliy hamjamiyatlar vakillari va Kompaniya xodimlarining hayoti sifatini oshirish uchun “O‘zbektelekom” AK tomonidan ekologik va ijtimoiy sohalarda qanday loyihalar amalga oshirilayotganligi, shuningdek, biznes-jarayonlarni yanada samarali va atrof-muhit uchun xavfsiz qilish yo‘lida ular qanday takomillashtirilayotganligi haqida tegishli ma’lumotlar aks ettirilgan.

Hisobot davrida ishlarni muvofiqlashtirish, sifatli boshqaruvni ta’minlash va ekologik, ijtimoiy hamda boshqaruv xatarlarini minimallashtirishni, shuningdek, Kompaniyaning biznes-jarayonlariga “ESG” tamoyillari integratsiya qilinishini ta’minlash uchun Risklarni boshqarish qo‘mitasining funksiyasi kengaytirildi.

Bundan tashqari, Kompaniya infratuzilmasini kengaytirish va yangi texnologiyalarni rivojlantirish ishlari davom ettirildi. 2024-yilda “ICT Week Uzbekistan” doirasida biz “Huawei” bilan birgalikda sinov rejimida 5.5G tarmog‘ini ishga tushirdik, bu esa mamlakatda telekommunikatsiya xizmatlari sifatini oshirish uchun yangi ufqlarni ochdi. Shuningdek, Kompaniya tomonidan O‘zbekiston Respublikasida birinchi bo‘lib “VoWiFi” texnologiyasi joriy etildi, ushbu texnologiya orqali abonentlarni mobil signal cheklangan sharoitda ham sifatli va ishonchli aloqa bilan ta’minlashga erishildi.



**HASANOV NAZIRJON NABIJANOVICH**

“O‘zbektelekom” AK boshqaruvi raisi

Ijtimoiy mas’uliyat sohasida Kompaniya mahalliy hamjamiyatlar, yoshlar, Kompaniya ishchi-xodimlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha faol ishlarni davom ettirdi. 2024-yilda ijtimoiy dasturlarga Kompaniyaning umumiy xarajatlaridan 2 foizi yo‘naltirildi, bu esa bizning mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash hamda hayot sifatini oshirishga qo‘shgan hissamizni tasdiqlaydi.

Shuningdek, Kompaniya ekologik xavfsiz texnologiyalarni faol joriy etib boradi. Biz elektr va gibrid transportga o‘tishni va yangi Data-markazlar qurilishida energiya samarador yechimlar joriy etilishini davom ettiramiz.

Aminmizki, barqaror rivojlanish tamoyillari tatbiq etilishini davom ettirish va EIMTga rioya qilish biz uchun nafaqat bozordagi maqomimizni mustahkamlashga, balki mamlakatning barqaror rivojlanishiga va barcha manfaatdor tomonlarning farovonligiga salmoqli hissa qo‘shish imkonini beradi.

Aksiyadorlarimiz va hamkorlarimizga — ishonch uchun, Kompaniya xodimlariga esa — ushbu hisobotda faxr bilan taqdim etilayotgan yutuqlarimizdagi hissalari uchun minnatdorchilik bildiraman.

# 1. KOMPANIYA HAQIDA


14 Kompaniya profili
18 Faoliyat geografiyasi
20 2024-yildagi asosiy voqealar
26 Kompaniya tarixi
28 Barqaror rivojlanish maqsadlari va Kompaniyaning 2024-yilda ularga erishishga qo‘shgan hissasi
30 Xalqaro uyushmalardagi a’zolik




# KOMPANIYA PROFILI

GRI 2-1, 2-2, 2-6

**“O‘ZBEKTELEKOM” AK (UZBEKTELECOM) — MILLIY TELEKOMMUNIKATSIYALAR OPERATORI VA O‘ZBEKISTONDA ALOQA XIZMATLARINI YETKAZIB BERUVCHI YETAKCHI KOMPANIYA. KOMPANIYA AHOLINI VA BIZNESNI ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI, JUMLADAN STATSIONAR VA MOBIL ALOQA, KENG POLOSALI INTERNET, RAQAMLI TELEVIDENIYE VA BULUTLI YECHIMLAR BILAN TA’MINLAB, MAMLAKATNING RAQAMLI INFRATUZILMASI RIVOJLANISHIDA ASOSIY ROL O‘YNAYDI.**

Kompaniyaning yuridik nomi — “O‘zbektelekom” AK, savdo nomi — UZTELECOM™. Kompaniya O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” 2014-yil 7-maydagi O‘RQ-370-son Qonuniga muvofiq faoliyat yurituvchi, davlat ulushi ustun bo‘lgan aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.

**“O‘ZBEKTELEKOM” AK FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:**

- Statsionar aloqa
- Mobil aloqa
- Keng polosali Internet (DSL, Fiber-optic)
- Raqamli televideniye
- Bulutli yechimlar va biznes uchun yechimlarni

2024-yida Kompaniya o‘z optik tolali tarmog‘i (FTTx, GPON) ni kengaytirishni davom ettirdi va biznes uchun yangi bulutli xizmatlarni yo‘lga qo‘ydi, bu korporativ mijozlar uchun raqamli yechimlarni rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi.

**KOMPANIYANING QIYMAT ZANJIRI 500 DAN ZIYOD YETKAZIB BERUVCHILAR BILAN HAMKORLIKNI O‘Z ICHIGA OLADI, ULAR ORASIDA TELEKOMMUNIKATSIYA JIHOZLARI, IT-YECHIMLAR VA INFRATUZILMA BILAN TA’MINLOVCHI XITOY, JANUBIY KOREYA VA YEVROPADAN XALQARO KOMPANIYALAR.**

**>10 mln**

Kompaniya O’zbekiston bo’ylab xususiy va korporativ mijozlarga xizmat ko’rsatadi

Kompaniya butun O‘zbekiston bo‘ylab 10 mln xususiy va korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatadi. Daunstrim-subyektlar yakuniy foydalanuvchilar, chakana hamkorlar va distribyutorlarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, Kompaniya raqamlashtirish va AKT-infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish yo‘lida xalqaro telekommunikatsiya kompaniyalari, moliyaviy muassasalar va davlat organlari bilan faol hamkorlik qiladi.

TC-TL-000.A, B, C, D

**BUGUNGI KUNDA KOMPANIYA ABONENTLAR BAZASI VA TARMOQ TRAFIGI BO‘YICHA QUYIDAGI KO‘RSATKICHLARGA EGA:**

**9,2 mln** mobil aloqa abonentlari soni

**1,6 mln** statsionar telefon aloqasi abonentlari soni

**2,5 mln** keng polosali ulanish abonentlari soni

**6 568 petabayt** tarmoq trafigi

**TC-TL-520A.2, 3**

O'zbekistonda provayderlar va aloqa operatorlari o'rtasida samarali Internet-trafik almashinuvini ta'minlovchi bir nechta piring tarmoqlari faoliyat ko'rsatmoqda — Uz-IX, TAS-IX va SNS-IX. Uz-IX, o'tkazuvchanlik qobiliyatiga qarab, bir martalik va har oylik to'lovni undiradi, TAS-IX esa, a'zolik shartnomalari asosida ishlaydi va mahalliy trafikning bepul almashinuvini taqdim etadi, bu xalqaro trafik uchun xarajatlarni kamaytiradi. SNS-IX Internetga yuqori tezlikda va ishonchli ulanish bilan mustaqil almashinuv nuqtasi sifatida faoliyat yuritadi.

Xatarlar orasida tarmoq neytraliteti va pulli piring bilan bog'liq tartibga solishdagi o'zgarishlarni, shuningdek, Uz-IX tarif modellari tufayli moliyaviy yuklamani va raqobatchilar infratuzilmasiga bog'liqlikni ajratib ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, mahalliy piring tarmoqlaridan foydalanish xarajatlarni qisqartirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va mahalliy operatorlar bilan hamkorlikni mustahkamlash imkonini beradi, bu mamlakat raqamli ekotizimining rivojiga xizmat qiladi. Xatarlarni minimallashtirish uchun turli piring tarmoqlariga ulanishni diversifikatsiyalash va qonunchilikdagi o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borish tavsiya qilinadi.

**O'ZINING VA TIJORIY BOG'LIQ KONTENT YUKLANISHINING (1) AMALDAGI BARQAROR TEZLIGI, TARIF REJASI (STATSIONAR INTERNET)DAN VA (2) ASSOTSIATSIYA QILINMAGAN KONTENTDAN KELIB CHIQIB — 100 MBIT/SEKUNDDAN 1 GBIT/SEKUNDGACHA:**

**80,99** Mbit/s
Statsionar Internet

**54,17** Mbit/s
Mobil Internet (5G — 422,95 Mbit/s)

## Kompaniya missiyasi

**"O'zbektelekom" AK missiyasi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga va hayot sifatining yaxshilanishiga xizmat qilish orqali, O'zbekistonning barcha aholisi uchun zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlariga ulanishni ta'minlashdan iborat.**

## Kompaniya qadriyatlari

**Kompaniya qadriyatlari innovatsiyalar va texnologik yetakchilikni, xizmatlar sifati va ishonchliligini, ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanishni, shuningdek, professionallik va jamoaviy ishlashni o'z ichiga oladi.**

**"O'zbektelekom" AK rivojlanishi tarixi 1992-yildan, Kompaniya milliy aloqa operatori sifatida tashkil etilgandan vaqtdan boshlanadi. O'z faoliyati davomida Kompaniya an'anaviy statsionar aloqa operatoridan ko'p profilli telekommunikatsiya va raqamli xizmatlar yetkazib beruvchisigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Bugungi kunda Kompaniya iqtisodiyotni raqamlashtirish va mamlakatning barcha hududlarini telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda asosiy ishtirokchi hisoblanadi.**



# FAOLIYAT GEOGRAFIYASI

GRI 2-6

**“O‘ZBEKTELEKOM” AK O‘ZBEKISTONNING BUTUN HUDUDIDA, JUMLADAN QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT YURITADI. KOMPANIYA HAM YIRIK SHAHARLARNI, HAM CHEKKA QISHLOQ JOYLARINI TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BILAN TA’MINLAYDI.**

2024-yilda Kompaniya o‘z optik tolali tarmog‘ini (FTTx, GPON) katta ko‘lamda kengaytirishni davom ettirdi, bu avvallari yetib borish qiyin bo‘lgan hududlardagi minglab uy xo‘jaliklari va korxonalarni yuqori tezlikdagi Internetga ulash imkonini berdi. Zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Farg‘ona vodiysi, Surxondaryo viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi kabi hududlarda infratuzilmani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

“O‘zbektelekom” AK davlat xizmatlarini, jamoat xavfsizligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini raqamlashtirish borasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun mahalliy hokimiyat organlari bilan ham faol hamkorlik qiladi. Masalan, 2024-yilda Kompaniya tomonidan qishloq joylardagi 500 dan ziyod maktablar va tibbiyot muassasalari Internetga ulanishi ta’minlandi, bu ta’lim sifatini yaxshilashga va aholiga tibbiy xizmatlardan foydalanishda qulaylik yaratishga xizmat qiladi.

“O’zbektelecom” AK barcha viloyatlar markazlarida

**5G**

texnologiyasini ishga tushirdi va bu O‘zbekistonni MDH mamlakatlari orasida 5G umummilliy tarmog‘i qoplamiga ega bo‘lgan birinchi davlatga aylantirdi

**>500**

maktablar va tibbiyot muassasalari

2024 yilda Internetga ulangan qishloq joylarda

**286 583 km**

umumiy tolali-optik aloqa liniyalari uzunligi



# 2024-YILDAGI ASOSIY VOQEALAR

## Yanvar

**03.01.2024**

“O‘zbektelekom” AK tomonidan Samarqand viloyatining chekka tumanlari (Urgut, Payariq, Bulung‘ur tumanlari)da baza stansiyalari o‘rnatilib, mobil aloqa va Internet sifati yaxshilandi. Kompaniya respublika bo‘ylab tarmoqni kengaytirish rejalashtirilganligini bildirdi.

**19.01.2024**

“CERT MANAGEMENT” MChJ tomonidan muvaffaqiyatli o‘tkazilgan auditdan so‘ng, “O‘zbektelekom” AK “TÜV Thüringen International (Germaniya)” kompaniyasidan ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimi bo‘yicha muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘ldi. Sertifikat Kompaniya va uning tarkibidagi filiallarning butun faoliyatiga taalluqlidir.

**31.01.2024**

“O‘zbektelekom” AK (“O‘zMobayl” filiali) va “AMIRSOY” MChJ QK o‘rtasida “AMIRSOY” tog‘ kurortida telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash uchun hamkorlik memorandumi imzolandi. “O‘zbektelekom” AK tomonidan infratuzilmani rivojlantirish uchun texnologik qo‘llab-quvvatlash ishlari amalga oshiriladi.

## Fevral

**06.02.2024**

“O‘zbektelekom” AK aqlli qurilmalar, jumladan smartfon, planshet va avtomobil gajetlari uchun yangi tariflar to‘plamini taqdim etdi. Internet-trafik hajmi 300 GBdan 1 TBgacha bo‘lgan uchta yillik tarif taklif etildi.

## Fevral

**16.02.2024**

“O‘zbektelekom” AK va uning shu’ba kompaniyalari Respublika qon quyish markazida tashkil etilgan “Men — donor” aksiyasida qatnashdi. Kompaniyaning 100 nafarga yaqin xodimi aksiya doirasida qon topshirdi.

## Mart

**25.03.2024**

Kompaniya energiya tejamkor texnologiyalar va muqobil energiya manbalarini joriy etishni davom ettirdi. Jumladan, Kompaniyaning Navoiy filiali uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash maqsadida Nurota tumanidagi chekka “Chuya” posyolkasidagi baza stansiyasida quyosh panellarini o‘rnatdi. Kompaniyaning xabar berishicha, hozirda butun respublika bo‘ylab mingdan ziyod tarmoq obyektlari muqobil energiya manbalari bilan ta’minlangan.

## Aprel

**02.04.2024.**

Britaniyaning “Brand Finance” agentligi O‘zbekistonning eng qimmatli milliy brendlari reytingini taqdim etdi. **Ro‘yxatda yetakchi** o‘rinni “O‘zbektelekom” AK egalladi, uning brendi **241 mln dollarga** baholandi. Tadqiqot 20 ta kompaniyani qamrab olgan va mamlakatni Global innovatsion indeksda ilgari surishga rahbarlik qiluvchi O‘zbekiston innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslangan.

**04.04.2024**

Kompaniyaning “Bosh kommutatsiya markazi” filiali xodimlari “Bolalarga hayot hadya etamiz” nomli donorlik aksiyasida qatnashdi. Aksiyada filial rahbariyati, xodimlari va 35 nafar ko‘ngilli ishtirok etdi.

**18.04.2024**

Kompaniyaning Sirdaryo filiali tomonidan xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbir tashkil etildi. Ekspertlar S. Haqberdiyev va M. Yunusov “Terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash” mavzusida ma’ruzalar taqdim etdilar.

## May

**01.05.2024**

“O‘zbektelekom” AK vakillari Respublika askiya va yumor markazi tomonidan tashkil etilgan “Askiya san’ati tarixini o‘rganishga innovatsion yondashuv va uni amalga oshirish” nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida qatnashdi. Shuningdek, Kompaniya, askiya san’atini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “O‘zbektelekom” huzurida “Do‘stlar klubi” tashkil etilishi to‘g‘risida ma’lum qildi.

**03.05.2024**

Kompaniyaning “Kontakt markazi” filiali Samarqanddagi “E-com & Retail 2024” xalqaro forumida autsorsing xizmatini taqdim etdi. Filial xizmatlari ko‘rgazma qatnashchilarida qiziqish uyg‘otdi.

## Iyun

**10.06.2024**

“O‘zbektelekom” AK delegatsiyasi Belarusdagi xalqaro “TIBO” AKT forumida qatnashdi. Kompaniya xodimlari sun’iy intellektni rivojlantirish, raqamli integratsiya va innovatsion texnologiyalarga bag‘ishlangan munozaralar va master-klassda qatnashdilar.

**14.06.2024**

“O‘zbektelekom” AK “5G loyihasi ishga tushirilganligi” uchun CC-Global Awards mukofotini qo‘lga kiritdi. Kompaniya uchta nominatsiyada short-listga kirdi va 2023-yilda 6 000 dan ziyod baza stansiyalari o‘rnatgani va modernizatsiya qilgani uchun mukofot oldi.

**24.06.2024**

“O‘zbektelekom” AK tomonidan Respublika onkologiya va radiologiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiy markazi bilan birgalikda Kompaniyaning 45 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan xodimalar uchun sut bezi saratoni skriningini tashkil etdi. Skriningda 576 nafar ayol qatnashdi.

## Iyul

**10.07.2024**

Kompaniya rahbariyatning yosh xodimlar bilan uchrashuvlarini o‘tkazish amaliyotini davom ettirdi. Sirdaryo filialida navbatdagi yig‘ilish o‘tkazildi, unda yoshlar tashabbuslari va ularning Kompaniya rivojiga qo‘shgan hissasi muhokama qilindi. Faol yosh xodimlar minnatdorchilik xatlari va sovg‘alar bilan taqdirlandi.

## Iyul

**15.07.2024**

Kompaniyaning Qashqadaryo filiali 2023-2024-yillarda 20 ta AirPON (Air Passive Optical Network) qurilmalarini foydalanishga topshirdi. 10 240 nafar abonentga mo‘ljallangan ushbu qurilmalar Qashqadaryo viloyatining chekka tumanlarida yuqori tezlikdagi Internet va boshqa telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati bilan ta’minlaydi. Qurilmalarning ishlashi “O‘zkomnazorat” Qashqadaryo viloyat inspeksiyasi tomonidan tekshirildi.

## Avgust

**19.08.2024**

“O‘zbektelekom” AK tomonidan Toshkent Markaziy temir yo‘l vokzalida SIM-kartalar sotuvchi ilk avtomatlashtirilgan terminal (SIM-komat) o‘rnatildi. Qurilma foydalanuvchilarga mustaqil ravishda SIM-karta olish va uni faollashtirish imkonini beradi. Kompaniya shu kabi terminallar tarmog‘ini butun O‘zbekiston bo‘ylab kengaytirishni rejalashtirmoqda.

**23.08.2024**

“O‘zbektelekom” AKda “Swift Launch” venchur studiyasi startap-loyihalarining pitch-sessiyasi o‘tkazildi. Startaplar sun’iy intellekt va “Edutech” sohasidagi innovatsion loyihalarni taqdim etdi. Ishtirokchilar ekspertlardan konsultatsiyalar oldilar.

**24.08.2024**

Kompaniya “VoWiFi” texnologiyasini ishga tushirib, abonentlarga mobil tarmog‘i qamrovi cheklangan hududlarda “Wi-Fi” orqali ovozli aloqa va xabarlar almashish imkoniyatini taqdim etdi.

**24.08.2024**

Kompaniya Buxorodagi Ark maydonida birinchi 5G baza stansiyasini ishga tushirdi. 5G ishga tushirilishi Kompaniya homiyligida “Bukhara Night Race” yugurish musobaqasi o‘tkazilishiga bag‘ishlandi. Kompaniya Buxoro va boshqa hududlarda 5G qamrovini yanada kengaytirish rejalashtirilganligini ma’lum qildi.

**28.08.2024**

“O‘zbektelekom” AKda O‘zbekiston mustaqilligining 33 yilligiga bag‘ishlangan davra suhbati o‘tkazildi. Tadbirda Kompaniya faxriylari, ekspertlar va xodimlar qatnashdi. Davra suhbatida mamlakatni rivojlantirish, yoshlarning roli va kiberxavfsizlik masalalari muhokama qilindi.

## Sentabr

**12.09.2024**

Kompaniya energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishni davom ettirdi. Turli tumanlarning ma'muriy binolarida quyosh panellari o'rnatildi: Nurota tumanida — quvvati 20 kVt, Navbahor tumanida — 15 kVt, Karmana tumanida — 30 kVt va Xatirchi tumanida — 15 kVt. Kompaniya barcha filiallarda muqobil energiya manbalarini joriy etish davom ettirilishi haqida ma'lum qildi.

**18.09.2024**

Kompaniyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali tomonidan iyuldan avgustga qadar bo'lgan davrda parklar va xiyobonlarda 35 ta "Wi-Fi" hududi tahkil qilindi. "Wi-Fi" hududlari ham pulli, ham bepul Internetga ulanish imkoniyatini taqdim etadi. Kompaniya xabar berishicha, hozirgi vaqtda butun respublika bo'ylab 97 ta obyektda 191 ta "Wi-Fi" hududi mavjud.

**20.09.2024**

"ICT Week 2024" ko'rgazmasida "O'zbektelekom" AK O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vaziri tomonidan ishga tushirilgan 5.5G texnologiyasini taqdim etdi. Shuningdek, Kompaniya yangilangan "MyUZTELECOM" ilovasini, sun'iy intellekt bazasida biznes uchun yechimlar va kiberxavfsizlik sohasidagi yechimlarni taqdim etdi. Kompaniya texnikaning chakana savdosini boshladi va "UZTELECOM Travel" platformasini taqdim etdi.

## Oktabr

**08.10.2024**

Kompaniyaning To'rtko'l tuman telekommunikatsiyalar bog'lamasi chekka aholi punktlaridagi telekommunikatsiya xizmatlari qamrovini kengaytirdi. Optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi va GPON texnologiyasi bo'yicha yuqori tezlikdagi Internetdan foydalanish imkoniyati yaratilishi ta'minlandi.

**18.10.2024**

Kompaniyaning Sirdaryo filiali Xovos tuman telekommunikatsiyalar bog'lamasi xodimlariga murakkab ob-havo sharoitida ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi qoidalari to'g'risida yo'riqnomalar berildi va ular tegishli bilimlarga ega bo'ldilar.

## Noyabr

**01.11.2024**

"O'zbektelekom" AK mobil tarmoqni modernizatsiyalash bo'yicha keng ko'lamli loyihani boshladi. Loyiha mobil aloqa sifatini yaxshilash uchun butun mamlakat bo'ylab baza stansiyalarini yangilashni o'z ichiga oladi.

**01.11.2024**

"O'zbektelekom" AK delegatsiyasi Istanbuldagi "Mobile Broadband Forum (MBBF) 2024" va "Ultra Broadband Forum (UBBF) 2024" xalqaro forumlarida qatnashdi. Forumlarda mobil va keng polosali foydalanishdagi tendensiyalar, jumladan 5.5G va F5.5.G texnologiyalari muhokama qilindi.

**14.11.2024**

"O'zbektelekom" AK Toshkentda o'tgan "InnoWeek.Uz-2024" xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligining texnik hamkori bo'ldi. Kompaniya tadbirni yuqori tezlikdagi Internet bilan ta'minladi va ishtirokchilar hamda mehmonlarga SIM-kartalar taqdim etildi.

## Dekabr

**06.12.2024**

Kompaniya o'z xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashishni boshqarish tizimi bo'yicha o'quv kursini tashkil etdi. Kurs "CERT Academy" bilan hamkorlikda o'tkazildi va xalqaro ISO 37001:2016 standartiga asoslandi.

**29.12.2024**

"O'zbektelekom" AK "Amirsoy" tog'-chang'i kurortida "PUBG MOBILE" qishki festivalining texnik hamkori bo'ldi. Kompaniya uzluksiz Internet-ulanishni ta'minladi va mehmonlarga xizmat ko'rsatish hududini tashkil etdi.

# KOMPANIYA TARIXI

## 1992

Pochta va elektr aloqasi davlat korxonalarining viloyat aloqa boshqarmalari bazasida “O‘zbektelekom” elektr aloqasi davlat korxonalari konserni tuzildi.

## 1995-1996

Xususiylashtirish boshlanishi va “Toshkent taksofoni”, “Sirdaryo telekom” aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilishi, “Buzton”, “Chirkom” qo‘shma korxonalari, shuningdek, “Uzbektelekom Interneshnl” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilishi.

## 1997

Aloqa vazirligining O‘zbekiston Pochta va telekommunikatsiyalar agentligi sifatida qayta tashkil etilishi. Mustaqil tartibga solish organi tashkil etilishi. “Mahalliy telekom” va “Xalqaro telekom” aksiyadorlik kompaniyalari, shuningdek, “Toshkent shahar telefon tarmog‘i”, “Toshkent telekom”, “Andijon telekom”, “Namangan telekom” va boshqa aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi.

## 2000

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 28-iyundagi “Telekommunikatsiyalar sohasidagi boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2647-son Farmoni qabul qilindi. “Mahalliy telekom” va “Xalqaro telekom” aksiyadorlik kompaniyalari negizida “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi tuzildi. “Qoraqalpoq Telekom”, “Buxoro Telekom”, “Navoiy Telekom”, “Xorazm Telekom”, “Toshkent telefon-telegraf stansiyasi”, “Xalqaro aloqa” aksiyadorlik jamiyatlari ta’sis etildi. “Intal telekom” filiali tuzildi.

## 2001-2002

Xolding tuzilmasini operatorlik kompaniyasiga o‘zgartirish yo‘li bilan “O‘zbektelekom” AK tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlari qayta tashkil etildi. “UzNet” shu’ba korxonasi “O‘zbektelekom” AKga filial sifatida qo‘shildi. Axborot memorandumi yakunlandi va uning salohiyatli investorlar o‘rtasida tarqatilishi boshlandi.

## 2003

“O‘zbektelekom” AK Muhandislik-texnik markazi tashkil etildi. Yangi faoliyat turi — CDMA-450 standartida simsiz radioulanish xizmatlarini ko‘rsatish o‘zlashtirildi. Simsiz aloqa umummilliy tizimlarini rivojlantirish uchun “O‘zbektelekom Mobayl” filiali tashkil etildi.

## 2004

“UzNet” filiali “Intal telekom” filialiga qo‘shildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida CDMA-450 standartini qo‘llagan holda abonent simsiz radioulanish tarmog‘i kengaytirildi. Servis intellektual xizmatlar uchun 805 nogeografik ulanish kodi joriy etildi.

## 2005

“UzNet” filiali bilan qo‘shilish hisobiga “UzPAK” MUDTK “O‘zbektelekom” AK filiali sifatida qayta tashkil etildi. VoIP shlyuzi kengaytirildi va “TShTT” va “UZNeT” filiallari bazasida qo‘shimcha VoIP bog‘lamalari tashkil etildi.

## 2006

IEEE 802.16-2004 standartida “WiMax” pilot loyihasini amalga oshirish boshlandi. Ixtisoslashgan “Muhandislik-texnik markaz” (MTM) filiali tashkil etildi. Respublikaning barcha viloyat markazlarini qamrab oluvchi videokonferensaloqa xizmati joriy etildi.

## 2007

“O‘zMobayl” filiali respublikaning barcha hududlarida CDMA 450 standarti bazasida mobil aloqa va ma’lumotlar uzatish xizmatlarini taqdim etishni boshladi. Xitoy taraqqiyot banki va “Huawei Technologies” kompaniyasi bilan birgalikda “O‘zbektelekom” AK telekommunikatsiya tarmog‘ini qayta tiklash va rivojlantirish” investitsiya loyihasi amalga oshirildi. NGN texnologiyalari bazasida Toshkent shahrining telekommunikatsiya tarmoqlari modernizatsiya qilindi va kengaytirildi.

## 2010

Xalqaro paketli kommutatsiya markazining o‘tkazuvchanlik qobiliyati 2,5 Gbit/sekundgacha oshirildi. Provayderlar va operatorlar uchun Internet-xizmatlar tarifi 44 foizga pasaytirildi.

## 2011

Rebrending o‘tkazilib, yangi UZTELECOM™ hamda UZMOBILE™ va UZONLINE™ subbrendlarini ilgari surish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirildi.

## 2012

1 576 km optik tolali aloqa liniyalari qurilishi yakunlandi. Xalqaro paketli kommutatsiya markazining o‘tkazuvchanlik qobiliyati 40 Gbit/sekundgacha oshirildi. Respublika viloyatlari, tuman markazlari va shaharlari raqamli telekommunikatsiya tarmog‘i bilan 100 % qamrab olindi.

## 2013

2257,4 km optik tolali aloqa liniyalari foydalanishga topshirildi. CDMA-450 texnologiyasi asosida mobil tarmoq qamrovi hududi 74 foizgacha kengaytirildi. Internet tarmog‘iga keng polosali ulanish abonentlari soni 62 foizga ortdi.

## 2014

Xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish tezligi 151,3 foizga oshirildi. Internet tarmog‘i operatorlari va provayderlari uchun tariflar 11,6 foizga pasaytirildi. 2 000 kilometrdan ortiq optik tolali aloqa liniyalari qurildi. 26 dona zamonaviy kommutatsiya qurilmasi ishga tushirildi.

## 2015

1 800 kilometrdan ziyod OTAL qurildi. Tarixiy va madaniy meros obyektlari hududlarida “Wi-Fi” tarmog‘ini rivojlantirish ishlari amalga oshirildi. 702 ta o‘quv muassasasi Internet tarmog‘iga ulandi.

## 2016

2 313 kilometrdan ortiq OTAL qurildi. Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlarida “Wi-Fi” tarmoqlari kengaytirildi. Qishloq joylarda obyektlargacha 1 138,1 km optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi.

## 2017

2 491 kilometrga yaqin OTAL qurildi. 10 80 multistandart baza stansiyalari o‘rnatildi. Qishloq joylarda obyektlargacha 2 102,2 km optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi.

## 2018

Xalqaro paketli kommutatsiya markazining o‘tkazuvchanlik qobiliyati 1 200 Gbit/sekundgacha oshirildi. Cheklovsiz trafikli tarif rejalariga narxlar 2 barobardan ko‘proqqa pasaytirildi. Umumiy sig‘imi 201,2 ming portdan ortiq bo‘lgan Internetga keng polosali ulanish qurilmalari o‘rnatildi.

## 2019

“Demand”dan “IPTV+Video” xizmati joriy etildi. “Uz-IX” piring tarmog‘i yo‘lga qo‘yildi. “MyUZTELECOM” mobil ilovasi ishga tushirildi. 8 864 km optik tolali aloqa liniyalari qurildi. 3751 ta yangi baza stansiyalari o‘rnatildi.

## 2020

37 581 km optik tolali aloqa liniyalari qurildi. Keng polosali ulanish portlarining soni ikki barobarga — 2,3 mln donagacha ortdi. Mobil aloqa baza stansiyalarining soni 18 317 donaga oshdi. “UNITS” innovatsion tariflar paketi joriy etildi.

## 2021

Xalqaro axborot-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish tezligining 1400 Gbit/sekundgacha ortishi. 50 575 km optik tolali aloqa liniyalari yotqizilishi. 902 ta qo‘shimcha baza stansiyalari o‘rnatilishi. 3,4 mln uy xo‘jaliklari uchun Internet tarmog‘iga keng polosali ulanishning ta’minlanishi.

## 2022

44 135 km optik-tolali aloqa liniyalari qurilishi. Baza stansiyalarining umumiy soni 20 420 tagacha ortishi. Operatorlar va provayderlar uchun 1 Mbit/s tashqi Internet-kanalning narxi pasaytirilishi. Buxoro shahrida “Google” kesh-serverining ishga tushirilishi.

## 2023

“UZTELECOM” ketma-ket uchinchi marta “Yil brendi” mukofoti laureati bo‘ldi. 66 988 kilometrdan ziyod optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi. 6 000 dan ortiq yangi baza stansiyalari ishga tushirildi va modernizatsiya qilindi. Toshkent va Samarqand shaharlari 5G tarmog‘i bilan to‘liq qamrab olindi. Internetga yuqori tezlikdagi ulanish uchun qurilmalar sig‘imi 4,8 mln portga ortdi. “Telecom TV” platformasi ishga tushirildi. “PUBG” mobil o‘yini uchun “Tencent” CDN-serverlarini mahalliylashtirish loyihasi amalga oshirildi. Mobil aloqa abonentlari uchun “VoLTE” texnologiyasi joriy etilishi boshlandi.

# BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA KOMPANIYANING 2024-YILDA ULARGA ERISHISHGA QO‘SHGAN HISSASI

2024-yilda "O‘zbektelekom" AK tomonidan so‘rovnoma o‘tkazildi, unda turli manfaatdor tomonlarning 40 nafar vakili, jumladan steykxolderlar va Kompaniya xodimlari qatnashdi. So‘rovnomadan ko‘zlangan maqsad — Kompaniya uchun asosiy Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ni aniqlash bo‘ldi. So‘rovnoma o‘tkazish natijalariga ko‘ra, 6 ta ustuvor BRM belgilandi:

**Munosib ish va iqtisodiy o‘sish.** Qashshoqlikni yo‘qotish uchun iqtisodiy va ijtimoiy siyosat qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

**Barqaror shaharlar va aholi punktlari.** Infratuzilmani rivojlantirish shaharlar va aholi punktlari barqarorligiga xizmat qiladi.

**Industrializatsiya, innovatsiya va infratuzilma.** Infratuzilmaga investitsiyalar — barqaror rivojlanishning asosiy omilidir.

**Iste’mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o‘tishni ta’minlash.** Maqsad "kamroq resurs bilan ko‘proq va sifatliroq natijaga erishish"dan iborat.

**Notenglikni qisqartirish.** Ham mamlakat ichida, ham mamlakatlararo notenglik darajasini pasaytirish lozim.

**Barqaror rivojlanish manfaatlarida hamkorlik.** Barqaror rivojlanishga erishishni global, mintaqaviy va mahalliy miqyoslardagi samarali hamkorliksiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

So‘rovnoma 2023- va 2024-yil uchun Kompaniya barqaror rivojlanishi hisobotini tayyorlash doirasida o‘tkazildi. So‘rovnoma manfaatdor tomonlarning turli guruhlariga yuborildi, jumladan:

- aksiyadorlar;
- "O‘zbektelekom" AK va uning shu’ba korxonalari rahbariyati;
- xodimlar;
- investorlar;
- hamkorlar (yetkazib beruvchilar, pudratchilar, moliyaviy institutlar);
- OAV vakillari;
- notijorat tashkilotlar;
- mijozlar.

So‘rovnoma **GRI, SASB, GSMA va IFRS** standartlariga muvofiq ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv barqarorligi) sohasidagi Kompaniya uchun eng ahamiyatli mavzularni aniqlashga qaratilgan. Ishtirokchilarga turli iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-boshqaruv jihatlarining ahamiyatini, shuningdek, Kompaniya faoliyati kontekstida BMTning 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlarining relevantligini baholash taklif etildi.

## KOMPANIYA UCHUN ASOSIY BO‘LGAN BRM BO‘YICHA NATIJALAR

| BRM va vazifalar | Loyihalar | 2024-yildagi natijalar |
|---|---|---|
| **8- BRM:** Munosib ish va iqtisodiy o‘sish. Qashshoqlikni yo‘qotish uchun iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni qayta ko‘rib chiqish lozim. | Xodimlarni o‘qitish va qayta tayyorlash dasturlari (malaka oshirish kurslari, OTMlar bilan hamkorlik). | 2024-yilda **16 488** nafar xodim o‘qitildi. |
| **9- BRM:** Industrializatsiya, innovatsiya va infratuzilma. Mustahkam infratuzilmani yaratish, keng qamrovli va barqaror industrializatsiya va innovatsiyalar amalga oshirilishida ko‘maklashish. | Ijtimoiy imtiyozlar (turar joy, tibbiy yordam, moddiy ko‘mak). | Xodimlarga **44** ta xonadon berildi. |
| **10- BRM:** Notenglikni qisqartirish. Insonlar va mamlakatlar o‘rtasida notenglikni qisqartirish. | Aholining ijtimoiy zaif toifalari ishga joylashishini qo‘llab-quvvatlash. | 2024-yilda ishga joylashishda qiyinchilikka uchrayotgan fuqarolar uchun **45** ta ish joy zaxiraga olindi. |
| **11- BRM:** Barqaror shaharlar va aholi punktlari. Shaharlar va aholi punktlarining ochiqligi, xavfsizligi, yashovchanligi va ekologik barqarorligini ta’minlash. | Startaplarni qo‘llab-quvvatlash uchun "UZTELECOM Pitch Day" loyihasi. | Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar **593,421 mln so‘mni** tashkil etdi. |
| **17- BRM:** Barqaror rivojlanish manfaatlarida hamkorlik. Barqaror rivojlanishga erishishni global, mintaqaviy va mahalliy miqyoslardagi samarali hamkorliksiz amalga oshirib bo‘lmaydi. | Yoshlar siyosati (yosh mutaxassislarni ish bilan ta’minlash, startaplar tanlovi). | Hisobot davrida **30** yoshdan kichik **501** nafar xodim ishga joylandi. |

# XALQARO UYUSHMALARDAGI A'ZOLIK

GRI 2-28

**SOHAGA OID XALQARO VA TARMOQ UYUSHMALARIDA A'ZOLIK KOMPANIYAGA BARQAROR RIVOJLANISH BO'YICHA GLOBAL MULOQOTNING BIR QISMI BO'LISH, ENG YAXSHI AMALIYOTLAR VA ILG'OR USLUBIYOTLARDAN FOYDALANISH, SHUNINGDEK, IQLIMIY VA IJTIMOIY MAQSADLARGA ERISHISH BO'YICHA O'Z HISSASINI OSHIRISH IMKONINI BERADI.**

Bunday tashkilotlarda a'zolik manfaatdor tomonlar kutilmalarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi, ESG-strategiyani qurishda ko'maklashadi, shuningdek, Kompaniyaning, xalqaro bozorning mas'uliyatli va shaffof ishtirokchisi sifatida, obro'sini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, bu hamkorlik, tajriba almashish va barqaror moliyalashtirishni jalb qilish uchun imkoniyatlarni kengaytiradi. "O'zbektelekom" AK quyidagi xalqaro va tarmoq uyushmalarida ishtirok etadi:

**International Telecommunication Union (ITU)**, "O'zbektelekom" AK "ITU" tadbirlarida 2016-yildan buyon ishtirok etadi, 2016-yil sentabrda ular Toshkentda "Innovative ICT Technologies" ITU-seminarini, 2017-yilda Samarqandda "Smart Sustainable Cities" tadbirini o'tkazdilar.

"O'zbektelekom" vakillari har yili Butunjahon elektr aloqani rivojlantirish konferensiyalari (WTDC)da, "ITU Telecom World" forumlarida, shuningdek, standartlashtirish, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish va kiberxavfsizlik masalalariga oid ishchi sessiyalarda qatnashib keladi. Kompaniyaning "aqlli shaharlar"ni rivojlantirish bo'yicha "ITU" tashabbuslarida ishtirok etishi alohida salmoqli bo'ldi, ular doirasida "O'zbektelekom" AK tomonidan O'zbekistonda shahar infratuzilmasini raqamlashtirish konsepsiyasi ilgari surilmoqda.

Bundan tashqari, Kompaniya "ITU"ning mintaqaviy ofislari bilan faol hamkorlik qiladi va Markaziy Osiyo mamlakatlarida telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturlarida, qo'shma tadqiqot loyihalarida va ishchi guruhlarda qatnashadi.

Shu tariqa, "ITU" bilan hamkorlik "O'zbektelekom" uchun ilg'or xalqaro tajribadan foydalanishni ta'minlovchi, global telekom-makonda Kompaniyaning maqomini mustahkamlovchi va mamlakatning jadal raqamlashtirilishiga ko'maklashuvchi muhim strategik platforma bo'ldi.

**"O'zbektelekom" AKning "ITU"ga a'zoligi: 2016-2017-yillardan buyon.**

**Aloqa sohasida mintaqaviy hamdo'stlik (AMH)**, "O'zbektelekom" AK AMH tadbirlarida kamida 2018-yildan buyon qatnashadi, o'shandayoq Moskva shahridagi Xalqaro texnologik kongressda Kompaniya AMH Operatorlar kengashining majlisida tomonlardan biri sifatida ishtirok etgandi.

O'sha vaqtdan beri "O'zbektelekom" AKning AMH faoliyatidagi ishtiroki barqaror va tizimli xarakterga ega bo'ldi. Kompaniya profildagi forumlar, konferensiyalar va ishchi guruhlar yig'ilishlarida muntazam qatnashib, MDH makonidagi telekommunikatsiyaviy hamkorlik rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

2018-yildan hozirgi kunga qadar, "O'zbektelekom" AMH Elektr aloqasi operatorlari kengashining yig'ilishlarida, transchegaraviy tarfik almashinuvi, roumingni tartibga solish masalalari muhokamasida, shuningdek, mintaqada raqamli transformatsiya va aloqa standartlarini uyg'unlashtirish tashabbuslarida faol qatnashadi. Ayniqsa, AMH doirasida kelishuvlar loyihalarini tayyorlash va kelishishdagi, shuningdek kiberxavfsizlik, raqamli rivojlanish va aloqa infratuzilmasidan birgalikda foydalanish masalalari bo'yicha ishchi guruh faoliyatidagi ishtirokni alohida qayd etish o'rinli.

Shu tariqa, "O'zbektelekom" AK uchun AMH muloqot maydonchasigina emas, balki mintaqaviy hamkorlik, tajriba almashinuvi va tezkor rivojlanayot an aloqa tarmog'ida umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishning o'ta muhim vositasi hamdir.

**"O'zbektelekom" AKning AMHga a'zoligi: 2018-yildan buyon**

**Markaziy Osiyo Sun'iy intellekt uyushmasi (AICA)**, SI sohasida ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, 12 ta ustuvor tarmoqda uni joriy etish va raqamli axloqni ommaviylashtirishni o'z maqsadi deb biladi.

2025-yil 12-fevralda "O'zbektelekom" AKning Markaziy Osiyo Sun'iy intellekt uyushmasi (AICA) ga rasmiy a'zo bo'lishi Kompaniyaning raqamli transformatsiya strategiyasi va ilg'or texnologiyalar sohasidagi maqomining mustahkamlanishida muhim davr bo'ldi.

"AICA"ga a'zo bo'lib, "O'zbektelekom" AK shunchaki texnologik taraqqiyot bilan hamohang harakatlanish emas, balki SI mintaqaviy ekotizimini shakllantirishda faol qatnashish istagida ekanini bildirdi. A'zolikning birinchi oylaridayoq, Kompaniya Uyushmaning katta ma'lumotlar tahlili, jarayonlarning intellektual avtomatizatsiyasi va yangi avlod raqamli platformalar sohasidagi yechimlarni ishlab chiqish va tatbiq etishga yo'naltirilgan ekspert sessiyalari, ishchi guruhlari va loyihaviy tashabbuslariga qo'shildi.

Shu tariqa, "AICA"ga a'zolik bu shunchaki obro' maqomi emas, balki "O'zbektelekom" AK raqamli kelajak lokomotivlaridan biri bo'lgan O'zbekistonning mintaqaviy va global SI-kun tartibiga integratsiyasidagi real ilgarilashdir.

**"O'zbektelekom" AKning "AICA"dagi a'zoligi: 2025-yil 12-fevraldan boshlab.**

**Carrier Community (CC)**— bu 2008-yilda tashkil etilgan va o'z a'zolari uchun dunyoning turli shaharlarida Operatorlar umumjahon hamjamiyatining har yilgi yig'ilishlarini tashkil etuvchi global telekommunikatsiya klubi. CC media uchun, tarmoq hamkorligi va telekommunikatsiya xizmatlari bo'yicha ulgurji yetkazib beruvchilar hamda telekom ekotizimining hamkorlari uchun tarmoqqa yo'naltirilgan platformani taqdim etadi. CC statsionar tarmoqlar, ma'lumotlar uzatish, messenjing, ovoz, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, VAS, MVNO, Internet-xizmatlar provayderlari, suvosti kabellar, telekom-markazlar, bulutli yechimlar, yo'ldoshli aloqa, korxonalar va kontent hamda boshqa tarmoqlarga xizmat ko'rsatadi.

**"O'zbektelekom" AKning CCga a'zoligi: 2022-yildan buyon.**

34 Hisobotni tayyorlash jarayoni va tamoyillari
36 Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlar
37 Hisobotning salmoqli mavzulari va chegaralarini belgilash

# 2. HISOBOT HAQIDA



# HISOBOTNI TAYYORLASH JARAYONI VA TAMOYILLARI

GRI 2-3

2024-yil uchun "O‘zbektelekom" AKning barqaror rivojlanish hisoboti (keyingi o‘rinlarda — Hisobot, BRH) Kompaniyaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy tashabbuslarining amalga oshirilishi, shuningdek, barqaror rivojlanish sohasidagi yutuqlar, korporativ boshqaruv va manfaatdor tomonlar oldidagi mas’uliyat sohasidagi yutuqlar to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga oladi. Hisobotda Kompaniyaning 2024-yil 1-yanvardan 2024-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan davrdagi faoliyati yoritilgan, shuningdek, agar barqaror rivojlanish va operatsion faoliyatga aloqasi bor bo‘lsa, hisobot sanasidan keyin ro‘y bergan salmoqli voqealar keltirilgan. Hujjat o‘rta muddatli istiqboldagi rivojlanish ustuvorliklari va yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi va barqaror hisobdorlik xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan.

## HISOBOTNI TAYYORLASH JARAYONI

Hisobot mazmunini belgilashda Kompaniya GRI standartlari tavsiyalariga tayandi. Hisobot ilovasida GRI va SASB jadvali keltirilgan, ularda GRI ko‘rsatkichlari va SASB (Sustainability Accounting Standards Board) tarmoq ko‘rsatkichlari oshkor etilishi haqidagi axborot taqdim etilgan.

**Hisobotning sifati GRI standartlarining asosiy tamoyillari qo‘llanishi bilan ta’minlanadi:**

| | |
|---|---|
| **Muvozanatlilik** | Umumiy natijaviylikning asosli baholanishini ta’minlash uchun Hisobot Kompaniya faoliyatining ham ijobiy (masalan, rejalar ijrosi, belgilangan maqsadlarga erishish), ham salbiy (masalan, jarimalar, baxtsiz hodisalar to‘g‘risidagi axborot) jihatlarini aks ettiradi. |
| **Qiyosiylik** | Kompaniya Hisobotda axborotni miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘yicha bir necha yillik dinamikada taqdim etadi. Bu manfaatdor tomonlarga Kompaniya faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlarida vaqt o‘tishi bilan kuzatilgan o‘zgarishlarni o‘rganish va boshqa tashkilotlar bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish imkonini beradi. |
| **Oydinlik** | Hisobotdagi axborot tashkilot va uning faoliyatini yetarlicha tushunadigan manfaatdor tomonlar uchun oydin shaklda bayon etilgan. |
| **Ishonchlilik** | Hisobotdagi barcha ma’lumotlar Kompaniyaning profil bo‘linmalari tomonidan to‘plangan, taqdim etilgan va ishonchliligi tekshirilgan. |
| **Aniqlik** | Barcha salmoqli mavzular bo‘yicha axborot Hisobotda batafsil taqdim etilgan va manfaatdor tomonlarga Kompaniya faoliyatining natijalarini baholash imkonini beradi. Barcha ma’lumotlar Kompaniya tomonidan rasman tan olinadi, ichki hujjatlar, shuningdek, ochiq foydalanishda (jumladan, Kompaniya saytida https://uztelecom.uz/) joylangan hujjatlar bilan tasdiqlanadi. |
| **Dolzarblik** | Hisobot 2024-kalendar yil uchun axborotni taqdim etadi, 2025-yilda chop etiladi.<br>Barqaror rivojlanish konteksti.<br>Hisobot Kompaniyaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlar kesimidagi hissasi to‘g‘risidagi axborotni taqdim etadi. Hisobotda Kompaniyaning 2024-yil yakunlari bo‘yicha 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda qo‘shgan hissasining miqyosi haqida ma’lumotlar oshkor etilgan. |
| **To‘liqlik** | Hisobotda Kompaniyaning hisobot davri davomida barqaror rivojlanishning barcha jihatlari bo‘yicha harakatlarini baholash uchun yetarlicha axborot taqdim etilgan. |

Shuningdek, nomoliyaviy hisobotni tayyorlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi. Tayyorlov bosqichida joriy hisobot tahlili o‘tkazildi, ishtirokchilar belgilandi va rahbariyat kutilmalari, shu jumladan, strategik maqsadlar va o‘z talablariga ega manfaatdor tomonlar belgilandi. Rejalashtirish bosqichida hisobot muddatlari, chegaralari va shakli, standartlar, tayyorlash va nazorat rejasi, mas’ullar belgilandi. Steykxolderlar bilan o‘zaro munosabatlar doirasida amaldagi mexanizmlar tahlil qilindi va zaruriy yangi harakatlar belgilandi. Mazmunni belgilash bosqichida ahamiyatli mavzular aniqlandi, ro‘yxat va qo‘shimcha ko‘rsatkichlar, shuningdek, hisobot konsepsiyasi va tuzilmasi ishlab chiqildi. Hisobdorlik va nazorat tizimini baholash bosqichida axborotni to‘plash va monitoring qilish baholandi, jarayonlar moslashtirildi va ichki nazorat tahlil qilindi. Tayyorlash bosqichi axborotni to‘plash va tahlil qilishni, matnni ishlab chiqish va to‘ldirishni, shuningdek, rahbariyat tomonidan tasdiqlanishini o‘z ichiga oldi. Qayta aloqa bosqichida hisobotni va jarayonni takomillashtirish uchun mulohazalar olindi.

"O‘zbektelekom" AK 2023-yildan boshlab muntazam ravishda nomoliyaviy hisobotlarni chop eta boshladi. Mazkur 2024-yil uchun barqaror rivojlanish hisoboti 2025-yil sentabrda chop etildi va Kompaniyaning rasmiy saytiga ochiq foydalanish uchun joylashtirilgan.

# MANFAATDOR TOMONLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR

GRI 2-26, 2-29

**"O'ZBEKTELEKOM" AK MANFAATDOR TOMONLAR, JUMLADAN DAVLAT ORGANLARI, AKSIYADORLAR, XODIMLAR, MIJOZLAR, YETKAZIB BERUVCHILAR, MAHALLIY HAMJAMIYATLAR, JAMOAT TASHKILOTLARI VA XALQARO INSTITUTLAR BILAN FAOL HAMKORLIK QILADI.**

Steykxolderlarning toifalari ularning Kompaniya faoliyatiga ta'siri va ularning manfaatlariga ta'sir qilish darajasiga qarab belgilanadi. Steykxolder — bu tashkilot faoliyatidan manfaatdor va uning qarorlari, maqsadlari va natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi jismoniy yoki yuridik shaxsdir. Steykxolderlar qatoriga xodimlar, aksiyadorlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar, davlat organlari, mahalliy hamjamiyatlar, hamkorlar va manfaatlariga Kompaniya harakatlari bevosita yoki bilvosita daxl qiluvchi boshqa guruhlar kirishi mumkin.

O'zaro munosabatlarning asosiy maqsadi — Kompaniya faoliyati bilan bog'liq ehtiyojlar, kutilmalar va salohiyatli xatarlarni aniqlash. Steykxolderlarning fikrlari strategik qarorlar ishlab chiqishda hisobga olinadi, xodimlar bilan o'zaro munosabatlar esa, kollektiv muzokaralar va qarorlar qabul qilinishida kasaba uyushmalari orqali qatnashishni o'z ichiga oladi.

Salmoqli o'zaro hamkorlikni ta'minlash uchun Kompaniya muntazam ravishda uchrashuvlar, konsultatsiyalar, so'rovlar va ommaviy muhokamalardan foydalanadi va steykxolderlarga rasmiy sayt va yillik hisobotlar orqali dolzarb axborotdan foydalanish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-370-son Qonuni talablariga muvofiq, aksiyadorlar asosiy qarorlar qabul qilinishida qatnashadilar. Mahalliy hamjamiyatlar kabi zaif qatlamlarga, til va madaniy to'siqlar inobatga olingan holda, alohida e'tibor beriladi.

Qayta aloqa tahlil etiladi va boshqaruv qarorlarida inobatga olinadi, steykxolderlar esa ularning fikrlari Kompaniya faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatganligi haqida xabardor qilinadi. "O'zbektelekom" AK samarali o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlash uchun resurslar ajratadi va biznes-sheriklar bilan hamkorlik qilib, ularning steykxolderlar huquqlarini hurmat qilish borasida yuksak standartlarga rioya etishlariga umid qiladi.

Kompaniyaning yondashuvi barqaror rivojlanish, shaffoflik va barcha ishtirokchilar huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslangan, bu xatarlarni minimallashtirishga hamda jamiyat va biznes uchun uzoq muddatli qadriyatlar yaratilishiga xizmat qiladi.



# HISOBOTNING SALMOQLI MAVZULARI VA CHEGARALARINI BELGILASH

GRI 1-1, 2-2, 3-1, 3-2, 3-3

**"O'ZBEKTELEKOM" AK O'ZARO HURMAT, HAMKORLIK VA SHAFFOFLIK TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN HOLDA, BARCHA MANFAATDOR TOMONLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR VA KONSTRUKTIV HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHGA INTILADI. KOMPANIYA BARCHA STEYKXOLDERLAR BILAN, ULARNING KUTILMALARI VA EHTIYOJLARINI O'Z VAQTIDA ANIQLASH UCHUN, BARCHA TOMONLAR MANFAATLARINING MUVOZANATLANGAN HISOBINI TA'MINLAB, OCHIQ MULOQOTNI MUNTAZAM QO'LLAB-QUVVATLAB KELADI.**

**GRI 3 STANDARTLARI REALIZATSIYASI DOIRASIDA SALMOQLILIKNI BAHOLASH JARAYONI QUYIDAGI BOSQICHLARNI O'Z ICHIGA OLDI:**

- Biznes, jamiyat va atrof-muhitga salmoqli ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega barqaror rivojlanishning salmoqli mavzularini identifikatsiyalash;
- Manfaatdor tomonlar, jumladan aksiyadorlar, mijozlar, hamkorlar, xodimlar, davlat organlari va mahalliy hamjamiyatlar vakillarini belgilash;
- Har bir mavzuning Kompaniya faoliyatiga ta'sirini strategik ahamiyat, operatsion xatarlar, ehtimoliy moliyaviy oqibatlar, raqobat afzalliklari va obro' omillari nuqtayi nazaridan baholash;
- Biznes uchun salmog'i va tashqi manfaatdor tomonlardan qayta aloqa tahlili asosida mavzularni ustuvorlash.

Ushbu hisobotni tayyorlash doirasida so‘rov o‘tkazildi, unda turli manfaatdor tomonlarni taqdim etuvchi 40 nafar respondent qatnashdi. Qatnashchilarga barqaror rivojlanishning 18 ta mavzusining ahamiyatini Kompaniya tomonidan ochib berilganlik nuqtayi nazaridan:

**past salmoqlilik** — **o‘rtacha salmoqlilik** — **yuqori salmoqlilik**

01 Biznesning uzluksizligini ta’minlash: telekommunikatsiyalar sohasida uzluksiz va sifatli xizmatlar taqdim etilishi.

02 Iqtisodiy natijaviylik.

03 Tejamkor ishlab chiqarish va iste’mol tamoyillarini joriy qilish, birgalikda foydalanish iqtisodiyoti.

04 Telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash orqali raqamli iqtisodiyot rivojiga xizmat qilish.

05 Chiqindilar bilan ishlash.

06 Iqlim o‘zgarishi (issiqxona gazlari tashlamasi).

07 Suv resurslari va bioxilma-xillik.

08 Energiya iste’molini qisqartirish va energiya samaradorligini oshirish.

09 Ijtimoiy ta’sir: O‘zbekiston Respublikasida jamiyat oldida turgan joriy vazifalarga javob beruvchi xizmatlar va servislarni yaratish.

10 Xodimlar farovonligi va mehnatni muhofaza qilish.

11 Mobil aloqaning salomatlikka ta’siri.

12 Xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va ma’lumoti.

13 Faoliyat hududlarida ijtimoiy dasturlar va mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirish.

14 Yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik — yetkazib berishning mas’uliyatli silsilasini shakllantirish.

15 Maxfiylik va xavfsizlik: mijozlar va hamkorlarning shaxsga doir ma’lumotlari butligini ta’minlash.

16 Mas’uliyatli va xavfsiz Internet-kontent shakllanishi.

17 Kompaniyaning korporativ boshqaruvi shaffofligi va korrupsiyaga qarshi kurashish.

18 Ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun Kompaniya tomonidan innovatsiyalar joriy etilishi.



So‘rov yakunlariga ko‘ra, respondentlar 5 ta ustuvor mavzularni belgiladilar, ularga mazkur hisobotda alohida e’tibor berilgan:

- Telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash orqali raqamli iqtisodiyot rivojiga xizmat qilish.
- Xodimlar farovonligi va mehnatni muhofaza qilish.
- Energiya iste’molining qisqarishi va energiya samaradorligining oshishi.
- Ijtimoiy ta’sir: O‘zbekiston Respublikasida dolzarb ijtimoiy vazifalarga javob beruvchi xizmatlar va servislarni yaratish.
- Biznes uzluksizligini ta’minlash: telekommunikatsiyalar sohasida xizmatlarning uzluksiz va sifatli taqdim etilishi.

**SALMOQLILIK MATRITSASI**




Mazkur barqaror rivojlanish hisobotida axborotni oshkor qilish “O‘zbektelekom” AK miqyosida va unga idoraviy bo‘ysunuvdagi bo‘linmalar miqyosida, shu’ba korxonalar hisobga olinmagan holda amalga oshiriladi. GRI1 ga muvofiq, tashkilot qamrovi axborotning ishonchliligi va to‘liqligini ta’minlashi lozim. Hisobot tayyorlanishi vaqtida shu’ba korxonalar miqyosidagi jamlanma axborot ishonchlilik va qiyoslashga qobillik mezonlariga muvofiq to‘liq hajmda shakllanmagan bo‘lgan.

Kompaniya butun guruh bo‘yicha qamrov to‘liqligining ahamiyatini tan oladi va barcha shu’ba tashkilotlarda ESG-axborotni to‘plash jarayonlarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha choralar ko‘radi. Kelgusi hisobot davrlarida bosqichma-bosqich ularning ma’lumotlarini GRI, SASB talablari va “due diligence” tamoyillariga muvofiq nomoliyaviy hisobot tarkibiga kiritish rejalashtirilmoqda.

42 Korporativ boshqaruv tuzilmasi va organlari
58 Mukofotlash tizimi
60 Barqaror rivojlanish masalalarini boshqarish tizimi va 2024-yil natijalari
62 Ichki nazorat va audit tizimi
64 Biznes-etika va korrupsiyaga qarshi kurashish

# 3. KORPORATIV BOSHQARUV VA BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARINI BOSHQARISH



# KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMASI VA ORGANLARI

GRI 2-9

**2024-YILDA KOMPANIYA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV TAMOYILLARIGA RIOYA QILISHDA DAVOM ETDI VA UNI BARQAROR RIVOJLANISHNING UZVIY QISMI SIFATIDA QABUL QILDI. BOSHQARUV TIZIMI SHAFFOFLIK, HISOBDORLIK VA BARCHA MANFAATDOR TOMONLAR BILAN O‘ZARO KONSTRUKTIV HAMKORLIKNI TA’MINLASHGA YO‘NALTIRILGAN.**

Boshqaruv organlari faoliyati qonunchilik va ichki normativ hujjatlar talablariga qat’iy muvofiqlikda amalga oshiriladi.

### KORPORATIV BOSHQARUVNING ASOSIY ORGANLARI QUYIDAGILARDIR:



**Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi**



**Kuzatuv kengashi**



**Kollegial ijro organi (boshqaruv)**

Bu organlar Kompaniyaning strategik boshqaruvini, uning faoliyati ustidan nazoratni hamda barqaror o‘sishga erishish va aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar manfaatlariga rioya etilishiga qaratilgan qarorlar qabul qilinishini ta’minlaydilar.



Xatarlar identifikatsiyasi, baholanishi va monitoringiga yondashuvlarni tizimlashtirish, shuningdek, xatarlarni boshqarish jarayonlarining shaffofligini va hisobdorligini oshirish maqsadida, 2024-yilning noyabrida korporativ boshqaruv tuzilmasida Xatarlar boshqaruvi qo‘mitasi (XBQ) tashkil etildi. Qo‘mitaga boshqaruv raisi rahbarlik qiladi.

**Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:**

- boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari;
- boshqaruv raisining moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari;
- boshqaruv raisining tijorat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi;
- Korporativ boshqaruv va investitsiya portfeli departamenti direktori;
- Yuridik departament direktori;
- Risk menejmenti boshqarmasi boshlig‘i;
- Komplaens departamenti direktori;
- Ichki audit xizmati rahbari.

XBQ tashkil etilishi butun tashkilot miqyosida korporativ nazorat kuchayishi va xatarlarni boshqarishga yagona yondashuv shakllanishi sari muhim qadam bo‘ldi.

### “O‘ZBEKTELEKOM” AK KORPORATIV BOSHQARUVI SXEMASI



# AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI

**AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI KOMPANIYANING OLIY BOSHQARUV ORGANI BO'LIB, STRATEGIK RIVOJLANISH, BOSHQARUV TUZILMASI VA HISOBDORLIKKA OID ASOSIY QARORLAR QABUL QILINISHINI TA'MINLAYDI.**

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi faoliyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, jumladan, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, Kompaniya Ustavi, shuningdek, Samaradorlikni oshirish va korporativ boshqaruv komissiyasi tasdiqlagan Korporativ boshqaruv kodeksi bilan tartibga solinadi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi Kompaniya ustavida belgilangan muddatlarda, lekin moliyaviy yil yakunlanganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Unda Kompaniyaning yillik hisoboti va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar tasdiqlanadi, Kuzatuv kengashi saylanadi, shuningdek, boshqaruv raisi — Kompaniyaning kollegial ijro organi rahbari bilan mehnat shartnomasini uzaytirish, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida qarorlar qabul qilinadi.

Yillik yig'ilishlardan tashqari, zaruratga ko'ra, oliy boshqaruv organining ishtirokini talab qiluvchi masalalarni tezkor hal qilish uchun navbatdan tashqari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari ham o'tkaziladi.

Kompaniya aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Kompaniyaning strategik rivojlanishi va boshqaruvini belgilovchi asosiy qarorlar qabul qilish bo'yicha mutlaq vakolatga ega.

**Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi:**

- Kompaniya Ustaviga o'zgartishlar kiritish, uning yangi tahririni tasdiqlash;
- Kompaniyani qayta tashkil qilish yoki tugatish to'g'risida qarorlar qabul qilish, tugatuvchini tayinlash va tugatish balansini tasdiqlash;
- Kuzatuv kengashi va Minoritar aksiyadorlar qo'mitasini shakllantirish, ularning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin bekor qilish;
- Kompaniya ustav kapitalini oshirish yoki kamaytirish;
- Kompaniya tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijro organini shakllantirish, uning rahbarini tayinlash va uning vakolatini muddatidan oldin bekor qilish;
- Kompaniyaning yillik hisoboti, biznes-rejasi, shuningdek, rivojlanish strategiyasini tasdiqlash;
- Foyda va zararlarni taqsimlash;
- Korporativ obligatsiyalar va hosila qimmatli qog'ozlarni chiqarish, shuningdek, sotib olish yoki ustunlik huquqini qo'llashdan voz kechish to'g'risida qarorlar qabul qilish;
- Aksiyalar joylashtirish qiymatini belgilash va yirik bitimlar, jumladan affillangan shaxslar bilan bitimlarni amalga oshirish;
- Auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlari qiymatini tasdiqlash va shartnoma tuzish;
- Kuzatuv kengashi va ijro organi a'zolari uchun mukofot va kompensatsiyalarni belgilash;
- Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish to'g'risida qarorlar qabul qilish.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlari, shuningdek, qonunchilikka va Kompaniya Ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etishni ham o'z ichiga oladi. Bu vakolatlar Kompaniya shaffofligi, samarali boshqaruvi va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgandir.

Aksiyador O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalari va Kompaniyaning ichki reglamentlariga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega. Yig'ilishda qatnashish huquqi mazkur tadbirni o'tkazish uchun maxsus shakllantiriladigan aksiyadorlar reyestrida ro'yxatga olingan aksiyadorlarga taqdim etiladi. Reyestrga o'zgartish kiritishga faqatgina xatolarni to'g'rilash yoki buzilgan huquqlarni tiklash holatlarida ruxsat beriladi, bu shaffoflikni va aksiyadorlar huquqlari himoya qilinishini ta'kidlaydi.

**Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida quyidagilar qatnashish huquqiga ega:**

**01**

Aksiyadorlar va ularning vakolatli vakillari

**02**

Kompaniya Kuzatuv kengashining a'zolari

**03**

Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari

**04**

Yig'ilish vakolati doirasida qarorlar muhokamasi va qabul qilinishida qatnashadigan boshqa shaxslar.

Yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakillari yig'ilish o'tkazilishi haqidagi xabarda ko'rsatilgan joy va vaqtda ro'yxatdan o'tadilar. Ro'yxatdan o'tishda aksiyadorlar shaxsni tasdiqlovchi hujjatni, vakillar — ishonchnomani taqdim etadilar. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi lozim. Yuridik shaxs nomida ovoz berish uchun ishonchnoma uning rahbari imzosi bilan beriladi va ushbu yuridik shaxs muhri (muhr bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlanadi.

Aksiyadorlar-yuridik shaxslar o'z rahbarlari yoki vakolatlari ta'sis hujjatlari bilan belgilanadigan va tegishli tartibda tasdiqlanadigan vakolatli shaxslar orqali qatnashadilar.

Shuningdek, Kompaniya keyingi yillarda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini elektron ovoz berish tizimi, ya'ni evote.uz orqali tashkil etilayotganini kuzatmoqda, jumladan "O'zbektelekom" AK Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun ushbu tizimdan foydalanadi.

Bu tizim ovoz berish uchun qulay va universal vosita bo'lib, aksiyadorlarga saytdagi elektron byulleten shaklini to'ldirish orqali yig'ilishlarda ro'yxatdan o'tish va ovoz berish imkonini yaratadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini tashkil etishga bunday yondashuv qatnashish uchun teng imkoniyat yaratilishini, taomillar shaffofligini va barcha aksiyadorlar manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi.

## DIVIDEND SIYOSATI

**KOMPANIYA AKSIYADORLAR FAROVONLIGINI OSHIRISHGA VA KAPITALIZATSIYANING BARQAROR O'SISHIGA QARATILGAN MUVOZANATLANGAN DIVIDEND SIYOSATIGA RIOYA QILADI. ASOSIY MAQSADLAR BARQAROR TO'LOVLARNI, QARORLAR QABUL QILISHNING SHAFFOFLIGINI VA AKSIYADORLAR MANFAATLARI VA BIZNES EHTIYOJLARI O'RTASIDA MUVOZANATGA RIOYA ETISHNI TA'MINLASHDAN IBORAT.**

**SIYOSAT QATOR ASOSIY TAMOYILLARGA ASOSLANADI:**

**Shaffoflik**
Kompaniya dividendlar, ularning o'lchamlari va to'lov muddatlari bo'yicha qarorlar qabul qilish tartibi to'g'risidagi axborotni oshkor etadi.

**Adolatlilik**
Barcha aksiyadorlar dividend to'lovlari va ularning shartlari haqida axborot olishda teng huquqlarga ega.

**Oqilonalik**
Dividendlar faqat ijobiy moliyaviy natijalar mavjud bo'lganda, Kompaniyaning investitsiyaviy rejalarini inobatga olgan holda to'lanadi.

**Izchillik**
Qabul qilingan dividend siyosati tamoyillari izchil amalga oshiriladi va takomillashtiriladi.

**Barqarorlik**
Kompaniya, aksiyadorlarni uzoq muddatli istiqbolga ishonch bilan ta'minlab, to'lovlarni prognozlashtirishga va muntazam ravishda amalga oshirishga intiladi.

Dividendlar to'lash to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengashi tavsiyasi asosida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Bunda, auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan Kompaniyaning sof foydasi, moliyaviy rejalar, aylanma kapitali tuzilmasi va qarz yuklamasi darajasi hisobga olinadi. Kompaniya, bir vaqtning o'zida rivojlanishni va aksiyalarning bozor qiymati oshishini ta'minlagan holda, dividendlarga sof foydaning kamida 30 foizini yo'llantirishga intiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Kompaniya Ustavi va ichki normativ hujjatlar dividendlarni to'lash tartibini belgilaydi. Dividendlar joylashtirilmagan aksiyalar, Kompaniyaning o'ziga tegishli bo'lgan aksiyalar uchun, shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa holatlarda hisoblanmaydi. Kompaniya aksiyadorlar oldidagi e'lon qilingan dividendlarni to'lash bo'yicha o'zining majburiyatlarini bajarishga, shu jumladan barcha yondosh xarajatlar qoplanishiga javobgar hisoblanadi.

Kompaniya barqarorlik va to'lovlarning oldindan ma'lum bo'lishiga asoslanib, o'z dividend siyosatini takomillashtirishni davom ettiradi. Foydani taqsimlash masalalarida shaffoflikni oshirish, shuningdek, kapital tuzilmasini optimallashtirish — ustuvor masalalardan biridir. Dividendlar to'lovi investitsiyaviy dasturlar va operatsion faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga e'tibor beriladi.

## KUZATUV KENGASHI

GRI 2-12

**"O'ZBEKTELEKOM" AK KUZATUV KENGASHI KOMPANIYA FAOLIYATI USTIDAN UMUMIY BOSHQARUVNI AMALGA OSHIRADI (AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHI VA IJRO ORGANI VAKOLATIGA KIRITILGAN MASALALAR BUNDAN MUSTASNO).**

Uning faoliyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Kompaniya Ustavi, shuningdek, Korporativ boshqaruv kodeksi bilan tartibga solinadi.

"O'zbektelekom" AK Kuzatuv kengashi samarali korporativ boshqaruv va nazoratni ta'minlab, Kompaniyani strategik boshqarishda asosiy rol o'ynaydi. Kengash rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, xalqaro boshqaruv va ichki nazorat standartlarini joriy etishga ko'maklashadi, shuningdek, Kompaniya faoliyatining eng muhim masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Uning vakolati doirasiga korporativ boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish, xatarlarni boshqarish va aksiyadorlar bilan o'zaro munosabatlar masalalari kiradi. Kengash jarayonlar shaffofligini ta'minlaydi, biznes-strategiyalar ijrosini nazorat qiladi, shuningdek, oliy rahbariyat darajasida kadrlar tayinlovini tartibga soladi. Bundan tashqari, u barqaror rivojlanish, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik sohasida korporativ siyosat shakllanishida qatnashadi, bu esa Kompaniya uzoq muddatli o'sishi va barqarorligiga xizmat qiladi.

## KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING TAYINLANISHI, OZOD ETILISHI VA VAKOLATLARI BEKOR QILINISHI

GRI 2-10

**KUZATUV KENGASHINING TARKIBI VA TUZILMASI KOMPANIYA FAOLIYATINING KORPORATIV BOSHQARUVI, SHAFFOFLIGI VA UNING USTIDAN MUSTAQIL NAZORAT TAMOYILLARINI INOBATGA OLGAN HOLDA SHAKLLANTIRILADI.**

Kengash Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish yo'li bilan shakllanadi va cheksiz qayta saylanish imkoniyati bilan uch yil muddatga saylanadigan to'qqiz nafar a'zodan iborat. Ijro organi a'zolari, Kompaniya, affillangan va shu'ba korxonalar xodimlari Kengash tarkibiga kiritilishi mumkin emas.

Korporativ boshqaruv darajasini oshirish va mustaqil nazoratni ta'minlash uchun Kompaniya aksiyalari birja varag'iga kiritilishida Kengashning kamida bitta a'zosi mustaqil maqomga ega bo'lishi lozim.

**Kengashning mustaqil a'zosi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:**

- keyingi uch yil davomida Kompaniya va uning affillangan tuzilmalari bilan mehnat yoki amaliy aloqalarning mavjud emasligi;
- Kompaniya va u bilan bog'liq tashkilot aksiyadori, ta'sischisi yoki ishtirokchisi maqomiga ega emasligi;
- Kompaniya bilan tijorat munosabatlari mavjud emasligi, jumladan tovarlar yoki xizmatlar yetkazib berish borasida yirik kontraktlar tuzilmaganligi;
- Kompaniya boshqaruvi va ichki nazorati organlari a'zolari bilan qarindoshlik aloqalari mavjud emasligi;
- Davlat boshqaruvi organlari yoki davlat korxonalarida band emasligi.

Kuzatuv kengashi a’zolarining saylanishi kumulyativ ovoz berish tizimi bo‘yicha amalga oshiriladi, bu nomzodlar o‘rtasida ovozlarning yanada adolatli taqsimlanishini ta’minlab, aksiyadorlarga Kompaniyaning strategik ustuvorliklarini inobatga olish imkonini beradi. Nomzodlarga qo‘shimcha talablar Kompaniya Ustavi yoki Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarorlari bilan belgilanishi mumkin.

“O‘zbektelekom” AK Kuzatuv kengashi faoliyatining mustaqilligi va shaffofligini ta’minlab, korporativ boshqaruvning ilg‘or standartlariga rioya etishga intiladi. Kuzatuv kengashi a’zolari Kompaniya faoliyati ustidan strategik kuzatuv va nazoratni amalga oshirish uchun barcha zaruriy vakolatga ega.

**Kuzatuv kengashi a’zolari o‘z faoliyati doirasida quyidagi huquqlarga ega:**

- yig‘ilishlarda qatnashish, takliflar kiritish va Kompaniya rivojlanishining asosiy masalalari bo‘yicha ovoz berish;
- Kompaniya faoliyati to‘g‘risidagi to‘liq, ishonchli va dolzarb axborot, jumladan moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlar, strategik tashabbuslar va biznes-rejalardan foydalana olish;
- Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq, mukofot olish hamda majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq xarajatlar uchun kompensatsiya olish.

**Kuzatuv kengashi a’zolarining majburiyatlari:**

- Kompaniyaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi manfaatlari yo‘lida vijdonan, professional darajada harakat qilish.
- qarorlar qabul qilish jarayonida shaffoflik, mustaqillik va axloq tamoyillariga rioya qilish;
- manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatlarini chetlab o‘tish, bitimlardagi o‘z manfaatdorligi haqidagi axborotni o‘z vaqtida oshkor qilish va tegishli masalalar yuzasidan ovoz berishdan tiyilish;
- Xizmat maqomidan va insayder axborotidan shaxsiy manfaatlar yo‘lida yoki Kompaniyaga zarar keltirgan holda foydalanmaslik.

## KUZATUV KENGASHI TARKIBI

### Shermatov Sherzod Xotamovich
**Kuzatuv kengashi raisi**

Kuzatuv kengashidagi tayinlanish sanasi: 01.03.2022
Tug‘ilgan yili: 1977
Fuqaroligi: O‘zbekiston

**Ma’lumoti:**

- 1998-y. — Toshkent davlat texnika universiteti
- 2000-y. — Yel universiteti

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2018–2021-yy. — O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri
- 2021-y. — O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri

### Pekos Oleg Andreyevich
**Kuzatuv kengashi a’zosi**

Kuzatuv kengashidagi tayinlanish sanasi: 01.03.2022
Tug‘ilgan yili: 1988
Fuqaroligi: O‘zbekiston

**Ma’lumoti:**

- 2011-y. — Sankt-Peterburg davlat telekommunikatsiyalar universiteti

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2020-yildan — hozirgi vaqtga qadar — O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o‘rinbosari

### Adamas Ilkyavichus
**Kuzatuv kengashi a’zosi**

Kuzatuv kengashidagi tayinlanish sanasi: 01.11.2024
Tug‘ilgan yili: 1975
Fuqaroligi: Litva

**Ma’lumoti:**

- 2000-y. — Isroil ochiq universiteti

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2021–2024-yy. — Katta ekspert-maslahatchi — islohotlar va sanoat transformatsiyasi, Jahon banki
- 2022–2024-yy. — Islohotlar va DK (SOE) transformatsiyasi bo‘yicha katta maslahatchi, Jahon banki
- 2023–2024-yy. — Katta konsultant, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi

### Haydarov Abdulaziz Abdulahadovich
**Kuzatuv kengashi a’zosi**

Kuzatuv kengashidagi tayinlanish sanasi: 01.11.2024
Tug‘ilgan yili: 1982
Fuqaroligi: O‘zbekiston

**Ma’lumoti:**

- 1994-y. — Toshkent davlat universiteti
- 1998-y. — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- 2001-y. — Yaponiya milliy siyosiy fanlar instituti

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2020–2023-yy. — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyt va moliya vazirligi huzuridagi Pensiya fondi direktori
- 2023- yildan — hozirgi vaqtga qadar — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining raisi

## Hamrayev Umid Muhammadovich
**Kuzatuv kengashi a'zosi**

**Kuzatuv kengashidagi tayinlanish sanasi:** 01.11.2024
**Tug'ilgan yili:** 1982
**Fuqaroligi:** O'zbekiston

**Ma'lumoti:**

- 2005-y. — Soliq akademiyasi (bakalavr)
- 2012-y. — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi (magistr)

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2021–2023-yy. — Moliya vazirligi, Soliq-bojxona siyosati va daromadlarni prognozlash departamenti direktorining birinchi o'rinbosari — soliq-bojxona siyosati boshqarmasining boshlig'i
- 2023-y. — Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Investitsiyaviy iqlimni takomillashtirish va reytinglar boshqarmasi, reytinglar bo'limi boshlig'i
- 2023-yildan — hozirgi vaqtga qadar — Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq-bojxona siyosati va daromadlarni prognozlash departamenti direktorining birinchi o'rinbosari — soliq-bojxona siyosati boshqarmasining boshlig'i

## Garet Devis
**Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi**

**Kuzatuv kengashidagi tayinlanish sanasi:** 01.11.2024
**Tug'ilgan yili:** 1977
**Fuqaroligi:** Buyuk Britaniya

**Ma'lumoti:**

- 1997–2000 — Elektronika va telekommunikatsiya muhandisi bakalavr darajasi
  Birmingem shahar universiteti, Buyuk Britaniya
- 2012–2016 — Strategik boshqaruv sohasida amaliy ma'murchilik magistr darajasi (MBA)
  Aston universiteti, Birmingem, Buyuk Britaniya

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2019–2021 "Keng polosali aloqa" mahsuloti direktori, TalkTalk Group, Manchester, Buyuk Britaniya
- 2021–2022 Rivojlanish bo'yicha direktor, Lightspeed Broadband, Manchester, Buyuk Britaniya



## Tobias de BONT
**Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi**

**Kuzatuv kengashidagi tayinlanish sanasi:** 01.11.2024
**Tug'ilgan yili:** 1975
**Fuqaroligi:** Niderlandiya

**Ma'lumoti:**

- 1995–2004 — Huquq va iqtisodiyot sohasida diplom
  Rotterdam Erazm universiteti, Rotterdam, Niderlandiya
- 2019–2021 — Amaliy ma'murchilik magistri darajasi
  Xalt xalqaro biznes-maktabi, London, Buyuk Britaniya

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2016 — h.v.q. — Biznes egasi, Bosh direktor, AGILARO — DBCG, Amsterdam, Niderlandiya va London, Buyuk Britaniya
- 2019–h.v.q. — Bosh direktor, Stern Telecom BV, Xufdorp, Niderlandiya
- 2022–h.v.q. — Tijorat direktori, Sky Business, London, Buyuk Britaniya
- 2024 — h.v.q. — Tijorat direktori TMI, Amsterdam, Niderlandiya

## Mehmet Ekinalan
**Kuzatuv kengashi a'zosi**

**Kuzatuv kengashidagi tayinlanish sanasi:** 01.03.2022
**Tug'ilgan yili:** 1961
**Fuqaroligi:** Turkiya

**Ma'lumoti:**

- 1984-y. — Karadeniz Texnik universiteti
- 1989-y. — Butunjahon dengiz universiteti

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2011-yildan — hozirgi vaqtga qadar — Amerikaning "Valero Energy" kompaniyasining mintaqaviy menejeri

## Ishanxodjayev Asror Aslanovich
**Kuzatuv kengashi a'zosi**

**Kuzatuv kengashidagi tayinlanish sanasi:** 03.09.2018
**Tug'ilgan yili:** 1960
**Fuqaroligi:** O'zbekiston

**Ma'lumoti:**

- 1983-y. — Toshkent aloqa elektrotexnika instituti

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2020-yildan — hozirgi vaqtga qadar — Axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashining raisi

KUZATUV KENGASHI TARKIBI

## Akixiro Sakurai

**Kuzatuv kengashi a'zosi**

**Kuzatuv kengashidagi tayinlanish sanasi:** 01.11.2024

**Tug'ilgan yili:** 1964

**Fuqaroligi:** Yaponiya

**Ma'lumoti:**

- 1986-y. — Aoyama Gakuin universiteti
- 1992-y. — Sony universiteti (MBA mini darajasi)

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2019 — 2023-yy. — Katta Vitse-prezident, KMD, Kopengagen, Daniya
- 2023 – 2024-yy. — Executive Professional, NEC Corporation, Tokio, Yaponiya
- 2024 – yildan — hozirgi vaqtga qadar — O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining maslahatchisi

## KUZATUV KENGASHI HUZURIDAGI QO'MITALAR

Boshqaruv hamda qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, audit, kompensatsiyalar, strategiya va investitsiya kabi asosiy masalalarni batafsil ko'rib chiqish maqsadida, Kompaniyada ixtisoslashtirilgan qo'mitalar tashkil etilgan. Ular boshqaruv funksiyalarini qayta taqsimlash, muhim mavzularni chuqur tahlil qilish va nazorat hamda strategik boshqaruvning yuqoriroq darajasini ta'minlash imkonini beradi.

**"O'ZBEKTELEKOM" AKNING KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMASIDA QUYIDAGI QO'MITALAR FAOLIYAT YURITADI:**

**Audit qo'mitasi**

moliyaviy hisobdorlik, ichki audit va xatarlarni boshqarish tizimi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

**Tayinlash va mukofotlash qo'mitasi**

kadrlar siyosati, rahbarlikning samaradorligini baholash va motivatsiya tizimini ishlab chiqish masalalari bilan shug'ullanadi.

**Strategiya va investitsiyalar bo'yicha qo'mita**

Kompaniyaning strategik rivojlanishini shakllantirish va investitsiya loyihalarini baholash uchun mas'ul.

**Korrupsiyaga qarshi kurash va etika qo'mitasi.**

## AUDIT QO'MITASI

Qo'mitaning asosiy maqsadlari quyidagilardir:

- Kompaniya faoliyatining barcha jihatlari bo'yicha xatarlarni boshqarish, ichki nazorat va korporativ boshqaruv tizimlarining adekvatligi va samaradorligini mustaqil, xolis baholash;
- tashqi va ichki audit mustaqilligi ustidan nazorat;
- Kompaniyada korporativ boshqaruvni Qo'mita yig'ilishlarida taqdim etilgan masalalar ko'rib chiqilishi natijalariga ko'ra takliflar ishlab chiqish yo'li bilan takomillashtirish.

Qo'mita buxgalteriya hisobdorligining to'liqligi va haqqoniyligi, hisob siyosati va asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar ustidan nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, tashqi auditorlarni tanlash va baholashda qatnashadi. Uning vakolatiga ichki va tashqi audit ustidan kuzatuv, Kompaniya faoliyatini yaxshilash bo'yicha hisobot va tavsiyalarni ko'rib chiqish kiradi. Bundan tashqari, ichki nazorat tizimini, xatarlarni boshqarishni va axborot siyosatiga rioya etilishini tahlil qilib, auditorlik jarayonlarining shaffofligi va mustaqilligini ta'minlaydi.

## TAYINLASH VA MUKOFOTLASH QO'MITASI

Qo'mitaning asosiy maqsadlari quyidagilardir:

- korporativ boshqaruv tamoyillariga muvofiq kadrlar masalalari va rahbarlarni mukofotlashni samarali boshqarishni ta'minlash;
- Kuzatuv kengashiga Kompaniya rahbarlarini saralash, baholash va motivatsiyalashning samarali tizimini shakllantirishda ko'maklashish;
- Kompaniya rahbarlarini tayinlash, kasbiy rivojlantirish va mukofotlash masalalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- mukofotlash tizimining shaffofligi va ilg'or amaliyotlarga hamda Kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlariga muvofiqligini ta'minlash.

Qo'mita rahbarlik pozitsiyalarga nomzodlarni saralash va baholash bo'yicha takliflarni tayyorlashni amalga oshiradi, shuningdek, Kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishiga yo'naltirilgan mukofotlash tamoyillarini ishlab chiqadi. Uning vakolatiga ijro organi va kadrlar bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik, nomzodlarni dastlabki baholash, ularning malakasini tekshirish, shuningdek, mavjud motivatsiya tizimining samaradorligini monitoring qilish kiradi.

Bundan tashqari, Qo'mita mukofotlash siyosatining bozor sharoitlariga va Kompaniya strategiyasiga muvofiqligini nazorat qilib, kadrlar sohasida qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligi va adolatliligini ta'minlaydi.

## STRATEGIYA VA INVESTITSIYALAR QO'MITASI

Qo'mita strategik, moliyaviy va korporativ masalalarni dastlabki ko'rib chiqish, jumladan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini nazorat qilish, faoliyat samaradorligini baholash, foydani taqsimlash, boshqa tashkilotlarda qatnashish, shuningdek, shu'ba va aloqador Kompaniyalarni boshqarish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, u yirik bitimlarni tasdiqlash, ustav kapitalini va tashkiliy tuzilmani o'zgartirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi, shuningdek, Kompaniyaning yillik hisobotiga kiritish uchun o'z faoliyati haqida hisobot tayyorlaydi.

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA ETIKA QO‘MITASI

Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi Kompaniyaning Xatti-harakatlar va axloq kodeksiga, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi siyosatiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Qo‘mitaning maqsadlari va vazifalari:

- xalqaro standartlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimini joriy etish va nazorat qilish;
- Kompaniyaning barcha xodimlari, jumladan rahbariyat tomonidan Ishbilarnonlik va axloq kodeksi va Korrupsiyaga qarshi siyosatga rioya etilishining monitoringini amalga oshirish;
- Kompaniyaning ishbilarmonlik obro‘sini oshirish va axloqiy standartlarni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish;
- Kompaniya xodimlari va rahbariyati o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish.

Qo‘mita faoliyati ishbilarmonlik etikasining yuksak darajasini ta’minlashga, korrupsiyaviy xatarlarni istisno qilishga va aksiyadorlar, hamkorlar hamda umuman jamiyatning ishonchini oshirishga qaratilgan.

## YUQORI RAHBARLIK ORGANI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimi Kuzatuv kengashi va uning a’zolari faoliyatini muntazam baholab borishni, jumladan strategik maqsadlarni amlaga oshirishdagi ularning hissalarini, axloq tamoyillariga rioya etilishi va mustaqillikni, shuningdek, Kengash faoliyatidagi ishtirokining tahlilini ko‘zda tutadi.

Korporativ boshqaruv kodeksi va Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq, 2023-yilda Kompaniya korporativ boshqaruv tizimining mustaqil baholanishi o‘tkazildi. Audit “F-PLUS AUDIT” MChJ tomonidan amalga oshirildi va korporativ boshqaruvning asosiy jihatlarining kompleks tahlilini o‘z ichiga oldi. 2023-yil oxirida “F-PLUS AUDIT” MChJ mustaqil baholash tashkiloti tomonidan baholash o‘tkazdi, uning natijalariga ko‘ra, 672 ball (56 %) berildi.

2024-yilda ushbu tashkilot tomonidan takroran baholash ishlari o‘tkazdi va uning davomida 700 ball (58%) to‘plandi. Bu natija “Yuqori” daraja sifatida ham tasniflandi.

Audit doirasida boshqaruv jarayonlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ham berildi.

Baholash uslubiyoti belgilangan shkalaga asoslandi:

- Yuqori samaradorlik — 600 ball va undan yuqori;
- Qoniqarli samaradorlik — 0 dan 600 ballgacha;
- Past samaradorlik — -600 dan 0 ballgacha;
- Qoniqarsiz samaradorlik — -600 balldan past.

Mustaqil baholash natijalari “O‘zbektelekom” AKning shaffoflik, hisobdorlik va barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish tarafdoriligini tasdiqlaydi, shuningdek, korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiq yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

## BOSHQARUV

### Ijro organi

**KOMPANIYANING JORIY FAOLIYATINI BOSHQARISH KOLLEGIAL IJRO ORGANI — BOSHQARUV RAISI RAHBARLIGIDA ISH YURITUVCHI BOSHQARUV TOMONIDAN AMALGA OSHIRILADI. BOSHQARUV OPERATSION BOSHQARISH, OLDINGA QO‘YILGAN MAQSADLAR BAJARILISHI USTIDAN NAZORAT VA KOMPANIYANING ASOSIY TASHABBUSLARINI AMALGA OSHIRISH UCHUN MAS’ULDIR.**

Boshqaruv Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga, davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlariga, Kompaniya Ustaviga, shuningdek, tartibga soluvchi ichki hujjatlarga asoslangan holda faoliyat yuritadi.

**Boshqaruv tarkibiga quyidagilar kiradi:**

- boshqaruv raisi;
- boshqaruv raisining transformatsiya, texnik ekspluatatsiya va mahalliylashtirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari;
- boshqaruv raisining moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari;
- boshqaruv raisining tijorat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari;
- boshqaruv raisining davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha o‘rinbosari;
- boshqaruv raisining axborot xavfsizligi va rejim masalalari bo‘yicha o‘rinbosari;
- asosiy tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari.

Boshqaruv a’zolari uch yilga saylanadi va belgilangan tartib-taomillarga muvofiq tasdiqlanadi.

**Boshqaruvning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:**

- davlat siyosati va tarmoq dasturlarining ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda Kompaniya barqaror rivojlanishini ta’minlash;
- o‘rta muddatli va uzoq muddatli modernizatsiya, raqamlashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish dasturlari, jumladan biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ilg‘or texnologik yechimlarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish;
- jihozlar va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturlarini joriy etish, shuningdek, xomashyo va materiallar xaridini optimallashtirish;
- investitsiyalar va moliyalashtirishni jalb qilish, investitsiya loyihalari va dasturlarini amalga oshirish ustidan nazorat;
- xatarlarni, shu jumladan obro‘ga oid xatarlar va normativ talablarga rioya etish bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish;
- ichki biznes-jarayonlarning samaradorligi va Kompaniyaning strategik qarorlari ijrosi ustidan nazorat.

Bundan tashqari, boshqaruv faoliyati Kompaniya faoliyati doirasida shaffoflik, korporativ boshqaruv va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga rioya etilishiga qaratilgan.

## BOSHQARUV TARKIBI

### Hasanov Nazirjon Nabijanovich

**Boshqaruv raisi**

**Boshqaruv tarkibidagi tayinlanish sanasi:** 03.03.2023

**Tug‘ilgan yili:** 1970

**Fuqaroligi:** O‘zbekiston

**Ma’lumoti:**

- 2002-y. — Toshkent elektrotexnika instituti
- 2012-y. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi huzuridagi Oliy biznes maktabi

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2018–2023-yy. — “O‘zbektelekom” AK Bosh direktori.
- 2023-yildan — hozir vaqtga qadar — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisi.

### Aripov Jahongir Abduhakimovich

**Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari**

**Boshqaruv tarkibidagi tayinlanish sanasi:** 03.03.2023

**Tug‘ilgan yili:** 1982

**Fuqaroligi:** O‘zbekiston

**Ma’lumoti:**

- 2003-y. — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- 2005-y. — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- 2014-y. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi huzuridagi Oliy biznes maktabi, biznes va boshqaruv (MVA)

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2019–2023-yy. — “O‘zbektelekom” AK bosh direktorining birinchi o‘rinbosari
- 2023- yildan — hozir vaqtga qadar — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari

### Toxtiyarov Akram Nurmaxamatovich

**Boshqaruv raisining moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari**

**Boshqaruv tarkibidagi tayinlanish sanasi:** 03.03.2023

**Tug‘ilgan yili:** 1982

**Fuqaroligi:** O‘zbekiston

**Ma’lumoti:**

- 2004-y. — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- 2006-y. — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2020–2023-yy. — “O‘zbektelekom” AK bosh direktorining moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari
- 2023-yildan — hozir vaqtga qadar — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisining moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari

### Islamov Javlon Rasulovich

**Boshqaruv raisining tijorat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari**

**Boshqaruv tarkibidagi tayinlanish sanasi:** 02.12.2024

**Tug‘ilgan yili:** 1984

**Fuqaroligi:** O‘zbekiston

**Ma’lumoti:**

- 2004-y. –Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- 2015-y. — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, menejment ixtisosligi bo‘yicha magistr darajasi

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2018–2024-yy. — “O‘zbektelekom” AK “O‘zMobayl” filiali direktorining o‘rinbosari
- 2024-y. — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisining tijorat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari

### Berdiklichev Mardon Jahongirovich

**Boshqaruv raisining davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha o‘rinbosari**

**Boshqaruv tarkibidagi tayinlanish sanasi:** 03.03.2023

**Tug‘ilgan yili:** 1983

**Fuqaroligi:** O‘zbekiston

**Ma’lumoti:**

- 2005-y. — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- 2019-y. — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

**Oxirgi besh yilda ishlagan joyi va tashkilotlardagi egallagan lavozimi:**

- 2019–2020-yy. — “O‘zbektelekom” AK davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi
- 2020–2023-yy. — “O‘zbektelekom” AK bosh direktorining davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha o‘rinbosari
- 2023-yildan — hozir vaqtga qadar — “O‘zbektelekom” AK boshqaruv raisining davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar bo‘yicha o‘rinbosari

# MUKOFOTLASH TIZIMI

GRI 2-19, 2-20, 2-21

**"O'ZBEKTELEKOM" AKDA AMAL QILAYOTGAN MUKOFOTLASH TIZIMI KORPORATIV BOSHQARUVNING MALAKALI MUTAXASSISLARNI JALB QILIB, ULARNI USHLAB QOLISHNI TA'MINLOVCHI ASOSIY ELEMENTLARIDAN BIRIDIR. UNI AMALGA OSHIRISHDA MEXANIZMLAR SHAFFOFLIGIGA VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIKKA ALOHIDA E'TIBOR BERILADI.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari, shuningdek, yuqori turuvchi organlarning topshiriqlari ijrosi doirasida, KPI ko'rsatkichlari aniqlandi:

1. Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-martdagi "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-49-son Farmoni asosida.
2. Direktorlar va direktor o'rinbosarlari, bosh buxgalterlar, bog'lamalar boshliqlari va hududiy menejerlar, shuningdek, bosh yoki yetakchi muhandislar, Kompaniya tarkibidagi filiallarning Budjetni rejalashtirish xizmatlari/bo'limlari boshliqlari uchun Kompaniyaning maqsadli strategiyasiga muvofiq, masalan, daromad, rivojlanish, aloqa sifati (Kompaniyaning 2025-yil 7-yanvardagi 6-son buyrug'i).
3. Departamentlar direktorlari, boshqarmalar, ijroiya apparatining xizmat va bo'lim boshliqlari uchun Kompaniyaning maqsadli strategiyasiga muvofiq, masalan, daromad, rivojlanish, aloqa sifati (Kompaniyaning 2025-yil 7-yanvardagi 6-son buyrug'i).
4. Hududiy filiallar va Markaziy filialning Telekommunikatsiya tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish va rivojlantirish bo'limlari, Liniya-kabel xo'jaligi va Joriy ta'mir va avariya-tiklash ishlari brigadalari xodimlari (liniyalarga xizmat ko'rsatuvchi elektr montajchilar) uchun — sotuvlarda qatnashganlik uchun bonuslar (Kompaniyaning 2025-yil 29-yanvardagi 49-son buyrug'i).
5. "O'zMobayl" filialidan hududiy filiallarga va Markaziy filialga o'tgan, B2B va B2C yo'nalishlarida ishlovchi tijorat personali xodimlari uchun (Kompaniyaning 2025-yil 10-fevraldagi 65-son buyrug'i).
6. Sharqiy va G'arbiy filiallarning direktorlari va direktor o'rinbosarlari, bosh buxgalterlari, hududiy menejerlari, shuningdek, bosh muhandislari, budjetni rejalashtirish xizmatlari/bo'limlarining boshliqlari uchun (Kompaniyaning 2025-yil 27-martdagi 137-son buyrug'i).

## Kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash

"O'zbektelekom" AK Kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash Kuzatuv kengashi to'g'risidagi ichki Nizom bilan tartibga solinadi va ularning Kompaniyaning strategik boshqaruviga jalb qilinganligini, javobgarligini va unda samarali qatnashishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Mukofotlash tizimi bir nechta elementlarni o'z ichiga oladi va shaffoflik, xolislik va korporativ maqsadlarga muvofiqlik tamoyillariga asoslangan. Asosiy komponent bo'lib, yig'ilishlarda qatnashganlik va o'z majburiyatlarini vijdonan bajarganlik uchun to'lanadigan qat'iy mukofot hisoblanadi. Qat'iy mukofot miqdori O'zbekiston Respublikasida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori (MHTEKM)dan kelib chiqib hisoblanadi va to'lov sanasiga 80 ta MHTEKMni tashkil qiladi.

Yillik mustaqil baholashda korporativ boshqaruv va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari qoniqarli yoki yuqori deb e'tirof etilsa, Kuzatuv kengashi a'zolari qo'shimcha ravishda mukofot oladilar. Uning miqdori ichki reglament qoidalariga muvofiq aniqlanadi va erishilgan boshqaruv samaradorligidan kelib chiqib tasdiqlanadi.

## Boshqaruv a'zolarini mukofotlash

"O'zbektelekom" AK boshqaruvi a'zolarini mukofotlash tizimi korporativ boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlarini inobatga olgan holda qurilgan va Kompaniyaning strategik maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan. Mukofotlash qat'iy qismni, o'zgaruvchan to'lovlarni, shuningdek, ijtimoiy kompensatsiyalar va imtiyozlarni o'z ichiga oladi.

Asosiy element bo'lib, qat'iy mukofot hisoblanadi, u boshqaruvning har bir a'zosining malakasi, boshqaruv tajribasi va javobgarlik darajasini inobatga olgan holda belgilanadi. To'lov har oy amalga oshiriladi va yalpi daromadning barqaror tarkibiy qismi sanaladi.

O'zgaruvchan qism Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ga erishish natijalariga ko'ra hisoblanadigan mukofot to'lovlaridan iborat. Mukofotlar moliyaviy va operatsion vazifalar bajarilishi, shuningdek, strategik tashabbuslar bo'yicha ilgarilash inobatga olingan holda shakllantiriladi.

Qo'shimcha ravishda kompensatsiya va imtiyozlar, jumladan tibbiy xizmatga xarajatlarning qoplanishi, kasbiy takomillashuv, xizmat transporti va xizmat safarlari ko'zda tutilgan.

Mukofotni belgilash va qayta ko'rib chiqish taomili qat'iy tartibga solingan va faoliyat samaradorligini baholash natijalariga asoslanadi, bu qabul qilinadigan qarorlarning shaffofligi va asosli bo'lishini ta'minlaydi.

## Mukofotlash tizimida shaffoflik va hisobdorlik

"O'zbektelekom" AK mukofotlash tizimini boshqarishda shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga rioya qiladi. To'lovlar shartlari va miqdorlariga oid barcha o'zgarishlar, jumladan milliy qonunchilik va xalqaro korporativ boshqaruv standartlari talablariga muvofiq oshkor etiladigan ma'lumotlar tegishlicha hujjatlashtiriladi va Kompaniyaning yillik hisobotida aks ettiriladi.

Mukofotlash tizimi asosiy boshqaruv shaxslarining barqaror va uzoq muddatli natijalarga erishishga jalb qilinganligini va bunga mas'ulligini mustahkamlashga qaratilgan.

# BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARINI BOSHQARISH TIZIMI VA 2024-YIL NATIJALARI

GRI 2-13, 2-14, 2-24, 2-25

**2024-YILDA "O'ZBEKTELEKOM" AK ASOSIY BIZNES-JARAYONLARGA BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARINI INTEGRATSIYALASHGA QARATILGAN TO'LIQ FUNKSIYALI EKOLOGIK VA IJTIMOIY MENEJMENT TIZIMI (EIMT) SHAKLLANISHINI YAKUNLADI. EIMT ISHLAB CHIQILISHI VA TATBIQ ETILISHI ESG YONDASHUVLARI INSTITUTSIONALLASHUVI VA BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDAGI KORPORATIV BOSHQARUVNING YETUKLIGINI OSHIRISHNING MUHIM BOSQICHI BO'LDI.**

EIMT doirasida tegishli sohalarda korporativ majburiyatlarni va boshqaruv yondashuvlarini tartibga soluvchi to'rtta asos soluvchi hujjat tasdiqlandi:

- Barqaror rivojlanish sohasidagi siyosat;
- Inson huquqlari sohasidagi siyosat;
- Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar reglamenti;
- Ijtimoiy moliyalashtirish siyosati.

Bu hujjatlarning har biri O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xalqaro standartlar (jumladan GRI, UNGC, SDGs), shuningdek, korporativ ichki reglamentlarning talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Yalpi olganda, hujjatlar Kompaniyaning jamiyat, atrof-muhit va iqtisodiyotga ta'sirini tizimli boshqarishning yagona normativ asosini shakllantiradi.

Tasdiqlangan hujjatlar quyidagilarni belgilaydi:

- Kompaniyaning barqaror rivojlanish sohasidagi strategik ustuvorliklari va tamoyillari;
- inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari va amaliy axloq me'yorlariga rioya etish;
- jalb qilinganlik va manfaatdor tomonlarning kutilmalarini boshqarishga yondashuvlar;
- ijtimoiy mas'uliyatli moliyalashni jalb qilish chegaralari.

## EIMT konsepsiyasi

EIMT ESG-kun tartibi va xalqaro standartlarning asosiy jihatlarini qamrab oluvchi sakkizta universal tamoyilga tayanadi:

01 Inson huquqlariga rioya qilish;
02 Aholining zaif guruhlari manfaatlarini himoya qilish;
03 Gender tenglik va xotin-qizlar holatini yaxshilash;
04 Erkin, oldindan berilgan va ongli rozilik;
05 Ehtiyotkorlik tamoyili;
06 Hisobdorlik va shikoyatlar taqdim etish mexanizmlarining ommabopligi;
07 Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar;
08 Telekom-sektor xususiyatlariga moslashtirilgan eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni qo'llash.

### EIBTNING TO'RT STANDARTI

- **Barqaror rivojlanish sohasidagi siyosat**
- **Inson huquqlari sohasidagi siyosat**
- **Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqalar tartibi**
- **Ijtimoiy moliyalashtirish siyosati**

**Ekologik va ijtimoiy xavflar**

EIMT, shu jumladan tarkibiy bo'linmalarning va asosiy ijrochilarning hisobdorligi amaldagi korporativ boshqaruv tizimiga kiritilgan. ESG-kun tartibi amalga oshirilishi ustidan funksional boshqaruvni boshqa profilli departamentlar bilan taqsimlangan javobgarlik tamoyili bo'yicha o'zaro hamkorlik qiluvchi Transformatsiya va strategik rivojlantirish departamenti amalga oshiradi. Umumiy muvofiqlashtirish ishlari tarkibiga yuqori rahbariyat vakillari kiruvchi Risklarni boshqarish qo'mitasi ishtirokida amalga oshiriladi.

2024-yilda EIMT joriy etilishi orqali Kompaniya ESG-kun tartibining korporativ boshqaruv darajasida institutsional mahkamlanishini ta'minladi. Bu qaror nomoliyaviy hisobotlar shaffofligini oshirish, ESG-vazifalarni amalga oshirish bo'yicha tarkibiy bo'linmalarning javobgarligini kuchaytirish va barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilgarilashning doimiy monitoringi uchun asos yaratish imkonini berdi.

# ICHKI NAZORAT VA AUDIT TIZIMI

GRI 2-12, 2-14, 2-15

## ICHKI AUDIT

Ichki audit xizmati (keyingi o'rinlarda — Xizmat) korporativ boshqaruvning shaffofligi, ishonchliligi va samaradorligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Ichki auditning asosiy maqsadi — Kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini mustaqil baholash, xatarlarni aniqlash va kamaytirish, shuningdek, ichki nazorat tizimini takomillashtirishdir.

O'z faoliyati doirasida Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashiga Kompaniyaning joriy holati to'g'risida xolis axborot taqdim etadi, biznes-jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi va Kompaniyaning xalqaro standartlarga hamda korporativ boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlariga muvofiqligini ta'minlashga ko'maklashadi.

**Xizmatning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

**Baholash va nazorat:**

- tasdiqlangan rejaga muvofiq ichki auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish;
- moliyaviy-xo'jalik amaliyotlarining Kompaniya manfaatlariga muvofiqligi ustidan nazorat;
- moliyaviy holat, yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan amaliyotlar tahlili;
- moliyaviy xatarlar darajasining maqsadga muvofiqligini tekshirish.

**Korporativ boshqaruvni qo'llab-quvvatlash:**

- buxgalteriya hisobi, soliqlar va moliyaviy tartibga solish masalalari bo'yicha konsultatsiyalar;
- ichki nazorat va ichki audit tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- Kuzatuv kengashi va tashqi auditorlar bilan o'zaro hamkorlik.

**Hisobotlarni tahlil qilish va tasdiqlash:**

- buxgalteriya ma'lumotlari haqqoniyligini tekshirish;
- xodimlar va uchinchi shaxslar harakatlari oqibatida kompaniyaga yetkazilgan ziyonni baholash;
- jamiyatga oshkor qilinadigan moliyaviy hisobotning to'g'riligini tasdiqlash.

Xizmat xodimlari auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish, moliyaviy faoliyat, buxgalteriya hisobi yoki soliq nazorati sohasida kamida ikki yillik tajribaga ega bo'lishlari, shuningdek, ichki auditor sertifikati yoki shu sohada oliy ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Har yili Xizmat xodimlari Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan o'tkaziladigan attestatsiyadan o'tadilar.

Xizmat xodimlari soni Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi va kamida ikki nafar attestatsiyalangan auditorni o'z ichiga olishi lozim. Tegishli malakaga ega Xizmat rahbari har yili bo'linma budjetini shakllantiradi va tasdiqlashga taqdim etadi.

Xizmat xodimlari har yili attestatsiyadan o'tadilar, ularning kasbiy darajasi esa, muntazam ravishda malaka oshirish hisobiga qo'llab-quvvatlanadi. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelmasligi uchun ular o'z faoliyatlarini Kompaniyadagi rahbarlik lavozimlari, Kuzatuv kengashda a'zolik bilan birga olib borishlari, shuningdek, raqobatchi tashkilotlar boshqaruvida qatnashishlari mumkin emas.

Kuzatuv kengashi huzuridagi Ichki audit xizmatidan tashqari, Kompaniyada Sifat menejementi va standartlashtirish xizmati ish yuritadi.

Xizmatning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kompaniyaning strategik maqsadlarini va xatarlar baholanishini inobatga olgan holda har yilgi audit dasturlarini ishlab chiqish va boshqarish;
- nomuvofiqliklarni aniqlash va biznes-jarayonlar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini belgilash uchun mustaqil auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish;
- SMT asosiy jarayonlarini belgilangan talablarga muvofiqligi jihatidan baholash, xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish;
- normativ talablar va ichki taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat, hujjatlar va ichki reglamentlar dolzarbligini ta'minlash;
- audit natijasi to'g'risida hisobotlarni tayyorlash, jumladan aniqlangan nomuvofiqliklar tahlili, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar va to'g'rilovchi harakatlar monitoringi;
- tavsiyalar joriy etilishini ta'minlash va jarayonlarni yaxshilash uchun Kompaniya rahbariyati va tarkibiy bo'linmalar bilan o'zaro hamkorlik;
- xalqaro audit standartlariga muvofiq auditorlik tekshiruvlarining mustaqilligi, xolisligi va maxfiyligini ta'minlash;
- auditorlik faoliyati samaradorligini va xulosalarining haqqoniyligini oshirish uchun xatarlar tahlili va amaliy ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlarni qo'llash.

Sifat menejmenti va standartlashtirish xizmati auditlari har yili, jarayonlarning murakkabligini, avvalda aniqlangan nomuvofiqliklar va Kompaniyaning strategik maqsadlari hisobga olingan holda tasdiqlangan dasturga muvofiq o'tkaziladi. Bu salohiytali xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, biznes-jarayonlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

## TASHQI AUDIT

"O'zbektelekom" AK moliyaviy hisobotning shaffofligi, haqqoniyligini ta'minlash va qonunchilik talablariga rioya etish maqsadlarida muntazam ravishda tashqi audit o'tkazadi.

2024-yil uchun auditorlik tekshiruvi 2024-yil uchun Barqaror rivojlanish hisoboti tayyorlanishi paytida FE Audit Company "Ernst & Young" LLC bilan hamkorlikda o'tkazilgan. Tashqi audit har yili amalga oshiriladi va moliyaviy hisobotni, operatsion jarayonlarni va hisobot davridagi korporativ boshqaruvning asosiy jihatlarini qamrab oladi.

Mustaqil auditorlik kompaniyasini tanlash tanlov asosida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi, bu baholashning xolisligi va adolatliligini kafolatlaydi. Auditorlik tekshiruvlarining natijalari Kompaniyaning boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va aksiyadorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar ishonchini oshirish uchun qo'llaniladi.

# BIZNES-ETIKA VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

GRI 2-23, 2-24, 2-27

## KORPORATIV ETIKANING ASOSIY JIHATLARI:

### Shaffoflik va ochiqlik

Kompaniya biznesni vijdonan va ochiq yuritishga intilib, muntazam ravishda o‘z faoliyati va moliyaviy natijalari haqidagi axborotni oshkor qiladi.

### Korrupsiyaga qarshi siyosat

O‘z siyosati doirasida Kompaniya korrupsiyaviy xatarlarni minimallashtirishga, biznes-jarayonlarning shaffofligini oshirish va ishlarni vijdonan yuritish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tatbiq etadi.

### Ijtimoiy mas’uliyat

Kompaniya jamiyat manfaatlarini hisobga olib, ekologik va ijtimoiy yo‘naltirilgan tashabbuslarni joriy etadi, shuningdek, o‘zi faoliyat yuritadigan hududning barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

### Axloqiy korporativ boshqaruv

Korporativ boshqaruv, jumladan aksiyadorlar va hamkorlar huquqlarini himoya qilish, ishlarni vijdonan yuritish va samarali nazorat tizimi tamoyillariga rioya etish.

### Xodimlar bilan vijdonli va adolatli munosabatlar

Xodimlar huquqlariga rioya qilish, kasbiy o‘sish uchun sharoitlar va xavfsiz mehnat muhitini yaratish.

**KOMPANIYA AMALIY AXLOQ STANDARTLARINI MUNTAZAM TAKOMILLASHTIRISHGA INTILADI VA ENG YAXSHI XALQARO AMALIYOTLARGA RIOYA ETIB, O‘Z SIYOSATINI BOZOR VA JAMIYATNING O‘ZGARIB BORUVCHI TALABLARIGA MOSLASHTIRADI.**

“O‘zbektelekom” AK korrupsiyaga qarshi faoliyatni boshqarishga kompleks yondashuvni amalga oshiradi, u faoliyatning barcha sohalarida korrupsiya xatarlarining oldini olish, aniqlash va minimallashtirishga qaratilgandir. Ushbu yondashuv O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga, xalqaro standartlarga va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi eng yaxshi amaliyotlar, jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari” standartiga rioya etishda asoslangan.

“O‘zbektelekom” AKning korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha faoliyati quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

- O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni;
- BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003-yil 31-oktabr);
- ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari” xalqaro standarti;
- “O‘zbektelekom” AKning Korrupsiyaga qarshi siyosati.
- “O‘zbektelekom” AK “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom;
- “O‘zbektelekom” AKning boshqa ichki reglamentlari va tartib-taomillari.

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATNING ASOSIY TAMOYILLARI:

### Mutlaqo toqatsizlik

Kompaniya korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz pozitsiyani egallaydi.

### Shaffoflik va hisobdorlik

Kompaniyaning barcha biznes-jarayonlari oshkoralik va axborotning manfaatdor tomonlarga ochiqligi tamoyillari hisobga olingan holda quriladi.

### Xatarga yo‘naltirilgan yondashuv

korrupsiya xatarlarining muntazam baholanishi salohiyatli tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

### Preventiv choralar

korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarni joriy etish, xodimlarni o‘qitish va amaliy axloq standartlariga rioya etish ustidan nazorat.

### Davlat organlari va jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlik

Kompaniya shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi tashabbuslarda faol qatnashadi.

“O‘zbektelekom” AKning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta’minlovchi Komplaens departamenti tomonidan muvofiqlashtiriladi. **Bo‘linmaning asosiy funksiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:**

- ISO 37001:2016 standarti va qonunchilikka muvofiq ichki reglamentlarni ishlab chiqish va dolzarblashtirish;
- amaliy operatsiyalar ustidan korrupsiyaga qarshi standartlarga muvofiqlik yuzasidan ichki nazorat va monitoring o‘tkazish;
- ishbilarmonlik etikasi tamoyillari borasida xodimlarni o‘qitish va ularning xabardorligini oshirish dasturlarini tashkil etish;
- ehtimoliy qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarni ko‘rib chiqish va ichki tekshiruvni o‘tkazish;
- korrupsiya xatarlarini minimallashtirish va korporativ jarayonlarning shaffofligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

## KORRUPSIYAGA QARSHI NAZORAT MEXANIZMLARI

Korrupsiya holatlarini samarali aniqlash va oldini olish uchun Kompaniyada ichki va tashqi nazorat mexanizmlari tizimi amal qiladi:

**Qoidabuzarlik haqida xabar berish uchun aloqa kanali**

ehtimoliy korrupsiya holatlari to'g'risida xodimlar va tashqari hamkorlar murojaati uchun maxsus liniya mavjud. Jumladan, murojaat anonim bo'lishi mumkin.

**Ichki audit**

korrupsiyaga qarshi siyosatga rioya etish yuzasidan Kompaniyaning tarkibiy bo'linmalarida muntazam tekshiruvlar o'tkazish.

**Tashqi audit**

mustaqil sertifikatlashtirish organlari korporativ taomillarning ISO 37001:2016 standarti va milliy qonunchilik talablariga muvofiqligini tekshiradilar.

**Axloq va korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitasi**

hodisalarni ko'rib chiqish va axloqiy standartlarga rioya etish masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Ishga qabul qilishda barcha yangi xodimlar korrupsiyaga qarshi me'yorlarga rioya etish borasida tekshiruv jarayonidan o'tadilar. Kompaniyaning barcha tarkibiy bo'linmalari korrupsiyaga qarshi talablarga rioya etishlari lozim, rahbariyat esa ularning tatbiq etilishiga va samaradorligiga javobgardir.

"O'zbektelekom" AK qonunchilik va xalqaro standartlardagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda, muntazam ravishda Korrupsiyaga qarshi siyosatni tahlil qilish va takomillashtirishni amalga oshiradi. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash korrupsiya xatarlarini minimallashtirish va korporativ mas'uliyat darajasini oshirish uchun ichki jarayonlarni o'z vaqtida moslashtirish imkonini beradi.

**KORRUPSIYA BILAN BOG'LIQ XATARLARNI BAHOLASH O'TKAZILGAN TARKIBIY BO'LINMALAR / BIZNES-JARAYONLARNING UMUMIY SONI VA FOIZI, SONI VA %**

GRI 205-1

| Ko'rsatkich | 2022 | | 2023 | | 2024 | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Kattalik | soni | % | soni | % | soni | % |
| Korrupsiya bilan bog'liq xatarlarni baholash o'tkazilgan tarkibiy bo'linmalar / biznes-jarayonlar | 19 | 100 | 31 | 100 | 33 | 100 |

## BO'LINMALARDA VA BIZNES-JARAYONLARDA KORRUPSIYA XATARLARINI BAHOLASH

"O'zbektelekom" AKda xatarlarni boshqarish tizimi doirasida bo'linmalar va asosiy biznes-jarayonlarda korrupsiya xatarlarining muntazam baholanishi o'tkaziladi. Bu ish salohiyatli tahdidlarni aniqlashga, oldini oluvchi choralarni tatbiq etishga va Kompaniya faoliyati shaffofligini oshirishga yo'naltirilgan.

2023-yilda Kompaniyaning 31 ta bo'linmasida 41 ta biznes-jarayon tahlil qilindi.
Baholash yakunlariga muvofiq:

- 5 ta jarayon xatarning yuqori darajasiga kiritilgan;
- 21 ta jarayon o'rta xatar darajasiga ega bo'lgan;
- 15 ta jarayon — past xatar darajasida.

Korrupsiyaga qarshi tegishli choralar amalga oshirilgandan so'ng:

- 0 ta jarayon yuqori xatar darajasi toifasida qoldi;
- 5 ta jarayon o'rta darajaga o'tkazildi;
- 36 ta jarayon xatari past deya tasniflandi.

2024-yilda Kompaniyaning 26 ta bo'linmasida 33 ta biznes-jarayon korrupsiya xatari bo'yicha baholandi. Baholash natijalariga muvofiq:

- 11 ta jarayon xatarning yuqori darajasiga kiritilgan;
- 19 ta jarayon o'rta xatar darajasiga ega bo'lgan;
- 3 ta jarayon — past xatar darajasida.

Korrupsiyaga qarshi tegishli choralar amalga oshirilgandan so'ng:

- 3 ta jarayon yuqori xatar darajasi toifasida qoldi;
- 9 ta jarayon o'rta darajaga o'tkazildi;
- 21 ta jarayon xatari past deya tasniflandi.

## KORRUPSIYAGA QARSHI SIYOSAT VA TARTIB-TAOMILLAR MASALALARI BORASIDA XABARDOR QILISH VA O'QITISH

GRI 205-2

"O'zbektelekom" AK xodimlarning Korrupsiyaga qarshi siyosat tamoyillari to'g'risidagi xabardorligini oshirishga va biznesni axloqiy yuritish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan o'quv dasturlarini joriy etishga alohida e'tibor beradi. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida 2024-yilda turli xodimlar toifalari uchun axborot va o'quv tadbirlari o'tkazildi.

Hisobot davrida 100 % ma'muriy-boshqaruv personali, ishlab chiqarish personali xodimlari va boshqaruv a'zolari Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi siyosati va ichki tartib-taomillari bilan tanishdilar.

Jumladan:

- 725 nafar ma'muriy-boshqaruv personali xodimlari;
- 16 095 nafar ishlab chiqarish personali xodimlari;
- 5 nafar ijro organi xodimlari.

Korporativ ta'lim tashabbuslari doirasida 2024-yilda 979 nafar xodim korrupsiyaga qarshi maxsus kurslarda o'qitildi, jumladan:

- 975 nafar xodim — O'zbekiston Respublikasida;
- 4 nafar xodim — mamlakat tashqarisida.

O'quv dasturlari Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi siyosatining asosiy qoidalarini, qonunchilik normalari, korrupsiya xatarlarini aniqlashtirish va oldini olish mexanizmlari, shuningdek, hamkorlar va davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlarda axloqiy xatti-harakat qoidalarini o'z ichiga oldi.

"O'zbektelkom" AK korrupsiyaga qarshi ta'lim tizimini takomillashtirishni davom ettiradi va kelgusida treninglar va testlashning yangi interaktiv formatlarini tatbiq etib, korrupsiyaga qarshi ta'lim tizimini takomillashtirishni davom ettiradi.

2024-yilda korporativ monitoring va ichki nazorat tizimi doirasida "O'zbektelekom" AKda korrupsiyaning tasdiqlangan holatlari aniqlanmadi. Hisobot davrida korrupsiyaviy qoidabuzarlik uchun xodimning ishdan bo'shatilishi yoki ularga nisbatan intizomiy chora ko'rilishi faktlari qayd etilmaydi. Shuningdek, korrupsiya bilan bog'liq sabablarga ko'ra amaliy hamkorlar bilan shartnoma bekor qilinishi yoki uzaytirilishidan voz kechilishi holatlari bo'lmadi. Yil davomida Kompaniya yoki uning xodimlariga nisbatan korrupsiya bilan bog'liq birorta ommaviy sud muhokamalari ro'yxatga olinmadi. Bunday vaziyat oldingi ikkita hisobot davrida ham saqlanib qolgan edi.

**GRI 205-3**

Bundan tashqari, 2024-yilda qonunchilik va normativ talablar buzilishi holatlari qayd etilmadi. Kompaniya nomiga jarima sanksiyalari yoki boshqa turdagi — na moliyaviy, na ma'muriy xarakterdagi –javobgarlik choralari hisobot davrida ham, undan oldingi ikki yilda ham qo'llanilmadi.

**TC-TL-520A.1**

2024-yil yakunlariga ko'ra, raqobatga qarshi xatti-harakatni tartibga solish bilan bog'liq sud muhokamalari o'tkazilmadi.

**100%**
**xodimlar**
**2024 yilda kompaniy antikorrupsiya siyosati bilan tanishtirildi**

**979**
**ta xodim**
**2024 yilda maxsus antikorrupsiya ta'limidan o'tdi**

**0**
**holatlar**
**tasdiqlangan korrupsiya holatlari**

## KORRUPSIYAGA QARSHI FAOLIYATNING REYTING BAHOLANISHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qaroriga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) har yili tashkilotlarning reyting baholanishini o'tkazadi. Monitoring "E-Anticor.uz" elektron platformasidan foydalangan holda amalga oshiriladi, bu esa korrupsiyaga qarshi faoliyatning xolisligi va shaffofligini ta'minlaydi.

"O'zbektelekom" AK bu reytingda faol qatnashib, shaffoflik va korporativ axloqning yuqori standartlariga rioya qilishini tasdiqlaydi. So'nggi hisobot davri yakunlari bo'yicha Kompaniya 100 balldan **82 ball** to'pladi, bu esa korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarning natijaviyligidan dalolat beradi.

**Ushbu natija quyidagilarni aks ettiradi:**

- Qonunchilikka muvofiqlik. Tatbiq etilgan choralar korrupsiyaga qarshi siyosat sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro me'yorlar talablariga to'liq javob beradi.
- Korrupsiyaga qarshi boshqaruvga tizimli yondashuv. Kompaniyada xalqaro ISO 37001:2016 standarti talablariga muvofiq keluvchi korrupsiyaning oldini olishning samarali mexanizmlari tatbiq etilgan.
- Shaffoflikning yuqori darajasi. Biznes-jarayonlarning ochiqligi va qat'iy nazorat Kompaniyaning barcha bo'linmalarining hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi.
- Jamiyat va hamkorlar ishonchining ortishi. Ushbu reyting "O'zbektelekom" AK ishonchli va mas'uliyatli korxona sifatida o'z obro'sini mustahkamlab, vijdoniylik va axloq tamoyillariga rioya etishini tasdiqlaydi.

Kompaniya korrupsiya xatarlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ilg'or amaliyotlarni joriy etish va korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikka va yuksak axloqiy standartlarga amal qilishga asoslangan korporativ madaniyatni shakllantirishni davom ettiradi.

"O'zbektelekom" AK shaffoflik va milliy qonunchilik siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga qarshi xalqaro komplaens standartlarini bosqichma-bosqich amalga oshiradi. Ichki nazorat va ichki komplaensning samarali tizimi korrupsiya xatarlarining oldini olish, yuksak huquqiy madaniyatni ta'minlash va vijdoniy biznes yuritish tamoyillari tarafdori ekanligini tasdiqlash imkonini beradi.

## TEZKOR ALOQA LINIYASI

**GRI 2-16**

Kompaniya shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor berib, korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini tatbiq etadi. Bunday vositalar sirasida Tezkor aloqa liniyasi mavjud, u xodimlar, hamkorlar va mijozlarga korrupsiya va noqonuniy xatti-harakatlar faktlari haqida xabar berish imkonini yaratadi.

Murojaatlar taqdim etish uchun aloqa kanallari:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi (https://pm.gov.uz);
- Kompaniyaning rasmiy veb-sayti va elektron pochta: antikorrupsiya@uztelecom.uz;
- Kompaniyaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy akkaunti va Telegram-boti;
- Maxsus ishonch telefoni: +998 55 501 77 87;
- Kompaniyaning tegishli organlariga shaxsan yoki yozma murojaat.

Murojaatlar anonim tarzda yoki kontakt ma'lumotlarini ko'rsatgan holda taqdim etilishi mumkin. Barcha axborot maxfiy ko'rib chiqiladi. Faktlar tasdiqlangan holatda materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etishgacha tegishli choralar ko'riladi.

Kompaniyaning mas'ul bo'linmalari kelib tushgan xabarlarni tahlil qiladi, ro'yxatga oladi va tekshiruv o'tkazadi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, qonunchilik va ichki normativ hujjatlarga muvofiq intizomiy yoki boshqa turdagi choralar ko'rilishi mumkin.

2024-yilda shikoyatlar taqdim etish mexanizmlari va boshqa jarayonlar orqali ifodalangan holda yuqori boshqaruv organi e'tiboriga yetkazilgan manfaatlar to'qnashuvi, shuningdek, Kompaniyaning manfaatdor tomonlarga nisbatan salohiyatli va amaldagi salbiy ta'siri borasidagi muhim ahamiyatli holatlar qayd etilmadi.

Kompaniya vijdonli arizachilarni taqdim etilgan xabarlar uchun ehtimoliy bosim yoki ta'qibdan himoyalashni kafolatlaydi.

72 Boshqaruvga yondashuv
73 Xaridlar tizimi
79 Ijtimoiy-iqtisodiy talablarga muvofiqlik


# 4. IQTISODIY NATIJAVIYLIK



# BOSHQARUVGA YONDASHUV

**KOMPANIYA BARAQROR RIVOJLANISH VA IQTISODIY RESURSLARNI MAS’ULIYATLI BOSHQARISH TAMOYILLARIGA SODIQLIGINI NAMOYISH QILISHDA DAVOM ETMOQDA. TAQSIMLANGAN IQTISODIY QIYMAT HAM ORTDI, BU ESA XODIMLAR, DAVLAT VA KAPITAL YETKAZIB BERUVCHILAR FOYDASIGA TO‘LOVLAR O‘SGANLIGINI AKS ETTIRADI.**

Ish haqi fondi kengayishi Kompaniyaning ijtimoiy jihatlarga va mehnat sharoitlarini yaxshilashga e’tiborini isbotlaydi. Davlatga to‘lovlar (yalpi soliqlar hajmi) umumiy suratda 75 % ga o‘sdi, bunda, foyda solig‘ining pasayishi soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar yoki hisobot davridagi moliyaviy natijalarning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mahalliy hamjamiyatlarni qo‘llab-quvvatlash davom ettirildi va Kompaniyaning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga jalb etilganligini tasdiqladi.

## YARATILGAN VA TAQSIMLANGAN BEVOSITA IQTISODIY QIYMAT

GRI 201-1

### YARATILGAN VA TAQSIMLANGAN BEVOSITA IQTISODIY QIYMAT, MLRD SO‘M[1]

| Ko‘rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 | Chetlanish, % |
|---|---|---|---|---|
| 1. Yaratilgan bevosita iqtisodiy qiymat | 6 418 | 7 865 | 9 043 | 13% |
| Daromad (tushum) | 6 220 | 7 548 | 8 712 | 15% |
| Moliyaviy investitsiyalardan daromad | 2 | 0,996 | 16 | 1546% |
| Moddiy aktivlar sotilishidan daromad | 140 | 201 | 172 | -14% |
| Boshqa tushumlar | 56 | 115 | 143 | 24% |
| 2. Taqsimlangan iqtisodiy qiymat | 3 205 | 4 386 | 5 262 | 20% |
| Operatsion xarajatlar | 1 172 | 1 359 | 1 596 | 18% |
| Ish haqi, boshqa to‘lovlar va ishchilarga imtiyozlar | 1 316 | 2 066 | 2 236 | 8% |
| - jumladan ish haqi | 1 096 | 1 863 | 2 021 | 8% |
| - jumladan boshqa to‘lovlar va ishchilarga imtiyozlar | 220 | 203 | 215 | 6% |
| Kapital yetkazib beruvchilarga to‘lovlar | 345 | 500 | 610 | 22% |
| - jumladan to‘langan dividendlar | 3 | 0 | 2 | - |
| - jumladan moliyaviy xarajatlar | 342 | 500 | 607 | 22% |
| Boshqa xarajatlar | 0 | 0 | 0 | - |
| Davlatga to‘lovlar | 309 | 421 | 735 | 75% |
| **jumladan foyda solig‘i** | **49** | **63** | **251** | **295%** |
| **Mahalliy hamjamiyatlarga investitsiyalar** | **63** | **41** | **86** | **110%** |
| 3. Taqsimlanmagan iqtisodiy qiymat | 3 213 | 3 479 | 3 782 | 9% |

[1] Ma’lumotlar dastlabki jamlanma moliyaviy hisobot asosida taqdim etilgan. Kompaniya 2025-yil 31-avgustgacha yakuniy hisob ko‘rsatkichlariga aniqlik kiritish huquqiga ega.

# XARIDLAR TIZIMI

## FAOLIYAT VA QIYMAT HOSIL QILISH ZANJIRINING SHARHI

GRI 2-6

**“O‘zbektelekom” AKning qiymat hosil qilish zanjiri quyidagilarni o‘z ichiga oladi:**

- O‘zbekiston Respublikasida statsionar va mobil aloqa, Internetga keng polosali ulanish, IP-televideniye, ma’lumotlar uzatish xizmatlari, bulutli servislar va boshqa telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish;
- jihozlar (telekommunikatsiya, tarmoq, “IT”), dasturiy ta’minot, sarflanuvchi materiallar, qurilish va infratuzilmaga xizmat ko‘rsatish xizmatlari, energiya va operatsion faoliyatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan boshqa tovarlar va xizmatlar xaridi;
- aloqa xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlar (jismoniy va yuridik shaxslar), shuningdek, hamkorlik kelishuvlari doirasida “O‘zbektelekom” AK bilan o‘zaro munosabatga kirishuvchi boshqa kompaniyalar.

Boshqa salmoqli amaliy munosabatlar texnologiyalar, jihozlar, kontent yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni, shuningdek, rouming kelishuvlari va trafik almashinuvi doirasida boshqa telekommunikatsiya operatorlari bilan hamkorlikni o‘z ichiga oladi.

2024-yilda “O‘zbektelekom” AK o‘z qiymat hosil qilish zanjirida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq keluvchi sezilarli takomillashtirishlarni amalga oshirdi. Bu ishlanmalar infratuzilma, xizmatlar, tashkiliy tuzilma va normativ talablarga muvofiqlikni qamrab oladi.



## Tarmoq infratuzilmasi va texnologiyalarning modernizatsiyasi

### Optik tolali tarmoqning kengayishi

2024-yilda

**72 572** **kilometrdan**

ziyod optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi, bu umumiy masofani **286 583** kilometrga yetkazish imkonini berdi.

Bu kengayish mamlakatning

**96%** **aholi punktlarini**

Internetga yuqori tezlikda ulanish bilan ta’minlashga qaratildi.

### 5G joriy etilishi va 5.5G tarmogini testlash

“O‘zbektelekom” AK barcha hududiy markazlarda

**5G** **texnologiyasini joriy etdi,**

bu O‘zbekistonni MDHdagi umummilliy 5G qamrovga ega birinchi mamlakatga aylantirdi.

Bundan tashqari, Kompaniya 5.5G tarmog‘ini testdan o‘tkazdi, bu O‘zbekistonga dunyodagi ushbu ilg‘or texnologiyani sinab ko‘rgan ilk mamlakatlardan biri bo‘lish imkonini berdi.

### Baza stansiyalarining modernizatsiyasi

Kompaniya

**2 608** **ta yangi baza stansiyasini o‘rnatdi,**

mavjud **4363** tasi modernizatsiya qilindi.

Bundan tashqari,

**2 400** **dan ortiq obyekt**

3G standartidan LTE (4G)ga o‘tkazildi, bu mobil tarmoq unumdorligini oshirish imkonini berdi.

## Servisli innovatsiyalar va raqamli takliflar

| | |
|---|---|
| **Unifikatsiyalangan xizmatlar paketlarini joriy etish** | uy Interneti, “IP”-telefoniya, televideniye va mobil aloqani yagona tarif rejasiga birlashtiruvchi, mablag‘lar tejalishi va abonentlar uchun qulaylikni ta’minlovchi “Hammasi birga” tarif paketi ishga tushirildi. |
| **Yaxshilangan mijozlar qo‘llab-quvvatlanishi** | mijozlar so‘rovlarini optimallashtirish uchun Telegram chat-boti yo‘lga qo‘yildi, bu Kontakt markaziga kelib tushayotgan so‘rovlarning soni 30 % ga qisqarishiga sabab bo‘ldi. |
| **Kengaytirilgan videokuzatuv xizmatlari** | kompaniyalarga mijozlar oqimini kuzatish, transport vositalari raqam belgilarini aniqlash va xavfsizlik choralarini kuchaytirish imkonini beruvchi “videokuzatuv” innovatsion xizmati joriy etildi. |

2024-yilda amalga oshirilgan o‘zgarishlar “O‘zbektelekom” AKning qiymat hosil qilish zanjirini salmoqli o‘zgartirdi va infratuzilmani yaxshiladi, xizmatlarni diversifikatsiyaladi, tashkiliy tuzilmani optimallashtirib, xalqaro normativ standartlarga muvofiq holatga keltirdi.

## NORMATIV O‘ZGARISHLAR VA BOZOR LIBERALLASHUVI

| | |
|---|---|
| **Xalqaro Internet-kanallarga monopoliyaning bekor qilinishi** | 2025-yil 1-yanvardan O‘zbekistondagi xususiy Internet-provayderlarga xalqaro Internet-kanallarga bevosita ulanishga ruxsat berildi, bu ularning texnik va operatsion imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu o‘zgarish Jahon savdo tashkiloti (JST) standartlariga muvofiqlashtirishga qaratilgan yanada kengroq iqtisodiy islohotlarning bir qismi sanaladi. |
| **Telekommunikatsiyalar sohasida yangi qonunchilik** | 2024-yil 27-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-1015-son Qonuni tasdiqlandi. Unda xizmatlar ko‘rsatish, litsenziyalashtirish ustidan nazoratni amalga oshiradigan va bozorning barcha qatnashchilari uchun adolatli yechimlar qabul qilinishini ta’minlaydigan mustaqil tartibga soluvchi organ tashkil etilishi ko‘zda tutilgan. |

# MUHIM MAVZULARNI BOSHQARISH

GRI 3-3

**XARIDLAR "O'ZBEKTELEKOM" AK OPERATSION FAOLIYATINING MUHIM TARKIBIY QISMI BO'LIB, KOMPANIYANI ZARURIY RESURSLAR BILAN TA'MINLASHGA QARATILGAN. ULAR IQTISODIYOTGA, ATROF-MUHITGA VA INSONLARGA HAM IJOBIY, HAM SALOHIYATLI SALBIY TA'SIR KO'RSATISHI MUMKIN.**

Kompaniya o'z xarid faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirib, shaffoflik, samaradorlik va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Huquqiy tartibga solish asosini raqobatni rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va xaridlar taomilini soddalashtirishga qaratilgan qonunlar va qarorlar tashkil qiladi.

**ASOSIY NORMATIV HUJJATLAR:**

- O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldagi O'RQ-850-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4812-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5171-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-332-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-yanvardagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ-41-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi VMQ-276-son qarori;
- Kompaniya xaridlari bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilovchi "Xaridlar siyosati". Ushbu Siyosat Kompaniyaning barcha tarkiby bo'linmalari va filiallariga tatbiq etiladi.

**XARID FAOLIYATI, SHUNINGDEK, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK KODEKSI, "XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLAR FAOLIYATINING SHARTNOMAVIY-HUQUQIY BAZASI TO'G'RISIDA"GI QONUNI VA "AKSIYADORLIK JAMIYATLARI VA AKSIYADORLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TO'G'RISIDA"GI QONUNI BILAN TARTIBGA SOLINADI.**

Xaridlar sohasidagi harakatlarning samaradorligini kuzatib borish uchun "O'zbektelekom" AK shartnomalar ijrosining monitoringini, imzolangan shartnomalar reyestri yuritilishini va xaridlar jarayonida xatarlar tahlilini qo'llaydi. Xaridlar faoliyatining shaffofligini oshirish va xarid qilish tartib- taomillarining barcha bosqichlarida korrupsiya xatarlarini minimallashtirish maqsadlarida biznes-jarayonlar avtomatlashtirilishini joriy etib, yuqori korrupsiya xatariga ega bosqichlarga inson omili ta'sirini minimumga tushirishga katta e'tibor beriladi.

Kompaniyaning xaridlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish komissiyasi mavjud bo'lib, u o'z faoliyatida quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

**01**

ajratilayotgan mablag'lardan foydalanishda samaradorlik, natijaviylik va tejamkorlik;

**02**

xaridlar tartib-taomilining ommaviyligi, shaffofligi va ochiqligi;

**03**

sog'lom raqobat muhitini ta'minlash, kamsitishga, xaridlarning muayyan sohalariga cheklovlar yoki preferensiyalar ajratishga yo'l qo'ymaslik (amaldagi qonunchilik bilan bunday preferensiyalar belgilangan holatlar bundan mustasno).

# SIYOSATDA BELGILANGAN MAJBURIYATLARNI JORIY ETISH

GRI 2-24

Kompaniya boshqaruvi — Xaridlar siyosati amalga oshirilishiga javobgar bo'lgan yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Xaridlarni bevosita tashkil qilish va o'tkazish vazifalari Xaridlar komissiyasi zimmasiga yuklatiladi. Komissiya tarkibiga turli tarkibiy bo'linmalar vakillari kiradi (rahbariyat, Moliya departamenti, Xaridlar departamenti, Yuridik departament va boshqalar). Bu tashkilotning turli darajalarida javobgarlik va nazoratning taqsimlanishini ta'minlaydi.

Xaridlar siyosati Kompaniyaning operatsion tartib-taomillariga integratsiya qilingan bo‘lib, barcha xodimlar hamda filiallar tomonidan uning talablari bajarilishi majburiy hisoblanadi. Xaridlar jarayoni infratuzilmani boshqarish va xizmatlarni taqdim etish bilan bog‘liq, bu tegishli jarayonlar xaritalarida aks etadi. Xaridlar to‘g‘risida qarorlar qabul qilishda turli omillar, jumladan moliyaviy, texnik va yuridik jihatlar hisobga olinadi.

Yetkazib beruvchilarning dastlabki malakasini baholash tartib-taomili qo‘llaniladi. Xaridlar siyosati va uning tamoyillari yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzishda inobatga olinadi. Komplaens departamenti xaridlarda korrupsiyani o‘z vaqtida aniqlash va oldini olish, uning sabablarini yo‘qotish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va korrupsiyaga toqatsizlik shakllanishi uchun doimiy monitoringni amalga oshiradi. Bu monitoring doirasida Komplaens departamenti Xaridlar komissiyasiga eng yaxshi takliflar tanlanishida va tenderlar o‘tkazilishida bunday holatlar mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida axborot beradi. Kontragentlarni tekshirish Kompaniyaning tegishli qo‘llanmasida batafsil tavsiflangan.

## MAHALLIY YETKAZIB BERUVCHILARGA XARAJATLAR ULUSHI

**GRI 204-1**

“O‘zbektelekom” AK mahalliy yetkazib beruvchilar bilan ishlashga ustuvor ahamiyat beradi. Geografik jihatdan “mahalliy” deganda va “O‘zbektelekom” AK asosiy faoliyat yurituvchi hudud sifatida Kompaniya ish yuritadigan mamlakat — O‘zbekiston Respublikasi nazarda tutiladi.

2024-yilda mahalliy yetkazib beruvchilar soni jami 1 905 tadan 1 903 tani tashkil qildi, bu xaridlar soni jihatdan 99,90 % ni va summasi bo‘yicha 98,88 % ni tashkil qildi. 2023-yilga nisbatan xaridlar umumiy summasi 16 % ga qirqarganiga qaramay, pulli ifodada mahalliy yetkazib beruvchilar ulushi 2,55 foizlik bandiga ortdi, bu Kompaniyaning ichki bozorni rivojlantirishga va milliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga e’tibori o‘sib borayotganidan dalolat beradi.

### XARIDLARGA XARAJATLAR, 2023–2024-YY

| Mahalliy (o‘zbekistonlik) yetkazib beruvchilardan xaridlarga to‘g‘ri keluvchi xaridlar ulushi | 2023 -yil | 2024-yil | Og‘ish, % |
|---|---|---|---|
| Yetkazib beruvchilar soni, jami | 1 878 | 1 905 | 1 |
| Summa, mln so‘m | 1 568 652 | 1 317 307 | -16 |
| Mahalliy yetkazib beruvchilar soni | 1 876 | 1 903 | 1 |
| Mahalliy yetkazib beruvchilardan xaridlar summasi, mln sum | 1 511 075 | 1 302 551 | -14 |
| umumiy sondan % | 99,89% | 99,90% | 0,01 f.b. |
| umumiy summadan % | 96,33% | 98,88% | 2,55 f.b. |

# IJTIMOIY-IQTISODIY TALABLARGA MUVOFIQLIK

**GRI 2-27**

2024-yilning hisobot davrida “O‘zbektelekom” AKga nisbatan qonunlarga va normativ aktlarga rioya etmaslik holatlari qayd etilmadi. Kompaniyaga hisobot yili uchun ham, avvalgi davrlar uchun ham jarimalar belgilanmadi va to‘lanmadi. Shuningdek, pulli bo‘lmagan sanksiyalar qo‘llanilishi holatlari ham ro‘y bermadi. Qonunchilik talablariga rioya etmaganlik uchun jarimalar umumiy summasi 0 so‘mni tashkil qildi.

2023–2025-yillardagi Yagona jamoa shartnomasiga muvofiq, Kompaniya xodimlar va ularning oilalariga turli hayotiy vaziyatlarda moddiy yordam ko‘rsatishni o‘z zimmasiga oladi. Jumladan: 12 oy ishlagandan keyin birinchi rasmiy nikohdan o‘tilganda — eng kam ish haqi miqdori (EKIHM)ning 1,76 barobarida; uzluksiz ishga qobiliyatsizlikda — 1,5 EKIHM; xodimning o‘zi yoki yaqin qarindoshlari vafot etganda — 3,52 EKIHM; xodim tashabbusi bilan pensiyaga chiqilganda — ikkita lavozim maoshi miqdoridagi to‘lov; qishloq xo‘jaligi sotuvida — 0,704 EKIHM. Bundan tashqari, vafot etgan xodim oilasiga 7,04 EKIHM, filiallardagi ishlamaydigan pensionerlarga davolanish uchun har yili 0,704 EKIHM to‘lanadi. Bolali xodimlarga dam olish, davolanish va maktab qurollari uchun kompensatsiya taqdim etiladi — masalan, 1-sentabr (Bilimlar kuni)ga birinchi sinf o‘quvchisi uchun 0,352 EKIHM ajratiladi. Tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda vaziyatlarda Kompaniya Komissiya qaroriga ko‘ra, bir martalik yordam ko‘rsatadi.

Shuningdek, Kompaniya madaniy rivojlanish, sog‘lomlashtirish va sport tadbirlarida qatnashish uchun sharoitlar yaratish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Bu “Ma’naviyat va ma’rifat” xonalarini jihozlashni, axborot soatlarini o‘tkazishni, tarixiy shaharlar bo‘ylab sayohatlarni (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi PQ-35-14-son qaroriga muvofiq, kamida xodimlarning 10 foizi uchun) tashkil etishni, shuningdek, “Ichki turizm haftaligi” va “Ichki turizm kunlari”ni o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.

Bolali xodimlar uchun Yangi yil tomoshalari tashkil etiladi va bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlariga yo‘llanmalar uchun mablag‘lar ajratiladi. Bundan tashqari, Kompaniya tomonidan imkoniyati cheklangan shaxslar, keksalar va kam ta’minlangan fuqarolar uchun sanatoriyda dam olish tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, Kompaniya sport bilan shug‘ullanish uchun sharoitlar bilan ta’minlaydi: sport maydonchalarini taqdim etadi, “ishlab chiqarish badantarbiyasi” va “sport daqiqalari”ni joriy etadi. Sport targ‘ibotchilari funksiyasini bajaruvchi xodimlarga ish haqiga kamida 10 % miqdorida qo‘shimcha haq to‘lanadi. Xodimlar va rahbariyat uchun muntazam ravishda sport tadbirlari, shuningdek, “Sport va salomatlik kunlari” tashkil etiladi, bunda, xodimlar sport liboslari va inventar bilan ta’minlanadi.

82 **Boshqaruvga yondashuv**

86 **Atrof-muhit muhofazasi**

96 **Tarmoqning o‘ziga xosligi va klimatik kun tartibi**

104 Energiya iste’moli va energiya tejamkorlik

# 5. EKOLOGIK MAS’ULIYAT VA KLIMATIK KUN TARTIBI



# BOSHQARUVGA YONDASHUV

GRI 3-3, 2-23, 2-24

**“O‘ZBEKTELEKOM” AK ATROF-MUHITGA TA’SIRLARNI BOSHQARISHGA KOMPLEKS YONDASHUVNI NAMOYISH ETADI, BU KOMPANIYA BARQAROR RIVOJI KONTEKSTIDAGI SALMOQLI MAVZU SANALADI. USHBU YONDASHUV OPERATSION FAOLIYATGA VA EKOLOGIK IZNI MINIMALLASHTIRISHGA QARATILGAN STRATEGIK TASHABBUSLARGA INTEGRATSIYALANGAN.**

Atrof-muhitga ta’sirni boshqarish quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oluvchi ko‘p miqyosli tizim orqali amalga oshiriladi:

### Strategik integratsiya

Atrof-muhitga ta’sirni minimallashtirish tarafdorligi 2024-yilda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan Barqaror rivojlanish siyosatida belgilangan. Ushbu siyosat ekologik mas’uliyat sohasidagi Kompaniya faoliyatining maqsadlari, tamoyillari va asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi asosiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

### Texnologik modernizatsiya

Kompaniya resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va salbiy ta’sirni kamaytirish maqsadida energiya tejash va barqaror rivojlanish borasidagi ilg‘or texnologiyalarni faol tatbiq etmoqda.

### Kompleks ekologik boshqaruv

ekologik boshqaruvga atrof-muhit bilan munosabatlarning asosiy jihatlarini, jumladan quyidagilarni qamrab oluvchi kompleks yondashuv amalga oshirilmoqda:

- Energiya iste’moli: faoliyatning barcha bosqichlarida energiya iste’moli optimizatsiyasi o‘tkazilib, jihozlarning energiya tejamkorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tatbiq etilmoqda.
- Qayta tiklanadigan energiya manbalari: An’anaviy energiya manbalariga bog‘liqlikni kamaytirish va Kompaniyaning uglerod izini qisqartirish uchun quyosh elektr stansiyalarini joriy etish amalga oshirilmoqda.
- Transport siyosati: transport vositalaridan tashlamalarni qisqartirish bo‘yicha sa’y-harakatlar doirasida elektromobillar kabi ekologik tozaroq transportga o‘tish.
- Chiqindilarni boshqarish: hosil bo‘ladigan chiqindilar hajmini qisqartirsh chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda va ishlab chiqarish hamda iste’mol chiqindilari bilan mas’uliyatli munosabatda bo‘lishni ta’minlash uchun utilizatsiya dasturlari rivojlantirilmoqda.
- Ekologik nazorat: Kompaniya faoliyatining barcha bosqichlarida ekologik standartlarga va normativ talablarga rioya etilishi ustidan muntazam ravishda nazorat amalga oshiriladi.

**“O‘ZBEKTELEKOM” AKDA EKOLOGIK VA IJTIMOIY JIHATLARNI BOSHQARISHGA IKKITA ASOSIY BO‘G‘IN JAVOB BERADI: KORPORATIV MIQYOSDA — BU RISKLARNI BOSHQARISH QO‘MITASI, OPERATSION MIQYOSDA — RISK MENEJMENTI BOSHQARMASI.**

Risk menejementi boshqarmasi ekologik-ijtimoiy xatarlarni samarali boshqarish va EIMT qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat borasida asosiy javobgarlikni zimmasiga oladi. Bunda, Transformatsiya va strategik rivojlantirish departamenti turli bo‘linmalarning o‘zaro munosabatini muvofiqlashtirib, barqaror rivojlanish masalalarida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Atrof-muhitga ta’sirni boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlar qo‘llanilishining samaradorligi asosiy ko‘rsatkichlar monitoringi, resurslar iste’moli dinamikasi va tashlamalar hajmining tahlili vositasida muntazam baholanadi. Baholash natijalari strategiyani to‘g‘rilash va Kompaniya faoliyatining ekologik barqarorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni joriy etish uchun qo‘llaniladi.

**SHUNINGDEK, “O‘ZBEKTELEKOM” AK MAMLAKATDA EKOLOGIK VAZIYATNI YAXSHILASH UCHUN O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TASHABBUSI BILAN BOSHLANGAN “YASHIL MAKON” MILLIY LOYIHASIDA QATNASHISHDA DAVOM ETMOQDA. USHBU LOYIHA DOIRASIDA KOMPANIYA 85 279 TUP KO‘CHAT O‘TQAZDI, BU BILAN YASHIL EKINLAR TIKLANISHIGA VA HUDUDNING EKOLOGIK MUVOZANATINI MUSTAHKAMLASHGA XIZMAT QILDI. BU TASHABBUSLAR KOMPANIYANING EKOLOGIK MAS’ULIYAT TAMOYILLARIGA RIOYA QILISHINI TASDIQLAYDI.**



## BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARI, JUMLADAN EKOLOGIK VA IJTIMOIY JIHATLARNI BOSHQARISH SXEMASI

**O’zbektelekom AK Nazorat Kengashi**

- Ichki audit xizmati
- Xatarlarni boshqarish qo’mitasi (XBQ)*

* 2024 yil noyabrda tashkil etilgan.

### Xavflarni boshqarish komiteti tarkibi:

- Boshqaruv raisi – Xavflarni boshqarish komiteti raisi
- Boshqaruv raisining birinchi o’rinbosari – Xavflarni boshqarish komiteti raisining o’rinbosari
- Moliyaviy masalalar bo’yicha boshqaruv raisining o’rinbosari – Xavflarni boshqarish komiteti raisining o’rinbosari
- Tijorat masalalari bo’yicha boshqaruv raisining o’rinbosari vazifasini bajaruvchiKorporativ boshqaruv va investitsiya portfeli bo’yicha departament director
- Yuridik departament direktori
- Risklarni boshqarish boshqarmasi boshlig’i
- Komplayens departamenti direktori
- Ichki audit xizmati rahbari

**Boshqaruv raisi**

- Boshqaruv raisining birinchi o’rinbosari
  - Axborot tehnologiyalari va telekommunikatsiyalar departamenti
  - Kapital qurilish departamenti
  - Istiqbolli rivojlantirish va investitsion loyihalar departament
  - Transformatsiya va strategik rivojlanish departamenti
- Boshqaruv raisining moliyaviy masalalar bo’yicha o’rinbosari
  - Moliyaviy departament
  - Riskl menejment departamenti
- Boshqaruv raisining tijorat masalalari bo’yicha o’rinbosari
  - Marketing departamenti
  - Sotuvlar departamenti
- Boshqaruv raisining davlat organlari bilan o’zaro munosabatlari bo’yicha o’rinbosari
  - Davlat organlari bilan o’zaro munosabatlar boshqaruvi
- Boshqaruv raisining xavfsizlik va rejim bo’yicha o’rinbosari
  - Safarbarlik ishlari va fuqaro muhofazasi departamenti
- Korporativ boshqaruv va investitsion portfel departamenti
  - Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish departamenti
  - Mehnatga haq to’lash departamenti
  - Haridlar departamenti
  - Murojaatlar bilan ishlash va nazorat departamenti
  - Huquqni muhofaze qilish organlari bilan o’zaro munosabatlar departamenti
  - Komplayens departamenti
  - Mehnat muhofaza qilish va xavfsizlik tehnikasi xizmati
- +8 filiallar

** boshqaruv ekologik va ijtimoiy xavf-xatarlarni boshqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun mas’uldir

*** ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Boshqaruv) yo’nalishi bo’yicha umumiy boshqaruv

- ■ (orange) To’g’ridan-to’g’ri boshqaruv / nazorat qilish, natijalar va ma’lumotlarni taqdim etish, barqaror rivojlanish (RB) sohasidagi aspektlar yoki xavf-xatarlar bo’yicha
- ■ (dark blue) Operativ yordam – Dasturiy ta’minot va strategik rivojlanish departamenti (DTSR) so’roviga binoan ma’lumot taqdim etish
- ■ (light blue) Barqaror rivojlanish dasturi (E) doirasidagi ekologik jihatlarni boshqarishda bevosita ishtirok etish
- ■ (grey) Barqaror rivojlanish dasturi (S) doirasidagi ijtimoiy jihatlarni boshqarishda bevosita ishtirok etish
- ■ (blue) Barqaror rivojlanish (G) kun tartibi bo’yicha boshqaruv aspektini nazorat qilishda ishtirok etish



# ATROF-MUHIT MUHOFAZASI (TASHLAMALARNI BOSHQARISH, SUV ISTE’MOLI, CHIQINDILAR)

**GRI 305-1, 305-2, 305-4, 305-6, 303-1, 303-2, 303-5, 306-1, 306-2, 306-3, 306-4, 306-5**

**“O‘ZBEKTELEKOM” AK EKOLOGIK MAS’ULIYATNI NAMOYISH ETIB, ISSIQXONA GAZLARI TASHLAMALARINI NAZORAT QILIB BORADI HAMDA UGLEROD IZINI KAMAYTIRISHGA VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA INTILADI. KOMPANIYA BEVOSITA VA BILVOSITA TASHLAMALAR, SHUNINGDEK, TUSHUMGA NISBATAN ULARNING INTENSIVLIGI HISOBINI YURITADI. CHORA-TADBIRLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA ATROF-MUHITGA TA’SIRNI KAMAYTIRISH BO‘YICHA KELGUSI HARAKATLARNI REJALASHTIRISH UCHUN UCH YILLIK DINAMIKANI TAHLIL QILADI.**

## USLUBIYOT

### Issiqxona gazlari tashlamalarini baholash (Scope 1)

Issiqxona gazlari (IG) tashlamalarini aniqlash — Kompaniyaning ekologik ta’sirini minimallashtirish uchun asosiy element. Baholash O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, xalqaro standartlarga va IO‘HEG uslubiyotiga asoslangan (2006-y.).[2]

[2] Chapter 2: Stationary Combustion, available at: Microsoft Word — V2_Ch2_Stationary_Combustion_Final.doc (iges.or.jp)



**TASHLAMALAR TOIFALARI (SCOPE 1[3]):**

**Yoqilg‘ining statsionar yoqilishi**
qozonlar, pechlar, turbinalar va energiya ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan boshqa jihozlardan tashlamalar.

**Transportirovka**
korporativ transport (yuk mashinalari, poezdlar, kemalar, samolyotlar, avtomobillar)dan tashlamalar.

**Xladagentlar ishlatilishidan IG tashlamalari**
(hisobot davrida tashkilot xonalarini kondsionerlash tizimidagi sizib chiqishlar).

**HISOBLASH USLUBIYOTI YOQILG‘INING ISSIQLIK HOSIL QILISH QOBILIYATI KOEFFITSIYENTLARI VA TASHLAMALARNING STANDARTLASHGAN KOEFFITSIENTLARIDAN FOYDALANADI. YOQILG‘I SARFI VA XALAGENTLAR SIZIB CHIQISHI TO‘G‘RISIDAGI MA’LUMOTLAR KO‘PINCHA MAVJUD BO‘LMAYDI, BU ESA HISOB-KITOBLAR TO‘LIQLIGINI CHEKLAYDI.**

$$E^{comb}_{GHG_y} = \sum_{j=1}^{n} \left(FC_{j,y} \times EF_{GHG,j,y} \times GWP_{GHG}\right)$$

| | |
|---|---|
| $E^{comb}_{GHG_y}$ | — t $CO_2$-ekv yoqilg‘isining statsionar yoqilishidan IG issiqxona gazlari tashlamalari ($CO_2$, $CH_4$, $N_2O$); |
| $FC_{j,y}$ | — energetik ekvivalentda yoqilg‘i sarfi, TJ; |
| $j$ | — yoqish uchun ishlatiladigan yoqilg‘i turi; |
| $n$ | — ishlatiladigan yoqilg‘i; |
| $EF_{GHG,j,y}$ | — davr mobaynida j yoqilg‘ining statsionar yoki mobil yoqilishidan IG tashlamalari koeffitsiyenti ($tCO_2$/TJ). Milliy va xalqaro uslubiyotlar qiymatlariga muvofiq aniqlanadi. |
| $GWP_{GHG}$ | — IO‘HEG AR6 ga muvofiq GWP koeffitsiyentiga. |

### Bilvosita tashlamalarni baholash tamoyillari (Scope 2)

“Scope 2” energiya (elektr energiyasi, issiqlik, bug‘, sovitish) iste’moli bilan bog‘liq issiqxona gazlari (IG)ning bilvosita tashlamalarini qamrab oladi. Bu tashlamalar IG4 Bayonnomasi xalqaro standarti bo‘yicha majburiy hisobga olinishi lozim.

[3] Kompaniya chiqindilar utilizatsiyasi uchun o‘z poligoniga ega emas. Shu sababli, chiqindilar bilan bog‘liq IG tashlamalari IG Scope 1 tashlamalari hisobiga kirmaydi.

## Hisob-kitob qilish uslubiyoti

Tashlamalar energiya iste’moli inobatga olingan holda, o‘rtacha mintaqaviy tashlamalar intensivligi koeffitsiyenti asosida baholanadi. 2023-yil uchun ma’lumotlar mavjud emasligi sababli, 2020-yil uchun koeffitsiyentlardan foydalanildi. Hisob-kitob uchun Xalqaro energetika agentligining 2022-yil uchun ma’lumotlari qo‘llanildi.

**2024-YILDA BILVOSITA TASHLAMALAR (ELEKTR ENERGIYASI BILAN BOG‘LIQ TASHLAMALAR)NING 114 449 T $CO_2$-EKV. GACHA SEZILARLI O‘SISHI KUZATILDI, BU 2023-YIL KO‘RSATKICHIDAN (90 979 T $CO_2$-EKVIVALENTDA) 25,7 % GA YUQORI. TASHLAMALAR ORTISHI TARMOQNI RIVOJLANTIRISH VA INFRATUZILMANI MODERNIZATSIYALASH UCHUN ZARUR ELEKTR ENERGIYASI ISTE’MOLI OSHGANI BILAN IZOHLANADI.**

Hisobot davrida Kompaniya o‘z operatsion faoliyatida biomassa yoki boshqa biogen materiallardan foydalanmadi. Bevosita tashlamalarning barcha manbalari (Scope 1), jumladan dizel- generatorlar, xizmat transporti va sovitish tizimlari qazib olinadigan yoqilg‘i yoki sanoat gazlaridan foydalanishga asoslangan.

Shu tariqa, $CO_2$ biogen tashlamalari, $CO_2$-ekvivalentda hisoblaganda, 0 metrik tonnani tashkil etdi.

### ISSIQXONA GAZLARINING BILVOSITA ENERGETIK TASHLAMALARI (SCOPE 2), T $CO_2$- EKVIVALENTDA

GRI 305-2

Kompaniya bo‘yicha issiqxona gazlari bilvosita tashlamalarining umumiy hajmi (Scope 2), t $CO_2$-ekvivalentda




### ISSIQXONA GAZLARINING BEVOSITA TASHLAMALARI (SCOPE 1)

GRI 305-1

Kompaniya bo‘yicha umumiy hajm, t $CO_2$-ekv.




| Ko‘rsatkich | O‘lchov birligi | 2022* | 2023 | 2024* |
|---|---|---|---|---|
| Karbonat angidrid ($CO_2$) | t$CO_2$-ekv. | 13 661 | 9 789 | 20 907 |
| Metan ($CH_4$) | t$CO_2$-ekv. | 224 | 181 | 224 |
| Azot chala oksidi ($N_2O$) | t$CO_2$-ekv. | 156 | 102 | 163 |

*2022-2024-yy. uchun freonlardan IG tashlamalari bo‘yicha ma’lumotlar t$CO_2$-ekv. karbonat angidrid gazi toifasidagi IG tashlamalari hajmiga kiritilgan. Xladagentlar yo‘qotilishi — umumiy hajmdan 10 %.

Ozon qatlami yemirilishi salohiyati — bu texnologik sovitish qurilmasida qo‘llaniladigan moddaning, masalan, xladagentning solishtirma xususiyatidir. Ushbu ko‘rsatkich uning molekulyar tuzilmasiga ko‘ra baholanadi. Xlor va brom komponenti molekulada qancha ko‘p bo‘lsa, OPS (ozone depletion potential) qiymati shunchalik yuqori bo‘ladi. Ozon qatlamini yemirish salohiyati — bu kimyoviy modda trixlorftormetan (XFU-11)ning shunday massasiga solishtirganda ozon qatlamiga qanchalik katta zarar keltirishi mumkinligi mezonidir. Ozonni yemirish salohiyati 1,0 ga teng bo‘lgan XFU-11, ozonni yemirish salohiyatini o‘lchash uchun bazaviy ko‘rsatkich sifatida qo‘llaniladi.

Ftor va xlor birikmalari katta faollik bilan ajralib turadi, shu sababli Yerning ozon qatlami bilan ularning o‘zaro ta’siri himoya qobig‘ining jadal yemirilishiga olib keladi. Kompaniya tomonidan 2022-2024-yillarda ishlatilgan xladagentlar spektridan faqat R-22 va HCFC-22 ozon qatlamini kuchsiz yemirish salohiyatiga ega, boshqa ishlatiladigan xladagentlarda ozon qatlamini yemirish salohiyati nolga teng.

### ISSIQXONA GAZLARINING SOLISHTIRMA TASHLAMASI (MAHSULOTNING UGLEROD SIG‘IMI), 2022-2024 YY.

IG tashlamalarining umumiy hajmi (Scope 1 va 2)




| Ko‘rsatkich | O‘lchov birligi | 2022 | 2023 | 2024* |
|---|---|---|---|---|
| Issiqxona gazlarining solishtirma tashlamasi (Scope 1 va 2) | t$CO_2$-ekv / mlrd so‘m | 16,5 | 13,4 | 15,6 |
| Tushum | mlrd so‘m | 6 220 | 7 548 | 8 712 |

Ozonni yemirish salohiyati (OYS) Monreal bayonnomasi va unga o'zgartishlar shakllanishida nihoyatda muhim mezon bo'lgan. OYS qiymati turli Ozon qatlamini buzuvchi moddalarning nisbiy stratosfera ozonini yemirish salohiyatiga qiyoslash uchun qo'llaniladi. OYS umumiy ozonning kompleks o'zgarishiga ozonni yemiruvchi muayyan moddaning yalpi tashlamalari birligining ushbu kompleks o'zgarishga nisbati sifatida belgilanadi.

Ozonni yemirish salohiyati turli vaqt davrlari chegarasida o'zgaradi: ushbu baholashda OYSning 100 yillik chegarasi qo'llanildi. Moddadaning umumiy OYS ushbu moddaning atmosferaga tushgan miqdorini ushbu modda uchun ozon qatlamini yemirish salohiyatining qiymatiga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

### XLADAGENTLARDAN FOYDALANISHDAN OZON YEMIRILISHI SALOHIYATI

**GRI 305-6**

| Freon markasi | 2022-yilda freon sizib chiqishi hajmi, kg | 2023-yilda freon sizib chiqishi hajmi, kg | 2024-yilda freon sizib chiqishi hajmi, kg | Ozonni yemiruvchi salohiyat, 2022-y. | Ozonni yemiruvchi salohiyat 2023-y. | Ozonni yemiruvchi salohiyat 2024-y. | 2022 ODP, tonna | 2023 ODP, tonna | 2024 ODP, tonna |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| R-410A | 41.07 | 51.93 | 68.99 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| R-407c | 0.00 | 15.82 | 24.23 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| R-22 | 40.05 | 41.64 | 35.51 | 0.055 | 0.055 | 0.055 | 0.0022 | 0.0023 | 0.0020 |
| R-134A | 8.14 | 25.32 | 13.68 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| R-600A | 2.60 | 2.50 | 0.00 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| R-32A | 5.00 | 3.80 | 0.00 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| R-404 | 2.18 | 4.11 | 1.54 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| HCFC-22 | 8.16 | 0.00 | 0.00 | 0.055 | 0.055 | 0.055 | 0.0004 | 0 | 0 |
| Freondan foydalanishdan 2022-2024-yy. uchun ozonni yemiruvchi umumiy salohiyat | | | | | | | 0.0027 | 0.0023 | 0.0020 |

**KOMPANIYA OZONNI YEMIRISH SALOHIYATI NOLGA TENG BO'LMAGAN FREONLARNI ALMASHTIRISHGA INTILADI, R-410A, R-407C, R-134A, R-600A, R-32, R-404 MARKALI FREONLAR SIZIB CHIQISHI MAVJUD BO'LISHIGA QARAMAY, ULARNING YALPI HAJMI NISBATAN KAM VA SALBIY TA'SIRINING SALOHIYATI NUQTAYI NAZARIDAN EKOLOGIYA UCHUN XAVFI KAMROQ. BUNDA, OZONNI YEMIRISH SALOHIYATIGA R-22 MARKALI FREON ASOSIY HISSA QO'SHADI, KOMPANIYA UNI BOSQICHMA-BOSQICH ALMASHTIRISHNI REJALASHTIRMOQDA.**



## SUV ISTE'MOLI

"O'zbektelekom" AK suv resurslarini boshqarishga mas'uliyatli yondashuvni namoyish etib, o'zining kundalik faoliyatida va ishlab chiqarish sikllarida suv resurslaridan foydalanishni maqsadli ravishda qisqartirmoqda.

"O'zbektelekom" AK suv resurslari bilan ko'p jihatdan maishiy hamda ma'muriy va ishlab chiqarish obyektlaridagi texnik ehtiyojlar uchun qo'llaniladigan markazlashgan suv ta'minoti tizimlari orqali munosabatda bo'ladi. Oqova suvlar tashlamasi shahar kanalizatsiya tarmoqlariga amaldagi shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi. Suv resurslariga ta'sir qilinishi minimal hajmda amalga oshiriladi, chunki tashkilot suvtalab ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanmaydi.

Suvdan foydalanishda maksimal samaradorlikka erishish uchun "O'zbektelekom" AK quyidagilarni o'z ichiga oluvchi qator kompleks choralarni qo'llaydi:

**Tizimli nazorat va hisob**

Kompaniya barcha obyektlarida iste'mol qilinayotgan suv hajmlarining qa'iy va muntazam monitoringini yuritadi.

**Ilg'or texnologiyalar tatbiq etilishi**

"O'zbektelekom" AK, suvdan foydalanishni optimallashtirish uchun, zamonaviy santexnika qurilmalari kabi suv tejamkor yechimlarga faol investitsiyalar kiritadi.

**Yo'qotishlarning oldini olish**

Kompaniya suv quvurlari tarmog'iga o'z vaqtida xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlashga, shuningdek, sizib chiqishlarni minimallashtirish uchun eskirgan jihozlarni almashtirishga katta e'tibor beradi.

**Tejamkorlik madaniyatini ommalashtirish**

"O'zbektelekom" AK o'z xodimlari o'rtasida suv iste'moliga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan xabardorlikni oshirish dasturlarini amalga oshiradi.

Barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilinishi Kompaniya tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va meyoriy hujjatlari, jumladan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi asosiy Qonunlarga, shuningdek, sanitariya-gigiena normalariga qat'iy rioya etilishida o'z aksini topadi.

**2022-YILDAN 2024-YILGACHA BO'LGAN DAVRDA OLINADIGAN SUVNING UMUMIY HAJMI KAMAYISHI KUZATILDI. KOMPANIYA BO'YICHA UMUMIY SUV OLINISHI 2023-YILDAGI 386 MING M³ DAN 2024-YILDA 301 MING M³ GA, YA'NI 21,9 % GA QISQARDI. SUV TAQCHIL HUDUDLARDA UMUMIY SUV OLINISHI HAM 2023-YILDAGI 330 MING M³ DAN 2024-YILDA 247 MING M³ GA, YA'NI 25,2 % GA KAMAYDI. HAM UMUMIY, HAM SUV TAQCHIL HUDUDLARDA OLINADIGAN SUVNING BUTUN HAJMI TASHQI (MUNITSIPAL) TASHKILOTLARDAN KELADI.**

## 2022-2024-YILLARDA MANBALAR KESIMIDA UMUMIY SUV OLINISHI, MING M$^3$

## GRI 303-3

Kompaniya bo‘yicha olinadigan suvning umumiy hajmi




Suv taqchil hududlarda olinadigan suvning umumiy hajmi




| Ko‘rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|
| yer usti suvlari, jumladan yomg‘ir suvlari | 0 | 0 | 0 |
| yerosti suvlari | 0 | 0 | 0 |
| dengiz va okeanlar suvi | 0 | 0 | 0 |
| sanoat suvlari | 0 | 0 | 0 |
| tashqi (munitsipal) tashkilotlar suvlari | 411 | 386 | 301 |

| Ko‘rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|
| yer usti suvlari, jumladan yomg‘ir suvlari | 0 | 0 | 0 |
| yerosti suvlari | 0 | 0 | 0 |
| dengiz va okeanlar suvi | 0 | 0 | 0 |
| sanoat suvlari | 0 | 0 | 0 |
| tashqi (munitsipal) tashkilotlar suvlari | 358 | 330 | 247 |

Suv tashlamasi ko‘rsatkichlari ham pasaydi. Kompaniya bo‘yicha tashlamalar umumiy hajmi 2023-yildagi 351 ming m$^3$ dan 2024-yilda 266 ming m$^3$ ga — 24,2% ga qisqardi. Tashlamalarda ham butun hajm tashqi (munitsipal) tashkilotlar suvlariga to‘g‘ri keladi.

## 2022-2024-YILLARDA UMUMIY SUV TASHLAMASI, MING M$^3$

## GRI 303-4

| Ko‘rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|
| **Butun Kompaniya bo‘yicha umumiy suv tashlamasi hajmi** | **351** | **351** | **266** |
| yer usti suvlari, jumladan yomg‘ir suvlari | 0 | 0 | 0 |
| yerosti suvlari | 0 | 0 | 0 |
| dengiz va okeanlar suvi | 0 | 0 | 0 |
| sanoat suvlari | 0 | 0 | 0 |
| tashqi (munitsipal) tashkilotlar suvlari | 351 | 351 | 266 |
| **Suv taqchil hududlarda umumiy suv tashlamasi hajmi** | **330** | **318** | **230** |

Umumiy suv iste’moli miqdori 2023-yildagi 36 ming m$^3$ dan 2024-yilda 35 ming m$^3$ ga — 2,8 % ga qisqardi. Suv taqchil hududlarda suv iste’moli, aksincha, 41,7 % ga (2023-yildagi 12 ming m$^3$ dan 2024-yilda 17 ming m$^3$ ga) oshdi.

## 2022-2024 YY.DA UMUMIY SUV ISTE’MOLI, MING M$^3$

## GRI 303-5

Umumiy suv iste’moli miqdori




Suv taqchil hududlarda umumiy suv iste’moli miqdori




## O‘ZBEKISTONDAGI SUV TAQCHIL HUDUDLAR XARITASI

Suv iste’moli va suv resurslari qayta tiklanishi ko‘rsatkichlari asosida “WWF Water Risk Filter ” tasnifiga muvofiq, O‘zbekistonning aksariyat hududlari “ekstremal suv stressi” zonasida joylashgan (baseline water stress >80%).




Kompaniya filiallari joylashgan, suv tachil bo‘lgan hududlar:

- Navoiy viloyati (7);
- Buxoro viloyati (3);
- Surxondaryo viloyati (11);
- Samarqand viloyati (9);
- Jizzax viloyati (5);
- Sirdaryo viloyati (10);
- Toshkent viloyati (12);
- Farg‘ona viloyati (4).

# CHIQINDILAR BILAN ISHLASH

**GRI 306-1**

O‘z faoliyati jarayonida “O‘zbektelekom” AK ishdan chiqqan telekommunikatsiya qurilmalari ko‘rinishidagi chiqindilar yuzaga kelishiga duch keladi. Bu qurilmalar metall, plastik va oynadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston sanitariya me’yorlari (0127-02-sonli SanQvaN)ga muvofiq, komponentlarining inertligi tufayli xavfsizligi past chiqindilar (4- toifa) sifatida tasniflanadi.

Bunday qurilmalarning hisobdan chiqarilishi va utilizatsiyasi jarayonlari qonunchilik bilan qat’iy tartibga solingan, shu jumladan:

- asosiy vositalar, jumladan texnologik qurilmalarni hisobdan chiqarish tartibini belgilovchi, Moliya vazirligining 2004-yildagi 101-son buyrug‘i;
- Pochta va telekommunikatsiyalar agentligi (bugungi kunda Raqamli texnologiyalar vazirligi) ning telekommunikatsiya tarmog‘ida qurilmalarni bo‘laklash va utilizatsiya qilish qoidalarini belgilovchi 2002-yildagi 40-son buyrug‘i.

Shuningdek, amaldagi normativ hujjatlar bilan, shu jumladan:

- “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (chiqindilar bilan ishlash qismida);
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-son Farmoni;
- Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-oktabrdagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi VMQ-606-son qarori.

Kompaniya hisobdan chiqarilgan qurilmalar bilan ishlash borasida quyidagi yondashuvlarni qo‘llaydi:

- barcha hisobdan chiqarilgan qurilmalar majburiy bo‘laklanadi;
- Ishchi komissiya komponentlarni baholashni amalga oshiradi va kelgusida ishlatishga yaroqli qismlar foydalanishga qaytariladi;
- tiklab bo‘lmaydigan qurilmalar utilizatsiya uchun ixtisoslashgan tashkilotlarga topshiriladi:
  - “O‘zikkilamchiranglimetall” AJ — rangli metallarni tayyorlash va qayta ishlash bilan shug‘ullanadi;
  - “O‘zikkilamchiqorametall” AJning tarkibiy bo‘linmasi bo‘lgan “O‘zmetkombinat” AJ — qora metallolom tayyorlash va qayta ishlash bilan shug‘ullanadi.

Bundan tashqari, yangi qurilmalar o‘rnatilishi faqat sanitariya xizmatlari bilan kelishilgandan so‘ng, amalga oshiriladi, ular kerakli o‘lchov ishlarini o‘tkazadilar va sanitariya pasportlarini taqdim etadilar.

“O‘zbektelekom” AK barcha belgilangan talablarga so‘zsiz rioya etib, atrof-muhitga o‘z ta’sirini minimallashtirishga intiladi va hosil bo‘ladigan chiqindilarning mas’uliyatli boshqaruvini ta’minlaydi. Bunday yondashuv Kompaniyaning O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmog‘ida ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilishini namoyish etadi.

2022-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda hosil bo‘layotgan xavfsiz chiqindilarning miqdori kamayganligi kuzatildi. 2024-yilda xavfsiz chiqindilar hajmi 2 749 tonnani tashkil etdi, bu esa, 2023-yildagi 4 524 tonnadan 39,2 % ga kamayganligini ko‘rsatadi.

Hosil bo‘ladigan chiqindilar hajmini hisoblashda shaffoflikni va milliy talablarga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida, Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-son qaroriga amal qiladi, unga ko‘ra, qattiq maishiy chiqindilar (QMCh) hisobi kub metr (m³)da yuritiladi.



Biroq, ESG-hisobotni yuritish maqsadlarida va ekologik ta’sirni baholash uchun ma’lumotlarni metrik tonna (t)da taqdim etish talab qilinadi. Hudud, iqlimiy sharoit va mavsumiylikka qarab chiqindilarning zichligi farqlanishi mumkinligi tufayli, hisob-kitob uchun o‘rta hisobdagi normativ ko‘rsatkich qo‘llaniladi. Aralash chiqindilarning qabul qilingan hisob-kitob zichligi:

- 0,445 t/m³ — konvertatsiya uchun tavsiya qilingan QMCh taqribiy o‘rtacha zichligi.

O‘rta hisobdagi koeffitsiyent (0,445 t/m³) dan foydalanish turli obyektlar va hududlar bo‘yicha ma’lumotlarning o‘zaro qiyoslanishini ta’minlash, shuningdek, davrlar kesimida chiqindilar dinamikasi tahlilining aniqligini oshirish imkonini beradi. Zarur hollarda chiqindilar turlariga yoki hududiy xizmatlarning aniqlik kiritilgan ma’lumotlariga ko‘ra koeffitsiyentga tuzatish kiritilishi mumkin.

## HOSIL BO‘LADIGAN CHIQINDILAR, TURIGA KO‘RA, TONNADA

**GRI 306-3**

| Ko‘rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|
| Xavfli chiqindilar | 0 | 0 | 0 |
| Xavfsiz chiqindilar | 5 173 | 4 524 | 2 749 |

Shu kabi tendensiya xavfsiz chiqindilar utilizatsiyasi borasida ham kuzatiladi. Utilizatsiyalangan xavfsiz chiqindilarning umumiy hajmi 2024-yilda 107 tonnani tashkil etdi, bu esa 2023-yildagi 160 tonnadan 33,0 % ga kam. Barcha utilizatsiyalangan xavfsiz chiqindilar “Utilizatsiya bo‘yicha boshqa operatsiyalar” toifasiga kiradi. Takroriy foydalanishga tayyorlov va takroriy foydalanish imkoniyati mavjud emas.

## UTILIZATSIYALANGAN XAVFSIZ CHIQINDILARNING UMUMIY HAJMI, TONNADA

**GRI 306-4**

| Ko‘rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|
| **Xavfsiz chiqindilar:** | 180 | 160 | 107 |
| Takroriy foydalanishga tayyorlov | 0 | 0 | 0 |
| Takroriy foydalanish | 0 | 0 | 0 |
| Utilizatsiya bo‘yicha boshqa operatsiyalar | 180 | 160 | 107 |

## TC-TL-440A.1

“O‘zbektelekom” AK faoliyatida to‘plash va qayta ishlashga topshirish kerak bo‘lgan hosil bo‘luvchi chiqindilarning asosiy turi rangli metall parchalari va chiqindilari sanaladi. Bu chiqindilar quyidagi turlarga toifalanadi: mis, alyuminiy va boshqa rangli metallar.

2024-yil yakunlariga ko‘ra to‘plangan va qayta ishlashga topshirilgan rangli metallar hajmi Kompaniya bo‘yicha jami quyidagi hajmni tashkil qildi:

**Umumiy hajm:** **271,617** tonna — **Mis:** **86,842** tonna — **Alyuminiy:** **53,635** tonna — **Boshqa rangli metallar:** **131,140** tonna

To‘plangan hajmlar to‘g‘risidagi barcha axborot materiallar topshirilishi to‘g‘risidagi amaldagi ma’lumotlarga asoslangan.

# TARMOQNING O'ZIGA XOSLIGI VA IQLIM O'ZGARISHI OQIBATLARINI YUMSHATISH VA MOSLASHISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR

**GRI 2-23, 2-24, 201-2**

Telekommunikatsiya tarmog'i issiqxona gazlari global tashlamalarining asosiy manbayi hisoblanmaydi — uning ulushi 1,8–2,8 %[4] atrofida baholanadi. Biroq, tarmoq rivojlangani sari tashlamalar hajmi ortmoqda: 2002-yildagi 530 mln t $CO_2$-ekvivalentidan 2020-yildagi 800–2300 mln t $CO_2$-ekvivalentigacha.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan ITU, GeSI, GSMA va SBTi klimatik kun tartibini faol rivojlantirmoqdalar va tashlamalarni kamaytirish bo'yicha standartlar ishlab chiqmoqdalar. GSMA xabar berishicha, jahondagi mobil ulanishlarning 30 % ga xizmat ko'rsatuvchi 29 ta operator ITU standartiga muvofiq, 2032-yilgacha mo'ljallangan tashlamalarni qisqartirish maqsadlarini qabul qildi.

O'zbekistonda, telekom-sektorni, shuningdek, Kompaniya faoliyatining ekologik va ijtimoiy jihatlarini tartibga solish doirasida, 1992–2023-yillar oralig'ida quyidagi normativ aktlar qabul qilindi va amal qilmoqda:

**Strategik hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi kelishuvlarning so'zsiz ijrosini ta'minlash va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-son qarori.

**Tarmoqni tartibga solish:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ-699-son qarori.

**Ekologik tartibga solish:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" 1992-yil 9-dekabrdagi O'RQ-754-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" 1996-yil 27-dekabrdagi O'RQ-353-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida" 2002-yil 5-apreldagi O'RQ-365son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida" 2000-yil 25-maydagi O'RQ-73-son Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida" 2022-yil 3-noyabrdagi O'RQ-784 Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 26-dekabrdagi "Ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadlarida mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 318-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktabrdagi "Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 787-son qarori.

**Ijtimoiy tartibga solish:**

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi O'RQ–798-son, 28.10.2022-y.
2. "Iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'RQ-221, 26.04.1996-y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" 2019-yil 2-sentabrdagi O'RQ-562-son Qonuni.

**"Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar alohida belgilangan, xususan:**

- respublikada raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish uchun kompleks choralar amalga oshirilmoqda, shuningdek, barcha tarmoqlar va sohalarda, avvalo davlat boshqaruvi organlarida, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligi obyektlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilmoqda;
- mamlakatning barcha ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida yuqori tezlikdagi Internetga ulanishni ta'minlash;
- axborot xavfsizligi, "Elektron hukumat", "Yagona darcha" markazlari;
- milliy kontentni rivojlantirish.

[4] More emissions than meet the eye: Decarbonizing the ICT sector , available at: 2023_07_04_Decarbonization-ICT.pdf

2024-yilda Kompaniya O'zbekistonning ekologik va ijtimoiy sohadagi asosiy qonunchilik hujjatlarini, shuningdek, "Asian Infrastructure Investment Bank" (AIIB) tomonidan belgilangan talablarni tahlil qildi. Tahlil davomida ekologik va ijtimoiy mas'uliyat sohasida xatarlarni kamaytirish uchun bir qator yo'nalishlar aniqlandi. Quyidagi jadvalda zaruriy chora-tadbirlar ro'yxati taqdim etilgan.

### E&S NI BAHOLASH VA BOSHQARISH (AIIB TAVSIYALARIGA MUVOFIQ)

| E&Sni baholash va boshqarish bo'yicha ESS (AIIB tavsiyalariga muvofiq*) | O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va qoidalari | Bo'shliqlar | Bo'shliqlarni to'ldirish chora-tadbirlari |
|---|---|---|---|
| **ESS 1** | O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni (754-XII-son, 1992-yil) va Vazirlar Mahkamasining 2001-yildagi 491-son qarorida AMTB o'tkazishni, jumladan atrof-muhit va insonlar salomatligiga ta'sirni baholash o'tkazilishi belgilangan. Biroq, iqlimiy xatarlar va o'zgarishlar ko'rib chiqilmagan. | MT bilan konsultatsiyalar odatda rasmiyatchilik uchun, to'liq jalb qilinmagan holda amalga oshiriladi. Iqlimiy o'zgarishlar hisobi mavjud emas. | AIIB tomonidan talab qilinayotgan iqlimiy xatarlar hisobini joriy etish. Manfaatdor tomonlarning barcha guruhlarini jalb etgan holda shaffof konsultatsiyalarni tashkil qilish. |
| **ESS 2** | "Fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida (O'RQ-637, 2020-y.) – telekommunikatsiya infratuzilmasi, jumladan antenna va machtalar o'rnatishda mahalliy hamjamiyatlar bilan kelishish lozimligi belgilangan. | ESS2 talablariga muvofiq, majburiy asosda ko'chirish ko'zda tutilmagan. Qurilmalar "O'zbektelekom" AK tasarrufidagi yer uchastkalari va binolarda joylashtiriladi. | O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi[5] ning 214-moddasiga muvofiq, barchayerlarrespublikamulki sanaladi,minoralaro'rnatish yoki kabellar yotqizish uchun mo'ljallangan yer uchastkalaridan foydalanish huquqi esa, "O'zbektelekom" AKga tegishli. |

[5] O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (1997-yil 1-mart)



E&S NI BAHOLASH VA BOSHQARISH (AIIB TAVSIYALARIGA MUVOFIQ)

| E&Sni baholash va boshqarish bo'yicha ESS (AIIB tavsiyalariga muvofiq*) | O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va qoidalari | Bo'shliqlar | Bo'shliqlarni to'ldirish chora-tadbirlari |
|---|---|---|---|
| **ESS 3** | O'zbekistonda tub xalqlar rasman toifa sifatida alohida ajratilmagan. Ularning huquqlarini muhofaza qilish uchun tegishli qonunchilik yoki majburiy konsultatsiyalar mavjud emas. | Bankning ESP bo'yicha B toifada belgilangan dastlabki tasniflashga ko'ra, ESS 1 va ESS 2 standartlarini qo'llash talab etiladi. ESS 3 standartini qo'llab bo'lmaydi, chunki mamlakatda ESS 3da ko'rsatilgan tub xalqlar tushunchasiga muvofiq keluvchi guruhlar mavjud emas. | Joriy vaqtda ESS 3 standarti bo'yicha chora-tadbirlar tatbiq etilishini moliyalashtirilayotgan loyihalar uchun qo'llab bo'lmaydi. |
| **Ekologik va ijtimoiy majburiyatlar bo'yicha monitoring va hisobot, jumladan muntazam hisobotlar taqdim etish talab qilinadi.** | "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-382, 2013) ekologik monitoringni tartibga soladi.<br>Ijtimoiy jihatlar "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-474, 12.04.2018) bilan tartibga solinadi. | Ijtimoiy xatarlar va ular to'g'risida muntazam hisobotlar qonunchilikda ko'zda tutilmagan. | AIIB talablariga muvofiq keluvchi ijtimoiy xatarlar monitoringi tizimini joriy etish. Moliyalashtirilayotgan loyihalarning ekologik va ijtimoiy jihatlari to'g'risida muntazam hisobotlarni kiritish. |

**IQLIMIY XATARLARNI EHTIMOLIY MOLIYAVIY OQIBATLAR INOBATGA OLINGAN HOLDA YANADA SIFATLI BOSHQARISH MAQSADIDA, 2024-YILDA KOMPANIYA BUNDAY XATARLAR VA IMKONIYATLARNING DASTLABKI TAHLILINI, SHUNINGDEK, UGLEROD NEYTRALLIGI STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH VA BIZNES-MODELNI O'Z VAQTIDA OPTIMALLASHTIRISH UCHUN QO'SHIMCHA IMKONIYATLARNI O'RGANISH DOIRASIDA TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARI UCHUN IMKONIYATLAR TAHLILINI AMALGA OSHIRISHNI BOSHLADI.**

O'tkazilgan iqlimiy xatarlar va imkoniyatlar tahlili asosida Kompaniya uning faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy xatarlarni belgiladi, shuningdek, telekommunikatsiya tarmog'i uchun istiqbollarni belgiladi. Keyingi sxemada va 18-jadvalda kelgusida iqlim o'zgarishiga ta'sirni kamaytirish va o'z biznes-modelini optimallashtirish uchun tegishli ishlarni rejalashtirishda va qarorlar qabul qilishda Kompaniya tomonidan inobatga olinishi lozim bo'lgan asosiy iqlimiy xatarlar va imkoniyatlar aks ettirilgan.

# O’zbekiston telekom-tarmog’i uchun iqlimiy xatarlar

## Xatarlar

### Jismoniy xatarlar

**Surunkali xatarlar:**

**Qurg’oqchilik**: Doimiy qurg’oqchilik suv resurslari kamayishiga va Kompaniya faoliyat yuritayotgan qishloq hududlarda sharoritlar yomonlashishiga olib keladi.

**Harorat ko’tarilishi**: Haroratning asta-sekin ko’tarilishi iqlimga, aholining, jumladan Kompaniya xodimlarining umumiy salomatligiga uzoq muddatli ta’sir ko’rsatadi.

**Tuproq erozyasi**: yerdan noto’g’ri foydalanish va nazoratsiz sug’orish tuproqning asta-sekin erozyasiga olib keladi, bu qishloq xo’jaligi va Kompaniya o’z faoliyatini yuritadigan hududlardagi iqtisodiy faoliyat sharoitini yomonlashtiradi.

**O’tkir xatarlar:**

**Suv toshqini va sellar**: infratuzilmaning sezilarli vayron bo’lishi va hasil yo’qotilishiga olib keladi.

**Chang bo’ronlari**: havo sifatini jiddiy yomonlashtirib, insonlar salomatligiga, shuningdek Kompaniya jihozlarini ishdan chiqarib, Kompaniya o’z faoliyatini yuritadigan qishloq hududlarda zarar keltirishi mumkin.

## Moliyaviy Ta’sir

↑ Shikastlangan aktivlar (jihozlar) ni almashtirish (ta’mirlash) zarurati tufayli operatsion xarajatlarning o’sishi

↑ Shikastlangan aktivlarni almashtirish tufayli ekspluatatsiya xarajatlarning o’sishi

## Xatarlarni boshqarish

- Kompaniya surunkali jismoniy xatarlarni boshqarish maqsadida elektr energiyasi iste’molini kamaytirishga qaratilgan Energiya samaradorligi rejasini ishlab chiqmoqda hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (QTM) foydalanishni kengaytirish dasturini amalga oshirmoqda. Xususan, Kompaniya umumiy quvvati 2 712 kVt bo’lgan quyosh panellari orqali elektr energiyasi iste’molini kamaytirmoqda.
- Ushbu xatarni boshqarish uchun Kompaniya bunday ta’sirlarga sezgir hududlardagi (filiallardagi) aktivlar uchun zaxiralar yaratish va qo’shimcha sug’urta mexanizmlarini joriy etishni rejalashtirmoqda. Shuningdek, Kompaniya iqlim strategiyasini ishlab chiqish va tasdiqlashni mo’ljallamoqda.
- O’zbekistonda favqulodda vaziyatlar haqida aholiga xabar berish xizmati ishlab chiqilmoqda. Kompaniya aholiga ma’lumot yetkazishda faol ishtirok etmoqda va o’z filial tarmog’i orqali favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularga qarshi chora ko’rish faoliyatini rejalashtirmoqda.

---

## Xatarlar

### O’tuvchan xatarlar

**Tartibga solish xatarlari:**

$CO_2$ chiqindilari uchun bevosita yoki bilvosita soliqlar yoki yig’imlar tufayli muayyan mahsulot va xizmatlar (energiya, transport va h.k.) narxlarining o’sishi.

**Bozor xatarlari:**

$CO_2$ ga yugoriroq narx tufayli operatsion xarajatlarning o’sishi.

**Obro’ xatarlari:**

Manfaatdor tomonlar (tahlilchilar, investorlar, mijozlar) tarafidan talablar ortishi va $CO_2$ chiqindilari kompensatsiyasiga xarajatlar oshishi.

## Moliyaviy Ta’sir

↓ Soliqlar qo’llanilgani tufayli ekspluatatsiya xarajatlarning o’sishi

↑ Ekspluatatsiya xarajatlarning o’sishi

↑ Ekspluatatsiya xarajatlarning o’sishi

## Xatarlarni boshqarish

- Iqlim o’zgarishi bilan bog’liq normativ talablarning kuchayishi xavfini inobatga olgan holda, bu holat Kompaniyaning ta’minot zanjiriga ta’sir ko’rsatishi va yetkazib berishlarni xavf ostiga qo’yishi mumkin. Kompaniya o’z yetkazib beruvchilari hamda telekommunikatsiya sektoridagi boshqa kompaniyalar bilan hamkorlik yo‘nalishlarini ishlab chiqmoqda, ular past uglerod chiqindilariga ega iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘llab-quvvatlaydi.
- Quyidagilarni tatbiq etish lozim: Energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha uzoq muddatli reja, Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish rejasi va uglerodga ichki narx bo‘yicha uslubiyotni ishlab chiqish.
- Shaffof kommunikatsiya, tashkilotning barcha miqyoslarida majburiyatlari va asosiy manfaatdor tomonlar bilan alyanslar tuzish orqali xatarlarni boshqarish rejalashtirilgan, bu ekologik majburiyatlar va qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lishga yordam beradi.

Kompaniya uchun iqlimiy xatarlar, mitigatsiya zarurati bo'yicha yanada batafsil axborot quyidagi jadvalda keltirilgan.

### KOMPANIYANING IQLIMIY XATARLARI TAHLILI

| Aspekt | Iqlimiy xatarning batafsil tavsifi | Xatarlarni boshqarish |
|---|---|---|
| **Qurg'oqchilik va suv taqchilligi** | Doimiy qurg'oqchilik suv resurslari kamayishiga va Kompaniya faoliyat yuritayotgan qishloq hududlarida sharoitlar yomonlashishiga olib keladi. | 1. Energiya iste'molini optimallashtirish |
| **Harorat ko'tarilishi** | Haroratning asta-sekin ko'tarilib borishi iqlimga, aholining umumiy salomatligiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. | 1. Liniyalarni yer ostidan o'tkazish.<br>2. Issiqlikka chidamli materiallardan foydalanish . |
| **O'rmon yong'inlari** | O'rmon yong'inlari soni ortishi ekotizimlarni buzadi, havoni yomonlashtiradi, salomatlikka, iqtisodiyotga tahdid soladi va Kompaniya uchun infratuzilma shikastlanishi, ishdagi uzilishlar, moliyaviy yo'qotishlar bilan xavf soladi. | 1. O'tga chidamli materiallardan foydalanish .<br>2. Olov tarqalishining oldini olish uchun BS atrofidagi o'simliklarni nazorat qilish. |

Alohida ravishda Kompaniya O'zbekiston iqtisodiyotining kamuglerodli rivojlanish modeliga o'tishi doirasida yuzaga keluvchi imkoniyatlarni baholashni boshladi. Moliyaviy samaralar va bunday imkoniyatlarni boshqarishga yondashuvlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

### ENERGIYA ISTE'MOLINI BOSHQARISH VA MOLIYAVIY SAMARA

| Imkoniyatlar | Moliyaviy samara | Imkoniyatlarni boshqarish |
|---|---|---|
| **Resurslardan foydalanish samaradorligi:** Energiya iste'molini boshqarishni yaxshilash hisobiga tarmoqqa va operatsiyalarga xarajatlar optimizatsiyasi | Operatsion xarajatlarning kamayishi. | Energiya samaradorligining oshishi "O'zbektelekom" AKga ushbu tarmoqda muhim raqobat afzalligini beradi, chunki tarmoqlarining samaradorligi va barqarorligini oshiradi va operatsion biznes rivojlanishining energiya iste'molidan ajratish imkonini beradi. |



### ENERGIYA ISTE'MOLINI BOSHQARISH VA MOLIYAVIY SAMARA

| Imkoniyatlar | Moliyaviy samara | Imkoniyatlarni boshqarish |
|---|---|---|
| **Mahsulotlar va xizmatlar:** Internetga ulanish va raqamlashtirish bo'yicha yechimlar iqtisodiyotning bosha tarmoqlarini ugleroddan xoli qilish uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lib, "O'zbektelekom"ga biznes uchun yangi imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi. | Tushumning ortishi Internetga ulanishga, iqtisodiyotning dekarbonizatsiyasiga xizmat qiluvchi mahsulotlar va xizmatlarga talabning ortishi bilan bog'liq. | Keng polosali ulanishga, Ashyolar Interneti, bulutli hisoblash va katta ma'lumotlarga asoslangan raqamli servislar "O'zbektelekom" AK mijzolari tomonidan resurslar iste'mol qilinishini optimallashtirishga va shu orqali ularning atrof-muhitga ta'sirini optimallashtirishga qodir. "O'zbektelekom" AKning texnologik bo'linmasi kattaroq ko'lamga ega bo'lish va yetakchi raqamli yechimlarni integratsiyalash uchun raqamli xizmatlarni rivojlantirishni rag'batlantiradi, ular "O'zbektelekom" AK B2B-mijozlariga yanada raqamlashgan va barqaror biznes-model sari ilgarilashda yordam beradi. |
| **Energiya manbalari:** Energiya tashuvchilar narxlari volatilligining ta'sirini kamaytirish va an'anaviy energiya manbalaridan farqli ravishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish evaziga elektr energiyasiga ekspluatatsiya xarajatlarini tejash. | Operatsion xarajatlarni kamaytirish. | "O'zbektelekom" AKning strategik maqsadlaridan biri — qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish va milliy rivojlanish strategiyasiga muvofiq, 2035-yilgacha Kompaniya umumiy energiya muvozanatidagi qayta tiklanuvchi elektr energiyasi iste'moli ulushini 30 % gacha yetkazilganda, 2050-yilga borib (optimistik ssenariy), 2060-yilga borib (pessimistik ssenariy) uglerod neytralligiga erishish. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish rejasi "O'zbektelekom" AK uchun elektr energiyasiga xarajatlarni sezilarli tejashga olib keluvchi barcha turdagi yechimlar (mustaqil generatsiya, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kelib chiqishi kafolati bilan sotib olish, taqsimlangan generatsiya)ni o'z ichiga olishi mumkin. |
| **Barqaror moliyalashtirish manbalari:** Yangi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish:<br>▸ kapital bozorlari va bank tomonidan moliyalashtirilishi;<br>▸ barqarorlik mezonlari inobatga olingan holda foydalaniladigan vositalar diversifikatsiyasi (obligatsiyalar, gibridlar, qarzlar). | Investorlar bazasi va tipologiyasini kengaytirish. Moliyalashtirish shartlari salohiyatli yaxshilanishi. | "O'zbektelekom" AK atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi loyihalarni moliyalashtirish uchun "yashil" obligatsiyalardan va gibrid "yashil" va barqaror vositalardan foydalanishi mumkin. Masalan, energiya samaradorligini oshirish uchun ham statsionar, ham mobil telekommunikatsiya tarmoqlarini qayta tashkil qilish va modernizatsiyalash bo'yicha loyihalar. Bundan tashqari, "O'zbektelekom" AK barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq, tashlamalarni qisqartirish bilan bog'liq korporativ maqsadlarga erishishda ilgarilashga muvaffaq bo'lish imkonini beruvchi qarz yoki kredit kabi boshqa barqaror bank moliyaviy vositalaridan foydalanishi mumkin. |

# ENERGIYA ISTE’MOLI VA ENERGIYA TEJAMKORLIK

GRI 302-1, 302-3

**ENERGIYA ISTE’MOLINI KAMAYTIRISH KOMPANIYA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARIDAN BIRI VA BARQAROR RIVOJLANISHNING MUHIM ELEMENTI HISOBLANADI. ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ELEKTR ENERGIYASIGA XARAJATLARNI SEZILARLI QISQARTIRISHGINA EMAS, BALKI, ISSIQXONA GAZLARI TASHLAMALARINI KAMAYTIRISH HISOBIGA, ATROF-MUHITGA YUKLAMANI KAMAYTIRISH IMKONINI HAM BERADI.**

Shu sababli, Kompaniya energiya resurslaridan foydalanishni optimizatsiyalashga, jihozlarni modernizatsiyalashga va ishlab chiqarish jarayonlarining energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Elektr energiyasi iste’molini qisqartirishga oid chora-tadbirlar doirasida Kompaniya tomonidan 2024-yilda quyidagi natijalarga erishildi:

### ELEKTR ENERGIYASINI QISQARTIRISHGA OID CHORA-TADBIRLAR, DONA

| № | Chora-tadbir | Reja | Amalda |
|---|---|---|---|
| 1 | Yoritkichlarga harakat datchiklarini o‘rnatish | 878 | 1 050 |
| 2 | Gaz qozonlarini modernizatsiyalash | 7 | 50 |
| 3 | Reaktiv quvvatni kompensatsiya qiluvchi avtomatlashtirilgan qurilma (RQKAQ)ni tatbiq etish | 6 | 20 |
| 4 | Qurilmalarni energiya tarmog‘idan uzish | 384 | 420 |

Energiya samaradorligini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Asosiy qadamlardan biri -signalning kamroq yo‘qotilishi, kuchaytirish va sovitishga ehtiyoj kamligi, shuningdek, mis liniyalarga solishtirganda yuqoriroq o‘tkazuvchanlik qobiliyatiga egaligi sababli energiya iste’molini sezilarli kamaytiruvchi optik tolali texnologiyalarga o‘tish bo‘ldi. “O‘zbektelekom” AK quyidagi texnologiyalarni joriy etadi:

- SPC — mobil tarmoq unumdorligini va boshqaruv samaradorligini oshirish;
- 5G SA — 5G tarmog‘i uchun mustaqil infratuzilma;
- VoLTE va VoWiFi — LTE va Wi-Fi bo‘yicha ovozli aloqa;
- IMS — VoLTE va VoWiFi uchun multimedia tizimlari.

Yangi DWDM qurilmasi XET-T tavsiyalariga muvofiq keladi, CDC, Flex Spectrum va Gridless funksiyalarini qo‘llab-quvvatlaydi, moslashuvchanlik va masshtablanishni ta’minlaydi. IP/MPLS qurilmalari ITU RFC5951 standartlari talablariga javob beradi va IPv6 ni qo‘llab-quvvatlaydi.

Kompaniyaning 2024-yildagi umumiy energiya iste’moli, tendensiyalarga qaraganda, mobil va statsionar manbalar, shuningdek, xarid qilinadigan elektr energiya uchun yoqilg‘i iste’moli o‘sishini ko‘rsatadi, bu Kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlari kengayishi va avtoparkning kengayishi hamda transport vositalaridan foydalanish intensivligi ortishi bilan bog‘liq. Shunga qaramay, 2022-2024-yy. mobaynida Kompaniyada QTEM ulushining oshishi barqaror tendensiyasi kuzatilmoqda.

- **Qayta tiklanmaydigan manbalardan yoqilg‘i iste’moli keskin qisqardi.**
  - 2023-yilga nisbatan, 2024-yilda benzin iste’moli 10,8 % ga o‘sdi (1 314 140 l. dan 1 456 404 l. gacha).
  - Tabiiy gaz iste’moli 13,4 % ga oshdi (1 624 ming m³ dan 1 842 ming m³ gacha).
  - Dizel yoqilg‘idan foydalanish 182,4 % ga ortdi (442 082 l.dan 1 248 402 l.gacha).

Tabiiy gaz va yoqilg‘i iste’molining 2024-yilda kamayishini qator omillar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, Kompaniya 2024-yil boshidan buyon ekspluatatsiya xarajatlarini optimizatsiyalash siyosatini, jumladan ortiqcha qatnovlarni qisqartirish va avtoparkning energiya samaradorligini oshirishni amalga oshirmoqda. Ikkinchidan, “Telecom Car” raqamli yechimining tatbiq etilishi xizmat transportidan foydalanish ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish, ruxsat berilmagan qatnovlarni aniqlash va oldini olish imkonini berdi, bu iste’mol qilinadigan yoqilg‘i hajmini kamaytirishga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

- **Qayta tiklanadigan manbalardan olinadigan energiya ulushi oshmoqda**: 2024-yilda QTEMdan iste’mol qilingan energiya hajmi 5 951 ming kVt*s. ni tashkil qildi, bu 2023-yildagidan (4 573 ming kVt*s) 30,1 % va 2022-yildagidan (3 409 ming kVt*s) qariyb 1,75 barobar ko‘pdir. 2024-yilda qayta tiklanuvchi manbalardan energiya ishlab chiqarish hajmining o‘sishi qo‘shimcha raivshda yalpi quvvati 1128 kVt bo‘lgan quyosh elektr stansiyalari o‘rnatilishi bilan bog‘liq.
- **Elektr energiyasi xaridi oshmoqda**. 2024-yilda tashkilot 218 632 ming kVt elektr energiyasi xarid qildi, bu 2023-yildagidan (173 737 ming kVt) 25,8 % ga va 2022-yildagidan (165 537 ming kVt) 32,1 % ga ko‘pdir.

GRI 302-1

### TASHKILOT ICHIDA ENERGIYA ISTE’MOLI, GJ

| Ko‘rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 | O‘zgarish 2023-2024-yy., % |
|---|---|---|---|---|
| YER umumiy iste’moli: | 45 257 | 153 532 | 340 423 | 122% |
| Statsionar yoqish: | 45 257 | 39 323 | 170 507 | 334% |
| Tabiiy gaz | 45 257 | 39 323 | 170 507 | 334% |
| Mobil yoqish: | 169 194 | 114 629 | 169 917 | 49% |
| Benzin | 50 188 | 43 808 | 48 550 | 11% |
| Dizel yoqilg‘i | 39 933 | 16 158 | 45 629 | 182% |
| Tabiiy gaz | 67 733 | 54 243 | 61 533 | 13% |
| Propan | 11 341 | 421 | 14 204 | 3 278% |
| **Xarid qilinadigan issiqlik va elektr energiyasi iste’moli** | | | | |
| Elektr energiyasi | 595 933 | 625 457 | 787 076 | 25,8% |
| Issiqlik energiyasi | 21 892 | 15 121 | 18 634 | 23,2% |
| **Qayta tiklanuvchi manbalardan energiya iste’moli** | | | | |
| QTEMdan elektr energiyasi | 12 272 | 16 463 | 21 424 | 30,1% |

### TASHKILOT ICHIDA ENERGIYA ISTE’MOLI, GJ

| Ko‘rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 | O‘zgarish 2023-2024-yy., % |
|---|---|---|---|---|
| Umumiy energiya iste’moli (yoqilg‘i + xarid qilingan energiya) | 844 549 | 810 993 | 1 167 557 | 44,0% |

Mobil va statsionar manbalar bo‘yicha yoqilg‘i iste’molining 2022-2024-yy. mobaynidagi dinamikasi o‘zaro farqlanadi: statsionar yoqish uchun tabiiy gaz iste’moli hajmi va transport uchun dizel yoqilg‘isi iste’moli 2024-yilda 2023-yildagiga nisbatan sezilarli o‘sdi (tegishlicha, 334 % va 182 % ga). 2022-2024-yillarda tashkilotning energiya iste’moli dinamikasi shu bilan izohlanadi. Foydalanilayotgan energiya resurslarining to‘liq hisobi tashkilotda faqat 2024-yildan buyon yuritiladi va to‘liq boshlang‘ich axborotga ega bo‘lish hamda energiya resurslari iste’molini qisqartirish uchun bazaviy liniyani belgilash va kelgusida tashkilotni dekarbonizatsiyalash dasturini ishlab chiqish uchun issiqxona gazlari Scope 1 va 2 tashlamalarining to‘liq hisobini yuritish uchun, energiya resurslari iste’moli hisobini yanada takomillashtirish rejalashtirilgan.

### 2024-YILDA “O‘ZBEKTELEKOM” AK TOMONIDAN QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OBYEKTLARINI O‘RNATISH VA ISHGA TUSHIRISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR HAQIDA AXBOROT (QUYOSH BATAREYALARI, KVT)




## ENERGIYA RESURSLARIGA MOLIYAVIY XARAJATLAR

Kompaniya 2024-yildan buyon transport vositalaridan yanada ekologik toza foydalanish va IG tashlamalarini qisqartirishga moyillik yo‘lida yoqilg‘i-energiya tizimlari iste’moliga xarajatlarni optimizatsiyalashni o‘tkazmoqda. Shuningdek, Kompaniya ruxsat berilmagan qatnovlarni bartaraf etib, xizmat avtomobillari yurishini nazorat qiluvchi “Telecom car” ilovasini ishga tushirdi.

2024-yilda elektr energiyasiga xarajatlarning 101,9 % ga o‘sishi kuzatildi, bu tariflar va iste’mol hajmi oshishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Shu bilan birga, dizel yoqilg‘isiga xarajatlar 22,9 % ga qisqardi, bu isitish tizimlari optimizatsiyasi va binolarning energiya samaradorligi oshishi bilan izohlanadi.

### ENERGIYAGA XARAJATLAR, MLN SO‘M QQS BILAN

| Yoqilg‘i turi | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|
| Elektr energiyasi | 64 775 | 87 028 | 175 687 |
| Issiqlik energiyasi | 729 | 576 | 995 |
| Dizel yoqilg‘isi | 9 650 | 15 322 | 11 814 |
| Benzin | 9 890 | 12 230 | 11 831 |
| Tabiiy gaz | 778 | 938 | 2 017 |
| Avtotransport uchun gaz | 3 719 | 4 795 | 5 302 |
| Jami: | 85 822 | 116 094 | 207 646 |

### GRI 302-3

### ENERGIYA SIG‘IMINING TUSHUMGA NISBATI [6]

| Ko‘rsatkich | O‘lchov birligi | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|
| Umumiy energiya iste’moli | GJ | 844 549 | 810 993 | 1 167 557 |
| Solishtirma energiya iste’moli | GJ/mlrd so‘m | 136 | 107 | 134 |
| Tushum | mlrd so‘m | 6 220 | 7 548 | 8 712 |

### TC-TL-130A.1

2024-yilda Kompaniya tomonidan iste’mol qilingan elektr energiyasining umumiy miqdori 1 167 557 GJ, ulardan 16 062 GJ qayta tiklanuvchi manbalardan olingan energiyaga to‘g‘ri keladi. Shu tariqa, umumiy iste’mol hajmidagi qayta tiklanuvchi energiya manbayining ulushi 1,83 % (21 424,3 GJ)ni tashkil qildi. 2024-yilda tashqi manbalardan xarid qilingan elektr energiyasi iste’moli 787 076 GJni tashkil qilgan, ya’ni 2024-yilda Kompaniya energiya iste’moli umumiy tuzilmasida xarid qilinadigan elektr energiyasining ulushi 67,5 % ni tashkil qildi va energiya iste’molining asosiy qismini tashkil qiladi (statsionar va mobil manbalar uchun yoqilg‘i iste’moliga qiyosan). 2024-yilda “O‘zbektelekom” AK tomonidan iste’mol qilingan elektr energiyasi (xarid qilingan elektr energiyasi + QTEMdan elektr energiyasi) 808 500 GJni tashkil qildi, ularda QTEM ulushi 2,65 % bo‘ldi.

[6] Ma’lumotlar dastlabki jamlanma moliyaviy hisobot asosida taqdim etildi. Kompaniya yakuniy hisob ko‘rsatkichlariga 31.08.2025-y.gacha aniqlik kiritish huquqiga ega.

110 Boshqaruvga yondashuv
112 Ish joyidagi xavfsizlik
115 Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha o‘qitish

# 6. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA ISH JOYIDAGI XAVFSIZLIK



# BOSHQARUVGA YONDASHUV

GRI 403-1, 403-2, 403-3, 403-5, 403-8, 403-9, 403-10

**TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOG‘I MURAKKAB JIHOZLAR EKSPLUATATSIYASI, BALANDLIKDAGI VA ELEKTR MONTAJI ISHLARI, ELEKTROMAGNIT MAYDONLAR TA’SIRI, SHUNINGDEK, KUN-U TUN UZLUKSIZ ALOQANI TA’MINLASH ZARURATI BILAN BOG‘LIQ BIR QATOR O‘ZIGA XOS XATARLARGA EGA. BU OMILLAR MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI MASALALARIGA, JUMLADAN XODIMLAR UCHUN SALOHIYATLI TAHDIDLARNI KAMAYTIRISH BORASIDAGI KOMPLEKS CHORA-TADBIRLARNI ISHLAB CHIQISH VA TATBIQ ETISHGA ALOHIDA E’TIBORNI TAQOZO QILADI.**

Telekommunikatsiya infratuzilmasidagi xavfli obyektlarda xavfsizlik texnikasi talablariga rioya etish ustidan ishlab chiqarish nazorati xavfsizlikni boshqarish tizimining eng muhim elementi hisoblanadi. U doimiy monitoring, xavfsizlik talablariga nomuvofiqlikni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, profilaktika tadbirlarini tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Ushbu tizim doirasida qonunchilik, normativ aktlar va idoraviy reglamentlar talablarining ijrosi ta’minlanadi.

Hozirda Kompaniya ijroiya apparatida Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi xizmati (MMvaXT) tashkil etilgan va barcha filiallarda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yetakchi muhandislar ishlamoqda. Kompaniyaning mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining normativ bazasi sifatida ham ichki normativ hujjatlar va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ham umume’tirof etilgan xalqaro standartlar qabul qilingan.

**Asosiy ichki normativ hujjatlar quyidagilardir:**

- Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizom”.
- Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263-son qarori bilan tasdiqlangan
- “Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”.
- Kompaniyaning 2023-yil 14-noyabrdagi 324-son buyrug‘i bilan amalga kirilgan “O‘zbektelekom” AKda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish to‘g‘risidagi nizom”.

Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik va yong‘inga qarshi xavfsizlikni ta’minlashga rioya etish bo‘yicha har yili ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejalari. “O‘zbektelekom” AKda 2024-yil uchun Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga doir chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish doirasida mehnatning xavfsiz shart-sharoitlarini ta’minlash va ishlab chiqarish xatarlarini pasaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

**ASOSIY YO‘NALISHLAR QUYIDAGILARDAN IBORAT:**

- Filiallarda va ishlab chiqarish bo‘linmalarida (zaruratga ko‘ra) mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha ixtisoslashgan xonalar va burchaklarni tashkil qilish;
- Mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etish ustidan uch bosqichli tezkor nazorat o‘tkazish;
- Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va yong‘in xavfsizligi masalalari yuzasidan filiallar rahbarlari va mutaxasislarining attestatsiyasini o‘tkazish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq xodimlarni baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan sug‘urtalash;
- Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga doir yo‘riqnomalarni ish joylarida joylashtirish va yangilash;
- Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar va bilimlarni tekshirishni, jumladan filiallar va markaziy apparat xodimlari uchun majburiy test o‘tkazish;
- Muntazam tibbiy ko‘rik, shuningdek, xodimlarni maxsus oziqlanish, maxsus kiyim va individual himoya vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;
- Ishlab chiqarish binolarida va aloqa obyektlarida elektr himoyasi va yerlashtirish holatini tekshirish, jumladan dielektrik vositalarning laboratoriya sinovlarini tashkil etish;
- Kabel, balandlikdagi va boshqa xavfli ishlarni bajarishdagi xavfsizlik nazorati, naryad-ruxsatnomalar mavjudligi va maxsus jurnallarda ro‘yxatga olish;
- Kabel liniyalarini atmosfera ta’siri va elektr toki ta’siridan himoyalash chora-tadbirlarini tashkil qilish;
- Xodimlarning, jumladan dispetcherlik va texnik xizmatlarda, malakasini oshirish va qayta attestatsiyadan o‘tkazish.

# ISH JOYIDAGI XAVFSIZLIK

**XODIMLAR SALOMATLIGI UCHUN XATAR SOLUVCHI OMILLARNI ANIQLASH ISH JOYIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMLARIDAN BIRI BO‘LIB, ISH JOYLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH ORQALI AMALGA OSHIRILADI. BU TAOMIL MEHNATNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA AKKREDITATSIYALANGAN MUSTAQIL KOMPANIYA TOMONIDAN, KASABA UYUSHMASI VA PERSONAL BILAN ISHLASH DEPARTAMENTI VAKILLARI ISHTIROKIDA O‘TKAZILADI. ATTESTATSIYA NATIJALARI BO‘YICHA EKSPERT XULOSASI SHAKLLANTIRILADI, U O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANDLIK VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARITIRSH VAZIRLIGIGA YUBORILADI.**

Olingan ma’lumotlar Kompaniyaning barcha filiallarida barcha maqomlar uchun lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Ularda professional xatarlar darajalari, ehtiyotkorlik choralari, shuningdek, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, munosabat bildirish algoritmlari aniq yozib qo‘yilgan.

Kompaniyada “Baxtsiz hodisalarning tekshiruvini o‘tkazishga talablar” standarti amal qiladi, unga ko‘ra, filiallarda tegishli chora-tadbirlar o‘tkaziladi. 2024-yilda baxtsiz hodisalar ro‘y berishi tezligi va og‘irligi hamda umumiy jarohatlanish ko‘rsatkichlari yuzasidan quyidagilar qayd etildi:

**“O‘ZBEKTELEKOM” AK VA FILIALLARDA JAROHATLANISH KO‘RSATKICHLARI, KISHI**

**GRI 403-9**

| Ko‘rsatkichlar | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|
| Baxtsiz hodisalarning umumiy soni | 4 | 6 | 5 |
| Baxtsiz hodisalar chastotasi koeffitsiyenti | 0.15 | 0.24 | 0.19 |
| FIFR | 0.04 | 0.16 | 0.04 |
| LTIFR | 0.11 | 0.08 | 0.15 |
| Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, jumladan: | 4 | 4 | 4 |
| - vaqtinchalik ishlash qobiliyatini yo‘qotish bilan | 3 | 2 | 4 |
| - o‘lim holatlari | 1 | 2 | 0 |
| Pudratchilarda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, jumladan: | 0 | 2 | 1 |
| - vaqtinchalik ishlash qobiliyatini yo‘qotish bilan | 0 | 0 | 0 |
| - o‘lim holatlari | 0 | 2 | 1 |

**GRI 403-2**

Kompaniyada xavflar identifikatsiyasi va kasbiy xatarlar darajasini belgilash xalqaro va mahalliy standartlarga muvofiq, mustaqil tashqi kompaniyalar (ekspert)larni jalb etgan holda amalga oshiriladi, shuningdek, muntazam tahlil, monitoring, tegishli xatarlarni hujjatlash va jarayonning tashqi auditi ham o‘tkaziladi.

Hisobot davrida xodimlar salomatligiga tahdid soluvchi asosiy ishlab chiqarish xatarlari quyidagilar bo‘ldi: tarmoqda ishlashda elektr toki ta’siri, konstruksiya qulashi natijasida jarohatlar, shuningdek, narvonlar va aloqa tayanchlaridan yiqilish. Ishlab chiqarish travmatizmining to‘rtta holati, jumladan xodimning aloqa tayanchidan yiqilishi bilan bog‘liq bitta o‘lim holati qayd etildi.

2024-yilda telekom-sektoridagi kompaniyalar uchun eng xarakterli baxtsiz holatlar toifalari bo‘yicha quyidagi baxtsiz hodisalar qayd etildi:

**KOMPANIYADA HISOBOT DAVRIDAGI BAXTSIZ HODISALARNING ASOSIY TOIFALARI, KISHI**

| Toifalar | 2024 |
|---|---|
| Balandlikdan yiqilish (tayanchlarda, machtalarda, tomlarda ishlaganda) | 3 |
| Elektr toki urishi, jumladan:<br>- liniyalarni ulashda tok urishi<br>- jihozni noto‘g‘ri ulaganda qisqa tutashuv<br>- yerlashtirishning mavjud emasligi | 1 |
| Yo‘l-transport hodisasi | 1 |
| Binoda zararli omillar ta’siri, jumladan:<br>- issiqlik urishi yoki havo yaxshi aylanmaydigan binolarda nafas bo‘g‘ilishi<br>- boshqalar | 0 |

2024-yilda “O‘zbektelekom” AKda shtatdagi ishchilar bilan to‘rtta baxtsiz hodisa va pudratchi tashkilot ishchisi bilan bitta baxtsiz hodisa ro‘y berdi. Turar joy tomi qulab tushishi natijasida va yo‘l-transport hodisasi oqibatida ikkita xodim yengil jarohat oldi, bir xodim aloqa simyog‘ochiga urilishi natijasida og‘ir jarohat oldi, yana biri narvondan tushayotganda, yiqilishi natijasida o‘rtacha og‘irlikda jarohatlandi.

Keltirilgan barcha holatlar Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan belgilangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq tekshirildi, shuningdek, belgilangan tartibda pul mablag‘lari to‘landi va N-1 shaklida dalolatnomalar rasmiylashtirildi.

Bunday hodisalarning oldini olish maqsadida Kompaniya xodimlarga tarmoq obyektlarida ishlar bajarishning xavfsiz usullarini o‘rgatish bo‘yicha choralarni amalga oshiradi, xodimlarni individual himoya vositalari bilan ta’minlaydi va ishlar bajarilishida mehnat muhofazasi talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytiradi. Shuningdek, Kompaniya aloqa kabel liniyalari ishchilarining murakkab sharoitlarda ishlash layoqatini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus oziq-ovqat bilan ta’minlaydi.

GRI 403-10

Kompaniyaning ayrim toifadagi xodimlari kasb kasalliklariga chalinishi mumkin, bu ko‘proq kabelchilarning qo‘rg‘oshinli kabel bilan ishlashlari, shuningdek, xodimlarning dizel-generator qurilmalarida ishlashlari bilan bog‘liq, ushbu holat ish joylarini attestatsiyadan o‘tkazish natijasida aniqlangan. Bunda, hisobot davrida soha tibbiyot muassasalarida yoki ish beruvchining tibbiy komissiyasi tomonidan tegishli hujjatlarda qayd etilgan kasb kasalliklari kuzatilmadi. Kasb kasalliklari xatarini minimallashtirish maqsadida Kompaniya tomonidan dizel-generator qurilmalari uchun maxsus ekranlar o‘rnatilishini amalga oshirmoqda.

**0**
**holat**
**ish bilan bog‘liq kasbiy kasalliklar bo‘yicha tegishli hujjatlar ish beruvchi tibbiy muassasalari yoki tibbiy komissiyalari tomonidan rasmiy qayd etilgan holatlar**

**2024-YIL HOLATIGA KOMPANIYANING 96 % XODIMI MMVAXT TIZIMI BILAN QAMRAB OLINGAN. ULARDAN 64 KISHI ICHKI VA MUSTAQIL AUDITDAN O‘TGAN TIZIM DOIRASIDA ISHLAYDI.**

### MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA ISH JOYIDA XAVFSIZLIK MASALALARINI BOSHQARISH TIZIMI BILAN QAMRAB OLINGAN ISHCHI-XODIMLAR

GRI 403-8

| Ko‘rsatkichlar, kishi | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | Umumiy xodimlar sonidan % |
|---|---|---|---|---|---|
| Kompaniyada mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimi bilan qamrab olinganlar soni. | 14 500 | 14 098 | 14 467 | 14 670 | 87% |
| Ichki audit taomilidan o‘tgan Kompaniyada mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimi bilan qamrab olinganlar soni. | 68 | 68 | 68 | 64 | 0.4% |
| Mustaqil audit/uchinchi tomon sertifikatlashtirishidan o‘tgan Kompaniyada mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi menejment tizimi bilan qamrab olinganlar soni. | 68 | 68 | 68 | 64 | 0.4% |

# MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK MASALALARI BO‘YICHA O‘QITISH

GRI 403-5

Yo‘l-yo‘riqlar va o‘qitish tizimi xodimlar kasbiy faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oladi, ularni mehnat majburiyatlarini xavfsiz va samarali bajarish uchun kerakli bilimlar bilan ta’minlaydi. O‘qitish ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o‘quv markazlari bazasida ham, Kompaniyaning o‘z resurslari bilan “O‘zbektelekom” AK “Telekommunikatsiyalar va personalni rivojlantirish markazi” filialida ham o‘tkaziladi, bu ilg‘or xalqaro tajribani ichki standartlar va amaliyotlar bilan uyg‘unlash imkonini beradi. **O‘qitish tizimi doirasida quyidagi turdagi yo‘l-yo‘riqlar o‘tkaziladi:**

- **Dastlabki yo‘l-yo‘riq** — ishga qabul qilishda o‘tkaziladi va xodimlarni mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikning asosiy talablari bilan tanishtiradi.
- **Birlamchi yo‘l-yo‘riq** — lavozim majburiyatlari bajarilishidan oldin ish joyida amalga oshiriladi.
- **Davriy yo‘l-yo‘riq** — muntazam ravishda xodimlar bilimini mustahkamlash va yangilash uchun o‘tkaziladi.
- **Rejadan tashqari yo‘l-yo‘riq** — texnologik jarayonlar o‘zgarganda, avariya vaziyatlari yuzaga kelganda yoki xavfsizlik qoidalari buzilishi aniqlanganda tayinlanadi.

Ishga kirishda xodimga ikki haftalik MMvaXT talablari bo‘yicha o‘quv kursi taqdim etiladi, u yakunlangandan so‘ng, imtihon o‘tkaziladi. Test muvaffaqiyatli topshirilganda, bir yillik individual o‘quv rejasi ishlab chiqiladi. Ushbu davr tugagandan so‘ng, xodim yana yakuniy attestatsiyadan o‘tadi, bu uning tayyorgarligi darajasini tizimli baholash va ishlab chiqarish jarayonlarining xavfsizligini oshirish imkonini beradi.

Tasdiqlangan jadvalga muvofiq, 2024-yil 22-oktabrda “O‘zbektelekom” AK ijroiya apparatining xodimlari mehnat muhofazasi yuzasidan attestatsiyadan o‘tdilar. Imtihonda 8 nafar xodim, jumladan Dispetcherlik xizmati va Ekspluatatsiya boshqarmasi vakillari — boshliqlar, katta dispetcherlar, omborchi va haydovchi qatnashdilar.

O‘tkazilgan yo‘l-yo‘riqlar to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar xavfsizlik texnikasi jurnalida qayd etiladi va nazoratni hamda mehnatni muhofaza qilish standartlariga rioya qilinishini ta’minlaydi.

### MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA ISH JOYIDAGI XAVFSIZLIK MASALALARI BO‘YICHA KASBIY TAYYORGARLIK

| Ko‘rsatkichlar | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|
| Bir xodimga to‘g‘ri keladigan MMvaXT bo‘yicha o‘rtacha o‘quv soatlari (o‘z xodimlari) | 16 | 16 | 16 | 16 |
| Mehnatni muhofaza qilish va ish joyidagi xavfsizlik masalalari bo‘yicha o‘qitilgan xodimlar soni (o‘z xodimlari) | 14 500 | 14 098 | 14 467 | 12 400 |

Kompaniya tomonidan 2024-yilda 12 400 nafar xodim o‘qitildi, bu avvalgi yildagi ko‘rsatkichdan 14 % ga kam. Bunda, bir xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha o‘quv soatlari soni o‘zgarishsiz qoldi — 16 soat.

118 Boshqaruvga yondashuv
120 Bandlik
125 Personalni rivojlantirish va o‘qitish
127 Xodimlarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash va hayot sifatini yaxshilash bo’yicha loyihalar
132 Turfa xillik va inklyuzivlik
134 Axborot xavfsizligi
136 Faoliyat yuritilayotgan hududlarda qo‘llab-quvvatlash va hayot sifatini oshirish loyihalari

# 7. IJTIMOIY MAS’ULIYAT VA JAMIYAT OLDIDAGI MAJBURIYATLAR



# BOSHQARUVGA YONDASHUV

GRI 3-3, 2-23, 2-24, 2-30

**"O'ZBEKTELEKOM" AK O'ZBEKISTON AHOLISIGA KENG RAQAMLI IMKONIYATLARNI TAQDIM ETIB, TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORIDA YETAKCHI MAQOMNI EGALLAB KELADI. KOMPANIYA MISSIYASI — KUNDALIK HAYOTNI YAXSHILASHGA VA BIZNES SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILUVCHI SIFATLI VA QULAY RAQAMLI SERVISLAR BILAN TA'MINLAB, SHUNING BAROBARIDA RAQAMLI MAHSULOTLAR VA YECHIMLAR EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISHDIR.**

Kompaniya personalini boshqarish yuksak ijtimoiy va axloqiy standartlarga rioya etishga yo'naltirilgan. Asosiy maqsad — ish joylarini xavfsiz va jozibali qilish. Eng muhim ta'sir sohalariga xodimlar salomatligi va xavfsizligi, personalni o'qitish va rivojlantirish, korporativ madaniyat, inson huquqlari, shuningdek, tenglik va inklyuzivlik kiradi.

"O'zbektelekom" AK mehnat resurslari, mehnatni muhofaza qilish sohsidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, shuningdek, ichki normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan quyidagilarga muvofiq kadrlarni boshqarish tizimini barpo etadi:

- Yagona jamoa shartnomasi;
- Kadrlar siyosati;
- O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni;
- Ishbilarmonlik etikasi qoidalari;
- Ish haqi to'g'risidagi nizom;
- Ichki mehnat tartibi qoidalari;
- Personalni boshqarish va o'qitishni tashkil qilish taomili.

Kadrlar siyosatini amalga oshirishda Kompaniya ijtimoiy mas'uliyat, personalni boshqarish tizimining shaffofligi, mijozga yo'nalganlik, individual javobgarlik, Kompaniya va xodimlar manfaatlari va maqsadlarining hamohangligi, shuningdek, personalning samaradorligini baholash tamoyillariga asoslanadi. Yagona jamoa shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi Qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining, O'zbekiston Ish beruvchilar konfederatsiyasining qarorlari, Axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiyalar xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi va O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi o'rtasida qabul qilingan Bosh jamoaviy kelishuv va boshqa normativ-huquqiy aktlar asosida tuzilgan.

Kompaniya, ilg'or mahalliy va xorijiy yutuqlarni inobatga olgan holda, zamonaviy boshqaruv va IT-texnologiyalarni rivojlantiradi va tatbiq etadi hamda bu bilimlarni personalni boshqarish tizimining quyidagi jarayonlarida qo'llaydi:

- Personalni rejalashtirish, saralash va joy-joyiga qo'yish;
- Kadrlar ish yurituvi;
- Personal samaradorligi va faoliyatini baholash;
- Personalni motivatsiyalash;
- Bilimlarni boshqarish;
- Korporativ madaniyat.

**2024-yilda bu boradagi ishlarning asosiy yo'nalishlari:**

- Ekologik va ijtimoiy menejment tizimini ishlab chiqish, uning doirasida quyidagi normativ hujjatlar ishlab chiqildi:
  - Ijtimoiy moliyalashtirish sohasidagi siyosat;
  - Inson huquqlariga rioya qilish siyosati.
- Ta'lim muassasalari va bandlik xizmatlari bilan bevosita kontaktlar o'rnatilishi;
- Kompaniyada nomenklaturaviy lavozimlarni egallagan xodimlar attestatsiyasini tashkil etish, ularni attestatsiya tartibi bilan tanishtirish, natijalar tahlilida qatnashish va attestatsiya komissiyasi qarorlarini bajarish;
- Xodimlarni ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlashda belgilangan me'yorlarga rioya etilishi, ishdan bo'shatilgan xodimlarning qayta ishga joylashuvini tashkil etish va ularga qonunchilikka muvofiq imtiyozlar hamda kompensatsiyalar taqdim etish ustidan nazorat;
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun stajirovkalar va diplomoldi amaliyotlarini tashkil etish;
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining sirtqi va kechki ta'lim shakliga o'qishga kiradiganlar uchun suhbatlar o'tkazish;
- Maqsadli dasturlar asosida o'qiyotgan talabalar masalalari bo'yicha M.A.Bonch-Bruyevich nomidagi Sankt-Peterburg davlat telekommunikatsiyalar universiteti bilan o'zaro hamkorlik.

GRI 2-30

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ish beruvchi va ishchilar o'rtasida jamoaviy shartnomaning tuzilishi majburiy talab sanalmaydi, balki ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bu O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (2023-yid 30-apreldagi tahrir)ning 468-moddasida bevosita belgilab qo'yilgan.

Shuni inobatga olgan holda, Kompaniyada xodimlarni jamoaviy shartnoma bilan qamrab olish mehnat jamoasi va/yoki kasaba uyushmasi tashkiloti tomonidan tashabbus mavjudligiga qarab, shakllanadi. Qator filiallar va tarkibiy bo'linmalarda jamoaviy shartnomalar bunday tashabbus mavjud emasligi tufayli tuzilmadi va bu jamoaviy kelishuvlar bilan qamrab olingan xodimlar ulushiga ta'sir ko'rsatadi.

Jamoaviy shartnoma bilan qamrab olingan xodimlar ulushi 2024-yilda 91 % ni tashkil qiladi (2021-2023-yillarda — 100%).

Oldingi hisobot davri bilan solishtirganda, jamoaviy shartnomalar bilan qamrab olingan xodimlar ulushi tarkibiy birliklar qayta taqsimlangani, shuningdek, ayrim kelishuvlarning amal qilish muddati tugab, qayta uzaytirilmaganligi tufayli o'zgardi.

Bunda, Kompaniya ijtimoiy muloqot tamoyillariga moyilligini saqlab qoladi va xodimlar tomonidan tegishlicha so'rov bo'lganda, jamoaviy shartnomalar tuzishga ochiqdir.

# BANDLIK

GRI 2-7

**HISOBOT YILI OXIRIGA KOMPANIYADA 14 TA HUDUDDA 16 825 NAFAR XODIM ISHLAGAN (XOTIN-QIZLAR ULUSHI — 25 %, ERKAKLAR ULUSHI — 75 %). “O‘ZBEKTELEKOM” AK XODIMLARI SONI 2023-YILDAGIGA NISBATAN TAXMINAN 4 % GA QISQARDI.**

**2021-2024-YY. OXIRIGA RO‘YXATDAGI PERSONALNING SONI, KISHI**




**JINSIGA KO‘RA RO‘YXATDAGI PERSONALNING SONI, KISHI**




Samaradorlik va moslashuvchanlikni oshirish uchun Kompaniyada transformatsiya o‘tkazildi. Kompaniyaning strategik maqsadlariga erishish uchun tuzilma va lavozimlar o‘zgartirildi. Shtat transformatsiyasi sinchkovlik bilan tayyorlanib va rejalashtirilib, keyin amalga oshirildi. Transformatsiyani Kompaniyaning strategik maqsadlari taqozo qildi. Unda, jumladan, xodimlar manfaatlari va huquqlari hisobga olindi.

2024-yilda Kompaniyada erkaklar va xotin-qizlar nisbatida barqarorlik saqlandi, bunda, jamoada xotin-qizlar ulushi o‘rtacha 25 % ni tashkil qildi. Ko‘rsatkich barqaror gender tuzilmasini aks ettirib, barqaror darajada saqlanib qolmoqda.

Kompaniya mamlakatning 14 ta asosiy hududlarida, telekommunikatsiya sohasida faoliyat yuritadi. Xodimlarning eng ko‘p soni Toshkent shahrida jamlangan, bu yerda personal soni 6 678 kishini tashkil etgan Kompaniya bosh ofisi joylashgan.

**16 825**
**odam**
**2024 yil yakunida «O‘zbektelekom» AK xodimlarining ro‘yxatdagi son ko‘rsatkichi**

**25%**
**2024 yilda Kompaniya jamoasidagi ayollar ulushi**

**FILIALLAR VA HUDUDLAR BO‘YICHA RO‘YXATDAGI PERSONALNING SONI, KISHI**



2024-yilda Toshkent filialida bir nafar ishchi qisman bandlik shartlarida ishga olingan.

**2021-2024-YILLARDA XODIMLARNING BANDLIK TURIGA KO'RA NISBATI, KISHI**

| Bandlik turi | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | Chetlanish, % |
|---|---|---|---|---|---|
| To'liq | 17 307 | 17 747 | 17 458 | 16 824 | -0.04 |
| Qisman | 0 | 0 | 0 | 1 | 0 |

"O'zbektelekom" AK barcha ishchi-xodimlari muddatsiz asosda mehnat shartnomasini tuzish orqali ishga qabul qilinadilar.

**2021-2024-YY.DA SHARTNOMA TURIGA KO'RA XODIMLARNING NISBATI, %**

| Shartnoma turi | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | Chetlanish, % |
|---|---|---|---|---|---|
| Muddatsiz | 17 307 | 17 747 | 17 458 | 16 825 | -0.04 |
| Muddatli | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |

## KADRLARNI SARALASH

"O'zbektelekom" AKda kadrlarni saralash Kompaniyaning kadrlar siyosati va reglamentlangan tanlov-saralash taomillariga muvofiq amalga oshiriladi. Kompaniya korporativ qadriyatlarni qabul qiladigan va zaruriy kasbiy hamda shaxsiy xususiyatlarga ega mutaxassislarni jalb qilishga intiladi. Personalni saralash va yollash jarayoni shaffoflik, xolislik va har qanday belgilarga ko'ra kamsitishga yo'l qo'ymaslikka asoslangan.

Nomzodlarni baholashning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- professional tayyorgarlik va salohiyatning yuqori darajada bo'lishi;
- kerakli ko'nikma va amaliy ish tajribasiga ega bo'lishi;
- ta'lim muassasalari yoki avvalgi ish joylaridan ijobiy tavsiyalar mavjudligi;
- tashabbuskorlik va natijaga erishishga intilish;
- biznes-jarayonlarni yaxshilashni taklif qilish layoqati;
- yuqori darajada mas'uliyatlilik va kasbiy rivojlanishga intilish.

Personalni saralash jarayoni bir necha bosqichdan iborat:

1. Bo'sh lavozimni egallash uchun tanlov to'g'risida e'lon chop etish.
2. Nomzodlar hujjatlarini qabul qilish va tekshirish (to'liqligi, haqqoniyligi va malaka talablariga muvofiqligi).
3. Nomzodlar salohiyatini baholash uchun test, suhbat va (yoki) amaliy sinovlar o'tkazish.
4. Tanlov-saralash natijalarini e'lon qilish.

**2024-YILDA KOMPANIYAGA 987 KISHI ISHGA OLINDI, SHULARDAN 785 NAFARI ERKAKLAR VA 202 NAFARI — XOTIN-QIZLAR.**



**ISHGA QABUL QILINGAN ISHCHI-XODIMLAR — JINSI, YOSHI VA HUDUDI KESIMIDA, KISHI**

**GRI 401-1**

| Ko'rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 | Chetlanish, % |
|---|---|---|---|---|
| **Ishga qabul qilinganlar, jinsiga ko'ra** | | | | |
| Erkaklar | 1 864 | 994 | 785 | -0,2 |
| Xotin-qizlar | 82 | 63 | 202 | 2,2 |
| **Ishga qabul qilinganlar, yoshiga ko'ra** | | | | |
| 30 yoshgacha | 859 | 750 | 501 | -0,3 |
| 30-50 | 1034 | 259 | 486 | 0,9 |
| 50 yoshdan yuqori | 53 | 48 | 0 | -1 |
| **Ishga qabul qilinganlar, hududiga ko'ra** | | | | |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 70 | 12 | 7 | -0,4 |
| Andijon viloyati | 101 | 14 | 1 | -0,9 |
| Buxoro viloyati | 110 | 44 | 19 | -0,6 |
| Jizzax viloyati | 31 | 15 | 12 | -0,2 |
| Qashqadaryo viloyati | 91 | 44 | 19 | -0,6 |
| Navoiy viloyati | 94 | 30 | 13 | -0,6 |
| Samarqand viloyati | 158 | 72 | 11 | -0,8 |
| Namangan viloyati | 82 | 16 | 8 | -0,5 |
| Surxondaryo viloyati | 89 | 57 | 34 | -0,4 |
| Sirdaryo viloyati | 54 | 15 | 9 | -0,4 |
| Toshkent shahri | 812 | 536 | 830 | 0,5 |
| Toshkent viloyati | 121 | 139 | 15 | -0,9 |
| Farg'ona viloyati | 67 | 42 | 4 | -0,9 |
| Xorazm viloyati | 66 | 21 | 5 | -0,8 |
| Jami | 1 946 | 1 057 | 987 | -0,1 |

**GRI 402-1**

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga muvofiq, Kompaniya tashkiliy yoki texnologik omillar taqozo qilgan, rejalashtirilayotgan o'zgarishlar va ular joriy etilayotgani sabablari haqida kamida ikki oy oldin xodimlarni xabardor qilishi lozim.

Hisobot yilida kadrlar qo'nimsizligi ko'rsatkichi 9% ni tashkil qildi, bu o'tgan yildagi ko'rsatkichdan 0,6 % ga yuqoridir. Ushbu ko'payish rejali xarakterga ega bo'ldi hamda lavozim majburiyatlarining optimizatsiyasi va tashkiliy tuzilmaning transformatsiyasini amalga oshirish, jumladan Koll-markazni mustaqil tashkilot sifatida ajratish bilan bog'liq bo'ldi. Bu o'zgarishlar biznes-jarayonlar samaradorligini oshirishga qaratildi, bunda, Kompaniya asosiy funksiyalar barqarorligini va zaruriy salohiyat darajasini saqlab qoldi.

### KADRLAR QO'NIMSIZLIGI, %

| Ko'rsatkich | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | Chetlanish,% |
|---|---|---|---|---|---|
| Umumiy kadrlar qo'nimsizligi, % | 9 | 11 | 6 | 9 | 0.6 |

### BEKOR QILINGAN SHARTNOMALAR, JINS, YOSH VA HUDUDLAR KESIMIDA, KISHI

GRI 401-1

| Ko'rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 | Chetlanish,% |
|---|---|---|---|---|
| **Bekor qilingan shartnomalar, jinsga ko'ra** | | | | |
| Erkaklar | 1 826 | 939 | 1 069 | 0,1 |
| Ayollar | 73 | 68 | 318 | 3,7 |
| **Bekor qilingan shartnomalar, yoshga ko'ra** | | | | |
| 30 yoshgacha | 468 | 282 | 186 | -0,3 |
| 30-50 | 1 026 | 403 | 1 149 | 1,9 |
| 50 yoshdan yuqori | 405 | 322 | 52 | -0,8 |
| **Bekor qilingan shartnomalar, hududga ko'ra** | | | | |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 72 | 23 | 17 | -0,3 |
| Andijon viloyati | 98 | 24 | 34 | 0,4 |
| Buxoro viloyati | 98 | 52 | 38 | -0,3 |
| Jizzax viloyati | 26 | 10 | 14 | 0,4 |
| Qashqadaryo viloyati | 84 | 31 | 27 | -0,1 |
| Navoiy viloyati | 77 | 39 | 55 | 0,4 |
| Samarqand viloyati | 157 | 68 | 69 | 0,01 |
| Namangan viloyati | 95 | 42 | 29 | -0,3 |
| Surxondaryo viloyati | 92 | 53 | 19 | -0,6 |
| Sirdaryo viloyati | 46 | 18 | 44 | 1,4 |
| Toshkent shahri | 812 | 508 | 892 | 0,8 |
| Toshkent viloyati | 101 | 61 | 94 | 0,5 |
| Farg'ona viloyati | 80 | 54 | 29 | -0,5 |
| Xorazm viloyati | 61 | 24 | 26 | 0,1 |
| Jami | 1 899 | 1 007 | 1 387 | 0,4 |

# PERSONALNI RIVOJLANTIRISH VA O'QITISH

**"O'ZBEKTELEKOM" AK PERSONAL KASBIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH VA O'QITISHNI BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSIY SHARTI SIFATIDA QABIL QILADI. KOMPANIYANING MUVAFFAQIYATLI VA BARQAROR ISHI BEVOSITA BILIM VA KO'NIKMALARI DOLZARB ISHLAB CHIQARISH VA TIJORIY TALABLARGA MUVOFIQ KELUVCHI XODIMLAR TAYYORGARLIGI DARAJASI BILAN BOG'LIQ.**

Xodimlarning kasbiy kamolotini ta'minlash uchun "O'zbektelekom" AKda har yili Kompaniyaning dolzarb talablari va vazifalariga muvofiq kelishiga yo'naltirilgan malaka oshirish kurslarining keng spektrini o'z ichiga olgan o'quv rejasi ishlab chiqiladi. 2024-yil davomida "O'zbektelekom" AK o'z xodimlarining kasbiy ko'nikmalarini va bilimlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirdi. Hisobot davrida 4 295 nafar xodim O'zbekiston Respublikasida hamda chet eldagi o'quv markazlarida ta'lim va qayta tayyorlovdan o'tdi. Bu maqsadlarga xarajatlarning umumiy summasi yiliga 1 526 mln so'mdan oshdi.

Maqsadli tayyorgarlik doirasida:

- respublika ta'lim muassasalarida 39 nafar xodim o'qitildi;
- chet el o'quv markazlarida — 8 nafar xodim o'qitildi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishlarida:

- respublika markazlarida 4 063 nafar xodim malaka oshirdi;
- chet el markazlarida — 185 nafar xodim malaka oshirdi.

Bundan tashqari, Kompaniyaning o'zida 12 193 nafar xodim uchun ichki seminarlar, konferensiyalar, chet tili kurslari, texnik treninglar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Bu maqsadlarga 25 mln so'mdan ziyod mablag' ajratildi.

**2024-yilgi Malaka oshirish rejasiga ko'ra, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'quv soatlari o'tkazildi:**

- Iqtisodiyot, moliya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida menejment.
- 1С-Бухгалтерия (buxgalterlar uchun).
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida marketing va xizmatlar taqdim etish.
- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (texnik yo'nalishdagi xodimlar uchun).
- Axborot xavfsizligi.
- Telekommunikatsiyalar sohasida ijtimoiy va huquqiy yo'nalishlar.
- Telekommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish va texnik xizmat ko'rsatish.

2021-2024-YY.DA RO‘YXATDAGI ISHCHI-XODIMLAR SONIDA O‘QUV DASTURLARIDA QATNASHGANLAR ULUSHI, KISHI

| Personal | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | Og‘ish,% |
|---|---|---|---|---|---|
| O‘quv dasturlarida qatnashgan xodimlar ulushi, % | 85 | 88 | 95 | 98 | 0,03 |
| Jami o‘qitilganlar, kishi | 14 765 | 15 554 | 16 636 | 16 488 | 0,12 |

Ham mahalliy, ham xorijiy o‘quv muassasalari bilan hamkorlikka alohida e’tibor beriladi. 2003-yildan buyon Kompaniya Sankt-Peterburg davlat telekommunikatsiyalar universiteti bilan faol hamkorlik qilib keladi, unda 2023/2024-o‘quv yilida Kompaniyadan 5 nafar talaba tahsil olmoqda. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va AKT sohasidagi texnikumlar o‘quvchilari uchun diplomoldi amaliyoti muntazam o‘tkazib kelinadi.

Parallel ravishda o‘rta maxsus ma’lumotga ega xodimlarni qo‘llab-quvvatlash davom etmoqda. 2024-yil oxiri holatiga 500 nafar xodim Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallarida sirtqi shaklda ta’lim olmoqda, yana 240 ta xodim Toshkentdagi Puchon universitetida sirtqi shaklda o‘qimoqda.

## TA’LIMGA INVESTITSIYALAR

2021-2024-YILLARDA PERSONALNI O‘QITISHGA INVESTITSIYALAR, MING SO‘M

| Ko‘rsatkichlar, ming so‘m | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | Chetlanish, % |
|---|---|---|---|---|---|
| Personalni o‘qitishga investitsiyalar hajmi | 707 280 | 5 918 934 | 3 893 149 | 1 526 220 | -1,56 |
| Oliy o‘quv yurtlarida personalni maqsadli o‘qitish | 365 211 | 395 571 | 581 322 | 987 892 | 0,7 |
| O‘quv markazlarida malaka oshirish | 323 249 | 5 409 123 | 3 301 527 | 513 128 | -0,85 |
| Kompaniyada tashkil etilgan o‘quv kurslari va seminarlar | 18 820 | 114 240 | 10 300 | 25 200 | 1,45 |

“O‘zbektelekom” AK xodimlarning kasbiy va akademik salohiyatlarini rivojlantirish yo‘lida rag‘batlantirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash siyosatini amalga oshiradi. Birinchi urinishda xalqaro professional imtihonlar muvaffaqiyatli topshirilganda, xodimlarga imtihon yig‘imi, tayyorlov kurslari (mavjud bo‘lsa) va shu kabi to‘lovlarga amalda sarflangan xarajatlar qoplab beriladi.

Shuningdek, Kompaniyaning 2024-yil 17-dekabrdagi 415-son buyrug‘iqa muvofiq:

- ilmiy daraja (PhD, fan nomzodi yoki doktori), yoki
- professional sohasidagi xalqaro sertifikatga ega xodimlar uchun ish haqiga har oylik qo‘shimcha haq to‘lanadi.



# XODIMLARNI IJTIMOIY QO’LLAB-QUVVATLASH VA HAYOT SIFATINI YAXSHILASH BO’YICHA LOYIHALAR

GRI 401-2

“O‘zbektelekom” AK yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga, mehnat sharoitini yaxshilashga va personalni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshiradi. Kompaniya kasbiy ta’lim, dam olishni tashkil etish, sport va madaniyat tadbirlari bo‘yicha dasturlarni tatbiq etadi, shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlaydi. Ekologik loyihalarga, yoshlarni ijtimoiy tashabbuslarga jalb qilish va teng imkoniyatlarga asoslangan korporativ madaniyatni mustahkamlashga, karyera o‘sishi va mehnat barqarorligiga alohida e’tibor beriladi.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy vositalari Kasaba uyushmasi va 2023-2025-yillar uchun Kompaniya va xodimlar o‘rtasida tuzilgan Yagona jamoa shartnoma sanaladi. Kasaba uyushmasining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va Ish beruvchilar konfederatsiyasi o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yuzasidan tuzilgan Bosh jamoaviy kelishuv, shuningdek, Axborot texnologiyalarini va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda AKT va ommaviy kommunikatsiyalar xodimlari kasaba uyushmasining respublika kengashi o‘rtasidagi tarmoq kelishuvi sanaladi. Bu hujjatlar “O‘zbektelekom” AKning Yagona jamoa shartnomasi bilan to‘ldiriladi.

Yagona jamoa shartnomasiga muvofiq, xodimlarga qator ustamalar va qo‘shimcha haq to‘lanadi, ularning asosiylari quyidagilardir:

- dam olish va bayram kunlarida ishlaganlik uchun ustama;
- tungi vaqtda ishlaganlik uchun ustama;
- me’yordan ortiq ishlaganlik uchun ustama;
- noqulay sharoitlarda ishlovchi xodimlar uchun ish haqining oshirilgan koeffitsiyentlari;
- kasbiy bayramlar munosabati bilan mukofotlar;
- yilning sovuq davrida isitishga xarajatlarning qisman kompensatsiyasi;
- ko‘chib o‘tishga xarajatlar kompensatsiyasi.

“O‘zbektelekom” AK xodimlariga aloqa sohasidagi mehnat staji uchun qo‘shimcha to‘lov to‘g‘risidagi nizomga muvofiq, mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilingan va aloqa sohasida uzluksiz ish stajiga ega barcha xodimlarga (jumladan, Kompaniya doirasida boshqa lavozimlardan o‘tkazilganda ham) staj davomiyligiga qarab, amalda ishlangan kunlar uchun har yillik ustama to‘lanadi: 1 yildan 3 yilgacha — lavozim maoshining 5 %; 3 yildan 5 yilgacha — 10 %; 5 yildan 7 yilgacha — 15 %; 7 yildan 15 yilgacha — 20 %; 15 yildan 25 yilgacha — 25 %; 25 yildan yuqori stajda — 30 %.

**GRI 202-1**

“O‘zbektelekom” AK o‘z xodimlarini munosib ish haqi darajasi bilan ta’minlaydi. 2022-yildan 2024-yilga qadar o‘rtacha ish haqining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda:

- 2022-yilda — 5 268 667 so‘m,
- 2023-yilda — 8 495 550 so‘m,
- 2024-yilda — 9 178 883 so‘m.

Minimal ish haqi ham ko‘tarildi: 2022-yilda 1 527 200 so‘mdan 2024-yilda 2 440 515 so‘mgacha, bu mamlakatda belgilangan, 2024-yil 1-oktabrdan boshlab 1 155 000 so‘mni tashkil qiluvchi eng kam ish haqi miqdori (EKIHM)dan ikki barobardan ko‘proqdir (koeffitsient 2,1 ni tashkil qildi).

Kompaniya mehnatga haq to‘lashning bozor shartlariga va ichki siyosatga muvofiq keluvchi raqobatbardosh darajasini qo‘llab-quvvatlashga intiladi.

Ustamalar va qo‘shimcha to‘lovlardan tashqari, Kompaniya xodimlarga qator ijtimoiy imtiyozlar taqdim etadi. Xodimlar va ularning oilalari uchun bolalar yozgi oromgohi tashkil etiladi, markaziy apparat va filiallarda esa imtiyozli ovqatlanish yo‘lga qo‘yilgan 12 ta oshxona ishlab turibdi. Shuningdek, xodimlar sanatoriy-profilaktoriyga yo‘llanma olishlari mumkin. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash doirasida turli hayotiy holatlar — nikoh, yaqin qarindosh vafoti, salomatlikka ko‘ra pensiyaga vaqtidan oldin chiqish, shuningdek, tabiiy ofat yoki yong‘indan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatishga oid to‘lovlar ko‘zda tutilgan.

## HISOBOT DAVRIDA KOMPANIYA XODIMLARINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHGA XARAJATLAR 141 490,7 MLN SO‘MNI TASHKIL QILDI, ASOSIY YO‘NALISHLAR QUYIDAGILARDAN IBORAT BO‘LDI:

**Murakkab va turmush vaziyatlarida qo‘llab-quvvatlash:**

- Yubileyga bir martalik mukofot puli — **2 538,7** mln so‘m.
- Moddiy yordam (pensiyaga chiqish munosabati bilan) — **6 961,1** mln so‘m.
- Moddiy yordam — nikoh qurish munosabati bilan — **619,0** mln so‘m.
- Nogironlik nafaqasi — **351,3** mln so‘m.
- Boquvchisini yo‘qotganligi uchun to‘lovlar — **230,9** mln so‘m.
- Moddiy yordam — oila a’zosining vafoti tufayli — **182,7** mln so‘m.

**Qo‘shimcha to‘lovlar va kompensatsiyalar:**

- Iqlimiy mehnat sharoitlari uchun qo‘shimcha to‘lov — **7 590,6** mln so‘m.
- Zararli mehnat sharoitlari uchun ustama — **5 337,6** mln so‘m.
- Yo‘l haqi qiymatining kompensatsiyasi — **29 707,3** mln so‘m.

**Ta’til va u bilan bog‘liq to‘lovlar:**

- Qo‘shimcha ta’til — **55 995,3** mln so‘m.
- O‘qish bilan bog‘liq ta’til va ijodiy ta’tillar — **14 846,5** mln so‘m/yiliga
- Bola tug‘ilgani munosabati bilan qo‘shimcha ta’til — **0,8** mln so‘m.
- Nikoh qurilgani munosabati bilan ta’til — **3,2** mln so‘m.
- 12 yoshgacha 2 va undan ko‘p bolali yoki nogiron bolali ayollarga ta’til — **181,8** mln so‘m.
- Homiladorlik va tug‘ruq nafaqalari — **3 462,5** mln so‘m.

**Ta’lim va rivojlanish:**

- Ishdan ajralgan holda o‘qish to‘lovi — **5 396,0** mln so‘m.
- Stipendiyalar — **152,5** mln so‘m.

**Pensionerlarni qo‘llab-quvvatlash:**

- Ishlamaydigan pensionerlarga yordam — **213,6** mln so‘m.
- Ishdan bo‘shash nafaqasi — **1 887,8** mln so‘m.

**Sog‘lomlashtirish va sport:**

- Sanatoriy-kurort yo‘llanmalari va chiptalari — **538,9** mln so‘m.
- Kasallik tufayli moddiy yordam — **307,4** mln so‘m.
- Xodimlar davolanishiga — **26,1** mln so‘m.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi 743-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy viloyati, Buxoro viloyati, Namangan viloyati va Qashqadaryo viloyatidagi filiallarda ishlovchi xodimlarga 6 kungacha qo‘shimcha mehnat ta’tili beriladi.

Kompaniyaning ijtimoiy siyosatida xodimlarga turar joy taqdim etiladigan dastur muhim o‘rin tutadi. 2020-yildan buyon, Kompaniya Kasaba uyushmasi tashabbusi bilan, eski Avtomatik telefon stansiyalar (ATS) o‘rnida turar joy bilan ta’minlashga muhtoj xodimlar, yosh va ko‘p bolali oilalar va shu kabilar uchun ko‘p qavatli turar joy uylari qurilmoqda.

Berilgan vakolatlar asosida Kompaniya Kasaba uyushmasi turar joyga muhtoj xodimlar arizalarini qabul qiladi va ijtimoiy ehtiyoj mezonlariga ko‘ra saralaydi va eng muhtojlarga ustuvorlik beradi. Turar joy imtiyozli shartlarda, qiymatining 30 % miqdorida birlamchi badal bilan taqdim etiladi, qolgan summa har oy, qo‘shimcha foizlarsiz, 3 yil davomida to‘lanadi. 2024-yilda Kompaniya turar joyga muhtoj xodimlar uchun yana 44 ta xonadon ajratdi. Bu keng ko‘lamli ijtimoiy loyiha hozirda ham amalga oshirilmoqda.

# YOSHLAR SIYOSATI

**“O‘ZBEKTELEKOM” AK PERSONAL TUZILMASIDA YOSH MUTAXASSISLAR SONINI OSHIRISHGA INTILADI. HISOBOT DAVRIDA 30 YOSHGACHA XODIMLAR SONI 4 132 NAFARNI TASHKIL QILADI, ULARDAN 86 NAFARI — RAHBARIYAT, 4 046 NAFARI — BOSHQA QUYI BO‘G‘IN LAVOZIMLARIDA ISHLAYDI.**

Kompaniya yosh mutaxassislar salohiyatni rivojlantirishga sa’y-harakatlarni yo‘naltiradi hamda seminarlar, treninglar va davra suhbatlari o‘tkazadi. Kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda muntazam ravishda korporativ madaniyat va sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlovchi sport tadbirlarini tashkil etadi. Yoshlar siyosati nafaqat bosh ofisni, balki Kompaniyaning butun filiallarini qamrab oladi va karyera yuksalishi uchun teng sharoitlarni yaratadi. Ushbu ish doirasida hisobot yilida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

- “O‘zbektelekom” AK yosh xodimlarining huquqiy savodxonligini va shaxsiy salohiyatini oshirishga qaratilgan dolzarb siyosiy-huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy seminarlarni tashkil etish;
- “Yoshlar haftaligi”ni o‘tkazish;
- Yoshlarni amaldagi normativ-huquqiy aktlar bilan tanishtirish, jumladan:
  - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning parlamentga murojaati;
  - “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun;
- Kompaniya rahbariyati va yosh xodimlar bilan bevosita muloqot, shuningdek, yoshlar tashabbuslari va manfaatlarini aniqlash maqsadida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlarini tashkil etish;
- Yosh xodimlarning ma’naviy boyligini ta’minlash maqsadida teatr, kino va muzeylarga tashriflar uyushtirish va boshqalar.

## Universitetlar bilan hamkorlik

Yoshlar siyosati doirasida Kompaniya universitetlar va boshqa ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantiradi:

- 2-fevralda “O‘zbektelekom” AK va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazi bilan hamkorlik kelishuvi imzolandi;
- 10-mayda Toshkentda Vebster Universiteti ta’lim dasturlarini amalga oshirish markazi bilan akademik imkoniyatlarni kengaytirish va Kompaniya xodimlari kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Hamkorlik memorandumi imzolandi;
- 10-sentabrda “O‘zbektelekom” AK va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti bilan 17-son hamkorlik to‘g‘risida kelishuv imzoladi, u tomonlarning telekommunikatsiya va raqamli texnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlash sohasidagi istaklarini mustahkamladi.

Bunday o‘zaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri talabalarga Kompaniyada stajirovkalar o‘tish imkoniyatini taqdim etish bo‘lib, bu ularga amaliy tajriba orttirish, korporativ muhitga moslashish va zaruriy kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning hududiy filiallarining 1 647 nafar talabasi uchun ishlab chiqarish va diplomoldi stajirovkalari tashkil etildi. Shu bilan birga, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining 16 nafar talabasi va Toshkentdagi Turin politexnika universitetining 27 talabasi uchun malaka va diplomoldi amaliyoti o‘tkazildi.

Kompaniya yosh mutaxassislarning takomillashuvi uchun qulay sharoit yaratishga intiladi, ularning uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanishga intilishlarini rag‘batlantiradi. Ushbu tashabbus doirasida oliy o‘quv yurtlarida ta’limni muvaffaqiyatli yakunlagan xodimlar uchun mukofotlar ko‘zda tutilgan. Shuningdek, Yagona jamoa shartnomasiga muvofiq, 2024-yilda xodimlarga 20,24 mlrd so‘mlik ta’lim ta’tili berildi va 190,48 mln so‘m stipendiya to‘landi.

Yoshlar siyosatiga kompleks yondashuv Kompaniyaga qobiliyatli mutaxassislarni jalb etishgina emas, balki mamlakatda ta’limni va kasbiy tayyorlovni rivojlantirishga hissa qo‘shish imkonini ham berdi.



# TURFA XILLIK VA INKLYUZIVLIK

GRI 3-3, 405-1, 405-2

“O‘zbektelekom” AK tenglik va inklyuzivlik tamoyiliga rioya qiladi, jinsi, yoshi, irqi yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, barcha xodimlarning kasbiy o‘sishi uchun sharoitlar yaratadi.

2024-yilda Kompaniyada jins, yosh, etnik mansublik, din yoki boshqa asoslarga ko‘ra kamsitishning birorta holati qayd etilmaydi. Kompaniya qator ichki normativ hujjatlar (kodekslar va siyosatlar)da belgilangan teng imkoniyatlar tamoyillariga rioya etadi, Kompaniyaning barcha xodimlari shikoyatlar taqdim etish mexanizmidan foydalanish imkoniyatiga ega va qayta aloqa ichki kanallari orqali murojaat qilishlari mumkin.

Kompaniya siyosati mehnatga, rag‘batlantirish tizimiga va imtiyozlar taqdim etishga adolatli yondashuvga asoslanadi. To‘liq bandlik sharti asosida ishlovchi barcha xodimlar hayotni sug‘urtalash dasturi bilan qamrab olingan. 5 154 nafar xodimga tibbiy xizmat taqdim etiladi, 558 nafar xodim 2024-yilda bola parvarishi uchun ta’til huquqidan foydalandi.

Hisobot yilida rahbarlik lavozimlaridagi ayollar soni avvalgi davrlardagiga nisbatan sezilarli o‘sgani kuzatildi, bu mehnat jamoasida ayollar yetakchiligini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashda ilgarilash ro‘y berganidan dalolat beradi.

### LAVOZIMLAR KESIMIDA PERSONALNING GENDER TUZILMASI, KISHI

| | 2021 | | 2022 | | 2023 | | 2024 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Ko‘rsatkichlar | Erkak | Ayol | Erkak | Ayol | Erkak | Ayol | Erkak | Ayol |
| Quyi bo‘g‘in lavozimlari | 11 808 | 4 441 | 12 179 | 4 483 | 11 907 | 4 295 | 11 601 | 4 099 |
| Rahbarlik lavozimlari | 962 | 96 | 973 | 112 | 1 117 | 139 | 1 019 | 106 |

### PERSONAL TUZILMASI, LAVOZIMLAR VA YOSH KESIMIDA, KISHI

| | 2021 | | 2022 | | 2023 | | 2024 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Ko‘rsatkichlar | Quyi bo‘g‘in lavozim lari | Rahbarlik lavozim lari | Quyi bo‘g‘in lavozim lari | Rahbarlik lavozim lari | Quyi bo‘g‘in lavozim lari | Rahbarlik lavozim lari | Quyi bo‘g‘in lavozim lari | Rahbarlik lavozim lari |
| 30 yoshgacha | 4 904 | 89 | 4 810 | 96 | 4 579 | 108 | 4 046 | 86 |
| 30-50 | 8 821 | 764 | 9 257 | 773 | 9 012 | 929 | 8 997 | 841 |
| 50 dan yuqori | 2 524 | 205 | 2 595 | 216 | 2 611 | 219 | 2 657 | 198 |

Shuningdek, 2024-yilda Kompaniya imkoniyati cheklangan xodimlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga nogironlik nafaqasi sifatida 351 mln so‘m yo‘naltirdi.



## GENDER TENGLIK VA XOTIN-QIZLAR QO‘MITASI

GRI 406-1

Gender tenglik Kompaniyaning asosiy qadriyatlaridan biri sanaladi, chunki teng imkoniyatlar masalalari bevosita xotin-qizlar farovonligi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning kasbiy va shaxsiy takomillashuviga salmoqli ta’sir ko‘rsatadi. Kompaniyada Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyat yuritadi, chunki xodimlar umumiy sonining 25% ini xotin-qizlar tashkil qiladi. Gender tenglikni ilgarilatish va xotin-qizlar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish uchun Kompaniyada maxsus komissiya tashkil etilgan. Shuningdek, 28.06.2022-y.da 257-son buyruq chiqarilgan va Kengashning Xotin-qizlar va erkaklar uchun huquqiy shart-sharoitlarni yaxshilash bo‘yicha nizomi ishlab chiqilgan.

Kompaniya tezkor liniyasi orqali xotin-qizlarga oid masalalar bo‘yicha murojaatlar kelib tushganda Qo‘mita ularni ko‘rib chiqadi va mehnat huquqi, kasbiy rivojlanish masalalari bo‘yicha, shuningdek shaxsiy va oilaviy qiyinchiliklarni hal etishda konsultatsiya qo‘llab-quvvatlovini amalga oshiradi. Bundan tashqari, Qo‘mita ish va oilaviy hayot o‘rtasidagi muvozanatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan korporativ siyosatlarni, jumladan moslashuvchan grafiklar, masofadan ishlash imkoniyatlari va boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tatbiq etishda qatnashadi. Xotin-qizlar ta’limi va kasbiy takomili masalalariga alohida e’tibor beriladi — Qo‘mita ularning bilim olishlariga, jumladan ikkinchi oliy ma’lumotga ega bo‘lish va asosiy salohiyatlarini kuchaytirishda ko‘maklashadi.

Xotin-qizlar qo‘mitasi Ish rejasiga muvofiq, 2024-yilda bosh ofis va filiallar xodimalari uchun quyidagi tadbirlar tashkil etildi:

- Mehnat jamoalarida ishlovchi ayollar jismoniy faolligini oshirish maqsadida sport musobaqalari o‘tkazildi (shaxmat, shashka, stol tennisi, voleybol va boshqalar);
- Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan “Sport — salomatlik manbayi” haftalik tashabbusida ayollarning muntazam ishtiroki ta’minlandi;
- Xodimalar tomonidan sport zallariga qatnash uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan;
- Ma’naviy darajani oshirish, o‘qish madaniyatini shakllantirish va ilmiy bilimlarni ommalashtirishga qaratilgan “Quiz” intellektual o‘yini tashkil etildi;
- 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan “Aziz va muqaddas ayol” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi;
- Milliy libos va an’analarni ommalashtirish maqsadida “Xon atlas” festivali o‘tkazildi;
- O‘zbekiston Respublikasining 32 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirlar, jumladan xodimalarni taqdirlash va jamoalarda bayram tadbirlarini o‘tkazish va boshqalar tashkil etildi.

## ONALIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH

GRI 401–3

2024-yilda 558 nafar ayol Homiladorlik va tug‘ish ta’tilini va/yoki bola parvarishi uchun ta’tilni rasmiylashtirdi. Bunda, 98 nafar xodim ta’til muddati yakunlangandan keyin ishga qaytdi. Hisobot davrida bola parvarishi uchun ta’tilning o‘rtacha davomiyligi — 365 kun.

### HOMILADORLIK VA TUG‘ISH TA’TILI HAMDA BOLA PARVARISHI UCHUN TA’TILNI RASMIYLASHTIRGAN XODIMLAR SONI

| | 2021 | | 2022 | | 2023 | | 2024 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Ko‘rsatkichlar | Erkak | Ayol | Erkak | Ayol | Erkak | Ayol | Erkak | Ayol |
| Homiladorlik va tug‘ish ta’tili va bola parvarishi uchun ta’til olish huquqi bo‘lgan xodimlar soni (O‘zR MK) | 0 | 1 131 | 0 | 1 101 | 0 | 1 022 | 0 | 558 |
| Homiladorlik va tug‘ish ta’tili va bola parvarishi uchun ta’til rasmiylashtirgan xodimlar soni | 0 | 1 131 | 0 | 1 101 | 0 | 1 022 | 0 | 558 |
| Hisobot davrida bola parvarishi uchun ta’tilning o‘rtacha davomiyligi, kun | 0 | 365 | 0 | 365 | 0 | 365 | 0 | 365 |

# AXBOROT XAVFSIZLIGI

GRI 418-1

Kompaniya barqaror rivojlanish yondashuvlarini izchil tatbiq etib borib, axborot jarayonlarining ishonchliligi va ma'lumotlar muhofazasiga alohida e'tibor qaratadi. Maxfiylik siyosati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni inobatga olingan holda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-369-moddalariga, tarmoq standartlari va dolzarb kiberxatarlar darajasiga muvofiq ishlab chiqilgan. Axborot tizimlarini loyihalashtirish va ularni ekspluatatsiya qilishda qayta ishlanadigan ma'lumotlar xarakterlari, biznes-jarayonlar muhimligi, shuningdek, tashqi va ichki tahdidlar salohiyati hisobga olinadi.

Axborot xavfsizligini boshqarish tizimi huquqiy, tashkiliy va strategik tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

**Qonunchilikka va normativ talablarga muvofiqlik:**

Kompaniya axborot, shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasi va raqamli texnologiyalar sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarining bajarilishini ta'minlaydi. Ichki siyosatlar amaldagi normativ-huquqiy aktlarga, shuningdek, axborot xavfsizligi sohasidagi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Sohadagi davlat organlari bilan muntazam ravishda amalga oshirilayotgan o'zaro munosabatlar barcha tartibga soluvchi talablarga rioya etilishiga xizmat qiladi.

**Tashkillashtirish va nazorat:**

Axborot xavfsizligini ta'minlash funksiyalari turli boshqaruv darajalari o'rtasida taqsimlangan. Kompaniyada ichki nazorat va ma'lumotlarni muhofaza qilish bilan bog'liq xatarlarni baholash tizimi amal qiladi. Ko'rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini kuzatish va salohiyatli tahdidlarga tezkor munosabat bildirish imkonini beruvchi ichki auditlar va tekshiruvlar muntazam ravishda o'tkaziladi. Tuzilmaviy jihatdan Xavfsizlik xizmati boshqaruv raisining axborot xavfsizligi va rejim bo'yicha o'rinbosariga bo'ysunadi va 4 ta shtat birligini, shuningdek, filiallardagi axborot xavfsizligini ta'minlashga mas'ul xodimlarni o'z ichiga oladi.

**Strategik yondashuv va xatarlarni boshqarish:**

Barqaror faoliyat yuritish maqsadlarida tahdidlarning, jumladan ma'lumotlar sizib chiqishi, texnik uzilishlar va boshqa zaifliklar xatarlarining muntazam tahlili amalga oshiriladi. Monitoring va munosabat bildirish vositalari joriy etilgan, axborot xavfsizligi siyosati esa, Kompaniya barqaror rivojlanishining umumiy strategiyasiga kiritilgan.

Axborot almashinuvi asosan avtomatlashgan rejimda, xodimlar yoki pudratchilar ishtirokisiz amalga oshiriladi. Mehnat yoki shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun ma'lumotlardan foydalanish zarur bo'lgan holatlarda, u qat'iyan minimal zaruriy hajmda, axborot xavfsizligi talablariga albatta rioya etilgan holda amalga oshiriladi. Barcha xodimlar va tashqi ijrochilar axborot muhofazasi ichki siyosatlari, taomillari va texnik reglamentlariga, jumladan foydalanuvchi ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash chora-tadbirlariga rioya etishlari majburiydir.



### TC-TL-220A.1, 2, 3, 4

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Kompaniya abonentlarning shaxsga doir maxfiy ma'lumotlarini, muayyan subyektning alohida roziligini oldindan olmay turib, reklama maqsadlarida, qo'shimcha shaxsiy xizmatlar taqdim etish va ikkilamchi maqsadlar (jumladan tahlil va uchinchi shaxslarga berish) uchun qayta ishlamaydi. Shaxsga doir ma'lumotlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar so'rovlariga ko'ra ham taqdim etilmaydi (agar Qonunda boshqacha holat ko'zda tutilgan bo'lmasa). 2024-yil yakunlariga ko'ra, mijozlarning shaxsiy hayoti daxlsizligi buzilishiga bog'liq sud muhokamalari bo'lmadi, shu sababli ushbu asosga ko'ra moliyaviy yo'qotishlar qayd etilmadi.

### TC-TL-230A.1, 2, GRI 418-1

Shaxsga doir ma'lumotlar sizib chiqishi, o'g'irlanishi yoki yo'qolishi faktlari qayd etilmadi. Mijozlarning shaxsga doir ma'lumotlari maxfiyligi buzilishi bilan bog'liq tasdiqlangan shikoyatlari, jumladan tashqi tomonlardan olingan shikoyatlar va tartibga soluvchi organlardan kelib tushgan shikoyatlar kuzatilmadi. Jabrlangan shaxsga doir ma'lumotlar subyektlari haqida ma'lumotlar mavjud emas. Kompaniyada axborot xavfsizligi xatarlarini aniqlash va bartaraf etishga kompleks yondashuv amalga oshirilgan, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tegishli siyosatlarni, jumladan Maxfiylik siyosatini ishlab chiqish va tatbiq etish (foydalanuvchilar ma'lumotlarini to'plash, saqlash va muhofaza qilishni va xavfsizlikning texnik choralarini tartibga soladi);
- zaruriy dasturiy ta'minotni tatbiq etish uchun hamkorlik va qo'shma dasturlarni, jumladan "zero-trust-ulanish" yo'nalishidagi xalqaro hamkorlikni, xususan korporativ mijozlar uchun
- o'z xavfsizlik xizmatini ishga tushirishni rivojlantirish;
- qo'shimcha himoya va autentifikatsiya bilan bulutli va data-markaz yechimlari;
- tahdidlarga qarshi turishga qo'shimcha o'qitish, jumladan abonentlarni xabardor qilish va axborot xavfsizligi, xususan DLP va shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish mavzulari bo'yicha vebinarlar va konferensiyalar;
- tahdidlarni baholash va zaifliklar tahlili (doimiy asosda);
- proaktiv monitoring va munosabat bildirish.

Kiberxavfsizlikni ta'minlashga doir faoliyat O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi huzuridagi Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi tavsiyalarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Antivirus himoyasi, tarmoq trafigi monitoringi va xavfsizlik hodisalari tahlili ta'minlangan.

### TC-TL-550A.1, 2

2024-yilda telekommunikatsiya jihozlari ishlashida uzilishlar qayd etilmadi. Yetkazib beruvchi — "Hududiy elektr tarmoqlari" tomonidan asosiy elektr ta'minoti uzilishiga qaramay, Kompaniya tarmog'idagi qurilmalar zaxiraviy (ikkilamchi) elektr ta'minoti manbalari bilan ta'minlangan bo'lib, bu telekommunikatsiya xizmatlarini uzluksiz taqdim etishni ta'minlaydi. Shu tufayli, servislar taqdim etishda uzilishlar qayd etilmadi. Kompaniya tomonidan "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi Qonun talablariga, shuningdek, tegishli tarmoq va normativ hujjatlar, jumladan ITU-T tavsiyalari bilan uyg'unlashtirilgan O'z DSt 3207:2023 standartiga rioya qilish maqsadida barcha zaruriy choralar ko'rilgan.

Shu tariqa, kiberxavfsizlikka tizimli yondashuv hisobiga, Kompaniya axborot barqarorligi tamoyillariga rioya etilishini ta'minlaydi va foydalanuvchilar, mijozlar va hamkorlar ishonchini qozonib keladi.

### TC-TL-520A.3

Kompaniya tarmoq neytraliteti tamoyiliga amal qiladi va trafikning pulli ustuvorlashuvi amaliyotini qo'llamaydi. Kompaniya foydalanuvchilarning qonuniy kontentga ulanishini cheklamaydi, servislar tezligini pasaytirmaydi, alohida xizmat yetkazib beruvchilar uchun ustuvorroq xizmatlar ko'rsatmaydi. Hisobot tayyorlanishi vaqtida tarmoq neytralitetining buzilishi bilan bog'liq xatarlarga ishora qiluvchi holatlar, jumladan foydalanuvchilar shikoyatlari yoki tartibga soluvchi organlar tomonidan murojaatlar qayd etilmadi. Bunday xatarlar Kompaniya tomonidan kichik deb baholanadi.

# FAOLIYAT YURITILAYOTGAN HUDUDLARDA QO'LLAB-QUVVATLASH VA HAYOT SIFATINI OSHIRISH LOYIHALARI

GRI 203-1

**KOMPANIYA NAFAQAT BEVOSITA TASHKILOTGA ISHGA JOYLASHGAN O'Z XODIMLARI, BALKI O'ZI FAOLIYAT YURITADIGAN HUDUDLAR AHOLISI HAQIDA HAM QAYG'URISHGA INTILADI. KOMPANIYADA KO'ZDA TUTILGAN BARCHA IJTIMOIY IMTIYOZLAR 16 TA TARKIBIY BO'LINMANING BARCHASINI QAMRAB OLADI VA ULARNING JOYLASHUVIDAN QAT'I NAZAR, BARCHA XODIMLAR UCHUN TENG IMKONIYATLARNI TA'MINLAYDI.**

O'zining filial tarmog'i orqali, Kompaniya bandlik va mahalliy aholi farovonligi darajasini oshirishga ko'maklashib, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning muhim ko'rsatkichi Kompaniya barcha xodimlarining 65 % O'zbekiston Respublikasi hududlarida ishlab, ular rivojiga salmoqli hissa qo'shayotganidir.

**2024-YILDA XAYRIYA ISHLARI VA HOMIYLIK YO'NALISHLARI, MLN SO'M**

| Ko'rsatkichlar | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|
